аралашты дегенче иш тескерисинен кетип, ыр өлүк түшкөн баладай сезим муздатып салаары көрүнө иш”, - деп А. Токтогулов айткандай, акынга бир нерсе таасир бериши керек [Токтогулов А. Поэзияга мамиле. – Ф., 1975, 112-б.] Мына ушундай таасирди башынан өткөрүп жаткан жаштарга Ш. Дүйшеевдин чакырык ырлары зор таасир берген.

Дегеле, кудай берген шык, жөндөм менен эле мыкты акын болуп кетүүгө болбойт. Акын болуш үчүн талантты өсүрүүгө эмгек болуш керек. Ар кандай изденүүлөрдүн натыйжасында гана мыкты чыгармалар жаралышы мүмкүн. Андан тышкары акындардын жеке мүмкүнчүлүктөрү, өзгөчөлүктөрү да бааланат. Бирок, азыркы учурда совет мезгилиндегидей цензура жок болгону жакшы болгону менен ар ким өз каалаганын жазып, интернетте кызуу макталып, чыныгы адабияттын деңгээлин түшүрүп жатканы ырас. Анысы аз келгенсип адабий сындын таптакыр иштебей жаткандыгы адабияттын кайсы тарапка өсүп бара жаткандыгын билүүгө тоскоол болот.

Азыркы адабият, анын ичинде поэзия тууралуу сөз баштарда эле өзү да ушул мезгилдин өкүлү Н. Кадырбековдун учурдун адабияты тууралуу айтканы менен бекемдесек болот: “Айтматов жок, Касымбеков жок. Акындардан илгеркидей Байдылда, Тургунбай, Табылдылар жок. Кечээ эле адыраңдап жүргөн Алик Акималиев да заманга кор болуп жүрүп өтүп кетти. Улуттук адабиятыбыз чын эле супсак тартып кеткендей. Мүмкүн мунун өзү мамлекеттин адабиятка болгон камкордугунун жоктугунан. Менимче, чоң адабиятты чоң мамлекеттер гана жарата алат окшойт”, - деп, эмне үчүн мыкты адабият жаралбай жатат деген суроого өзүнүн пикирин айтыптыр [Деркембаев Т. Жаңы муун күткөн адабият // Сарысеп, 7-август, 2015-жыл].

XIX кылымга кирип келген азыркы мезгилде өз алдынча жашап башыбыздан көп кырдуу турмушту өткөрүп жаткан мезгилде адабият менен маданиятыбыздын позициясы чыңалып, азыркы поэзиябыздын, оош-кыйыштары, ийгиликтери менен мүчүлүштүктөрү, деги эле жанрдын көркөм ой жүгүртүүнүн спецификалуу формасы катарында өтөп жаткан кызматы, мүмкүнчүлүктөрү жана функциялары туурасында өздүк байкоолорду ортого салууга чакырбай койбойт.

XX кылымдын 90-жылдарга чейинки кыргыз поэзиясынын абалы жемиштүү жана жогору болгон. Биринчиден, улуттук поэзия азыркы эпикалык көркөм ой жүгүртүүнүн масштабын арттырууга, анын мазмунун социалдык-нравалык, нравалык-философиялык, психологиялык проблемалар менен каныктырууга аракет жасаган. Ошону менен катар поэзия өз мүмкүнчүлүктөрүн ачуунун, окурмандардын ишеничин актоонун үстүндө активдүү аракеттенүүнүн натыйжасында жанрдын ички сыймдуулугу арткан. Экинчиден кыргыз поэзиясы турмушту көркөм чагылтуудан,

өздөштүрүүдөн турмуш проблемаларынын үстүндө активдүү ой жүгүртүүгө өтүү демилгелерин көтөрүп жатканы байкалып турган. Чыгармачылыктын жаңы тибин көркөм иликтөө жагдайында жагымдуу аракеттер жасалып, адам жүрүм-турумунун ички дүйнөсүн, салт-санаасын мейкиндик жактан анализдөөдө көңүл жубата турган кубулуштар орун алган. Стилдик бөтөнчөлүккө умтулуунун салттарын байытуу аракеттери жакшы жүргөн.

Кыргыз эли үчүн Эгемендүүлүккө жетишип, өз алдынча мамлекет болуп өмүр сүргөн, көптөгөн мамлекеттерге таанылып, кыргыз улуту деген сыймыктуу атты дүйнө элине таанытуу жолунда бараткан учур болуу менен бирге адабият менен маданиятта көптөгөн кыйынчылыктарга кептелген учурлар болгон. Көркөм адабиятка болгон астейил мамиленин, кам көрүүнүн жоюлушу, өз алдынча чыгармачылыгын уланта албай калууга шарттын түзүлүшү, адабияттын коомдук баркынын түшүшү, акын-жазуучу болом деп, бирок, акындыкты жакшы түшүнбөгөн акындардын адабиятка көптөп аралашып кетиши, китеп чыгаруу колунда барлардын энчисине айланып калгандай учурдун түзүлүшү жана канчалаган жылдардан бери чыгып, адабий, маданий жаңылыктар менен элди тааныштырып турган, адабият менен маданияттын очогу болгон “Ала Тоо” журналынын чыкпай токтоп калышы (журнал каражаттын жетишсиздигинен 1994-жылдан тартып экиден саны чыгып, 1997-жылы бир саны чыкса, 2000-жылы эки саны чыгып, ошо бойдон токтогон), (“Кыргызстан маданияты” гезити 1990-жылдан кийин “Кыргыз маданияты” аталышында чыгып туруп, акыркы саны “Дордой” базары тууралуу маалымдап, ошо бойдон токтогон) мына ушундай адабиятка атайын арналган Республикалык газета менен журналдын жоюлушу чыгармачылыктын өркүндөшүнө терс таасирин тийгизген. Акындардын өзүнүн аракетинин натыйжасында гана чыгармачылыгын улантууга болгон кез келген эле.

Кыргыз коомунда мындай көрүнүштөр болуп жаткандыгы, албетте, көркөм адабияттын өнүгүшүнө терс таасирин тийгизген. Мындай абалдын жаралышы тууралуу адабиятчы М.Жумаев мындай деп айткан: “Мындай инерттүүлүк дагы эле сынды жарыялай турган адабий процесске адаптациялашкан мезгилдүү басма сөздүн жоктугу менен шартталды. Арада “Адабий Ала-Тоо”, “Кыргыз тадабияты” басылмалары жарык көрө калып, кур жалак сындын куржунунун оозун ачып, сынга суусап калган элдин чаңкоосун кандыра баштады эле, ал башталыш да узакка созулбай, каражатсыз жабылып калды. Мезгилдүү басма сөз совет мезгилиндегиден алда канча көп болгон менен дээрлик баары белгилүү бир саясий-экономикалык максаттарды көздөп, адабий процесстин оош-кыйышын таназарына илбеди. Бул арада реалдуу жашоодо мурдагы жабык эшиктер

ичке карай да, ичтен сыртка карай да ачылып, маалымат алмашуунун жаңы технологиялар турмушка ыкчамдык менен кирди” [Жумаев М. Адабият дүйнөсү. 1-бөлүк. – Б.; Полиграф-ресурс, 2016, 22-б.].

Эгемендүүлүк алган жылдарыбызда пайда болуп, кыргыз адабияты менен маданиятындагы жаңылыктарды чыгарып, адабиятты сүйгөн окурмандардын сүйүктүү гезитине айланган “Адабий –Алатоо” гезитинин да жабылып калышы, Кыргызстан Жазуучулар Союзунун “Кыргыз адабияты” гезитинин да чыкпай токтоп турушу, адабий, маданий жаңылыктар менен таанышууга тоскоол болууда. Бирок, бүгүнкү күндө окурмандарды кубанта турган көрүнүш “Жаңы Ала-Тоо” журналынын чыгып турушу, “”Азияньюс”, “Де-факто”, “Майдан” сыяктуу гезиттердин адабий-сын макалаларды чыгарып турушу кубандырат. Ошондой эле, “Рухэш” сайты, “Новая литература Кыргызстана” (www.Literatura.kg) электрондук китепканасы, Борбордук Азиядагы Америка университетинин “Золотая табуретка” клубу менен “Event Deluxe” компаниясы тарабынан уюштурулган 2012-жылдагы адабий сынагы, “Много языков – один мир” адабий альманахынын чыгышы сыяктуу иштердин болушу чыгармачылыкка жаңыдан аралашкан жаштар үчүн ырларын жарыялоого өбөлгө болууда.

Кыргызстандын коомдук-саясий, маданий, коомдук турмушу, илим менен техниканын өскөн заманы окурмандарды китеп окуудан бир топ алыстатып койгон азыркы мезгилде көркөм чыгармачылыкка, болгон мамиле бир топ эле өзгөрдү. Китеп күйөрмандары, акын-жазуучулардын, илимпоз-сынчылардын өздөрү да поэзияга болгон талапты, ырга болгон талаптын өзгөрүшүнө көнө албай турушкандай. Себеби, кыргыз профессионал адабиятынын тарыхы, айрыкча поэзия жааты жакшы башталып, ийгиликтүү уланып, адабиятка аралашкан акындардын чыгармачылыгы бир кыйла кызыктуу жана жаңычылдыгы менен дайым айырмаланып турган. Мурдатан жазып келаткан акындардын жоон тобу: Р. Рыскулов, Г. Момунова , А. Өмүрканов, А. Рыскулов, А. Жакшылыков, С. Акматбекова, Р. Карагулова, Н.Мукашева, А.Дегенбаева, Ш. Келдибекова, Э. Эрматов, А. Узакова, К. Сариева сыяктуу акындар улуттук поэзияны жаңычалоого умтулушкан мыкты ыр жыйнактарын чыгарып келишкендиги баарыбызга маалым. Аталган акындар кыргыз поэзиясын өздөрүнүн табылгалары жана изденүүлөрү менен ийгиликтүү улантып келишкен. Улуттук поэзия алдыга кетип, кыргыз поэзиясына жаңы үн, жаңы табылгалары менен жаңы муун уламдан улам кошулуп турушкан. Алдыңкы акындар өз алдынча болууга, индивидуалдуулукка умтулуу менен өз темасын, өз стилин табуу аракетин ушул күнгө чейин улантып келе жатышат.

Мына ушундай көчтү азыр орто муун деп аталып жүргөн: Б. Чотурова, Ф. Абдалова, Ж. Арыковалар улантышса, азыркы күндө жаш акындар деп аталып жүрүшкөн: Калыбеков Нурлан, Ажыматов Зайырбек, Самыйкожо Мирлан, Исмаилов Алтынбек, Осмонова Назгүл, Жаманкулова Жазгул, Орозобекова Чолпон, Жамгырчиев Бердибек ж.б. көптөгөн акындар бар. Мына ушул топтон кийин чыккан жаш акындар деген топ өзүнчө.Дегеле, эгемендүүлүктү алган жылдардан баштап акын-жазуучуларга көңүл бурулбай келет. Ошого карабай изденип, чыгармачыл чөйрөдө таанылып калган жаш акындар арбын. Азыркы жаштардын чыгармачылыгы, алардын изденүүлөрү, жетишкендиктери жана ошону менен катар кемчиликтери тууралуу да сөз кылабыз.

Пайдаланылган адабияттар:

1. Асаналиев К.,Кыдырбаева Р.З. Кыргыз адабий илиминин терминдер сөздүгү.-Б., 2004.
2. Асаналиев К. Көркөм нарк. – Ф., 1988.
3. Азыркы кыргыз адабияты. – Б., Бишкекплюс, 2015.
4. Асакеева Д.Ж. Адабият теориясы . – Б., 2016.
5. Жумаев М. Жаңы мезгил жана адабият.- Б.; Бийиктик, 2012.-328 б.
6. Ибраимов К. Поэзия – ажайып аалам. Китепте: адабият, адам жана дүйнө. – Ф., 1986.
7. Эркебаев А. Азыркы учур жана кыргыз поэзиясы. – Ф., 1980.
8. Ажыматов З.“Нөлү көп жылдар“. – Б., 2011.
9. Ажыматов З. Адабий сын акындарды капа кылды// Азаттык радиосу, 2019, 25-февраль.
10. Артыкбаев К. ХХкылымдагы кыргыз адабиятынын тарыхы. – Б.; 2004.
11. Даутов К. Кандай акын оригиналдуу болот же Анатайдын ачылышы // Де-Факто, 2016-жыл, 4-март.
12. Деркембаев Т. Жаңы муун күткөн адабият // Сарысеп, 7-август, 2015.

UDK. 82-311

XIX ASR INGLIZ ADABIYOTI AYOL YOZUVCHISI ELIZABET GASKELNING “SHIMOL VA JANUB” ASARIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TALQIN

Rashidova Feruza Rasulovna,
Namangan davlat universiteti v.b. dotsenti, f.f.f.d
E-mail:feruza.rashidova.uz@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada XIX asr ingliz adabiyotidagi muhim ayol yozuvchilardan biri Elizabet Gaskelning “Shimol va janub” romanidagi ijtimoiy-psixologik talqinni o‘rganiladi. Unda Viktoriya davri sanoat jamiyatidagi sinfiy ziddiyatlar, gender rollari va ijtimoiy adolat masalalari Margaret Xeyl va Jon Tornton qahramonlari orqali tahlil qilinadi. Asar qahramonlarning ichki kechinmalari, ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirini chuqur psixologik yondashuv orqali aks ettiradi. Maqola Gaskelning ijtimoiy omillar bilan psixologik tasvirni muvozanatlash mahoratini va uning adabiyotdagi o‘ziga xos o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-psixologik tahlil, sinfiy ziddiyat, gender rollari, sanoat jamiyati, psixologik chuqurlik, Viktoriya davri, Elizabet Gaskel, Shimol va Janub

Abstract. The article explores the social-psychological analysis in Elizabeth Gaskell’s “North and South,” a significant work by one of the prominent female writers of 19th-century English literature. It examines class conflicts, gender roles, and issues of social justice in the Victorian industrial society through the characters of Margaret Hale and John Thornton. The novel reflects the inner experiences of its characters, their personal growth, and their interactions with the social environment through a profound psychological approach. The article highlights Gaskell’s skill in balancing social commentary with psychological portrayal and underscores her unique place in literature.

Keywords: social-psychological analysis, class conflict, gender roles, industrial society, psychological depth, Victorian era, Elizabeth Gaskell, North and South

Аннотация. Статья исследует социально-психологический анализ в романе Элизабет Гаскелл «Север и Юг», одном из значимых произведений выдающейся женщины-писательницы английской литературы XIX века. В ней рассматриваются классовые конфликты, гендерные роли и вопросы социальной справедливости в индустриальном обществе викторианской эпохи через образы Маргарет Хейл и Джона Торнтона. Произведение отражает внутренние переживания героев, их личностное развитие и взаимодействие с социальной средой с глубоким психологическим подходом.

Статья подчеркивает мастерство Гаскелл в сочетании социальных комментариев с психологическим изображением и акцентирует её уникальное место в литературе.

Ключевые слова: социально-психологический анализ, классовый конфликт, гендерные роли, индустриальное общество, психологическая глубина, викторианская эпоха, Элизабет Гаскелл, Север и Юг

Elizabet Gaskelning 1855-yilda nashr etilgan “Shimol va Janub” romani Viktoriya davri adabiyotidagi eng muhim asarlardan biri sifatida sanoat inqilobi davridagi ijtimoiy va psixologik murakkabliklarni o‘rganadi. Roman janubiy qishloq hayoti bilan shimoldagi sanoat shaharlarining keskin farqini tasvirlab, sinfiy ziddiyatlar, gender rollari va mintaqaviy tafovutlar kabi muhim ijtimoiy masalalarni ko‘taradi. Asar markazida Margaret Xeyl ismli yosh ayol va sanoatchi Jon Tornton joylashgan bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlari orqali Gaskel ijtimoiy muammolarni chuqur psixologik tasvir bilan uyg‘unlashtiradi. Ushbu maqola Gaskelning psixologizmni ijtimoiy muammolar bilan bog‘lash uslubini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tahlil doirasida quyidagi masalalar o‘rganiladi: Margaret Xeylning ichki o‘sishi va sanoatlashtirish fonidagi ruhiy holati, sinfiy ziddiyatlar va psixologik tasvirning o‘zaro ta’siri, shuningdek, ayol qahramonning ijtimoiy o‘zgarishlardagi roli. Ilmiy yangilik sifatida Gaskelning psixologizmni ijtimoiy adolat va shaxsiy rivojlanish o‘rtasidagi muvozanat sifatida rivojlantirganligi haqida yangi talqin keltiriladi. Manbalar sifatida Gaskelning asarlari va Viktoriya davrining ijtimoiy konteksti ishlatiladi.

“Shimol va Janub” romani XIX asr Angliyasida sanoatlashtirishning ijtimoiy hayotga ta’sirini tasvirlaydigan muhim asar sifatida tan olinadi. Roman janubiy qishloq hayotidagi tinchlik va shimoldagi Milton shahridagi sanoat muhitining keskin ziddiyatini aks ettiradi. Bu ziddiyat nafaqat geografik, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham ko‘zga tashlanadi. Margaret Xeyl ismli qahramonning janubdan shimolga ko‘chishi uning hayotidagi katta o‘zgarishni anglatadi va u yangi ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida o‘z psixologiyasini rivojlantiradi. Gaskel ijtimoiy-psixologik sintez orqali qahramonlarning ichki dunyosini va ularning tashqi ijtimoiy sharoitlar bilan aloqasini sinchkovlik bilan tasvirlaydi. Ushbu sintez Gaskelning asarida shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatadi. Maqolaning maqsadi shundan iboratki, Gaskelning psixologizm uslubi qanday qilib shaxsiy o‘sish va ijtimoiy o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqligini ochib berishini tahlil qilishdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Margaret Xeylning ichki o‘sishi va sanoatlashtirish fonidagi ruhiy holati roman qahramoni sifatida uning ichki rivojlanishi orqali Gaskelning psixologik tasvir uslubini namoyon qilganligini bilish mumkin bo‘ladi. Margaret dastlab janubiy Angliyaning sokin qishloqlarida

yashagan, o‘ziga xos imtiyozli hayot tarziga ega bo‘lgan yosh ayol sifatida tasvirlanadi. Otasining cherkovni tark etish qarori tufayli u Milton shahriga ko‘chib o‘tadi, bu esa uning hayotidagi katta burilish nuqtasi bo‘ladi. Miltonning sanoat muhiti – chang-to‘zon, ishchilarning og‘ir mehnati va ijtimoiy adolatsizlik – Margaretning dastlabki nafratiga sabab bo‘ladi. U shaharni “odobsiz” va aholisini “savdogar tabiatli” deb hisoblaydi [1- 59-b). Biroq, vaqt o‘tishi bilan Margaretning bu mulohazalari o‘zgaradi.

Bundan tashqari shuni qo‘shimcha qilsak bo‘ladiki, Margaretning ichki o‘sishi uning ishchi sinf vakillari – Nikolas Xiggins va uning qizi Bessi bilan munosabatlari orqali rivojlanadi. Xiggins oilasining qashshoqlik va kasallik bilan kurashini ko‘rgan Margaret ishchilarning og‘ir sharoitlarini anglay boshlaydi. Bu tajriba uning dastlabki oldindan xulosalarini shubha ostiga qo‘yadi va unda hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Gaskel Margaretning ichki dunyosini ochish uchun erkin bilvosita nutq uslubidan foydalanadi, bu esa o‘quvchilarga uning fikrlari va his-tuyg‘ularining o‘zgarishini yaqindan kuzatish imkonini beradi. Masalan, Bessi bilan suhbatlardan so‘ng Margaret “ishchilarning azob-uqubatlariga chuqur hamdardlik” his qilishini o‘ylaydi [1- 142-b).

Margaretning Jon Tornton bilan munosabatlari uning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ular dastlab ijtimoiy kelib chiqishi va dunyoqarashidagi farqlar tufayli qarama-qarshi turishadi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan Margaret Torntonning qattiq kapitalistik qarashlariga ta’sir qilib, unda hamdardlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg‘usini uyg‘otadi. Bu jarayon Margaretning o‘zini ham o‘zgartiradi, chunki u o‘zining mustaqilligi va qat’iyatini yanada mustahkamlaydi.

“Shimol va Janub” asaridagi sinfiy ziddiyatlar psixologik tasvirga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymadi. Romanda sinfiy ziddiyatlar ishchi sinf bilan sanoatchilar o‘rtasidagi keskin to‘qnashuvlar orqali tasvirlanadi. Gaskel bu ziddiyatlarni nafaqat ijtimoiy hodisa sifatida, balki qahramonlarning psixologik holati orqali ham ko‘rsatadi. Ishchilarning ish tashlashi asardagi markaziy voqea bo‘lib, unda har bir sinf vakilining ichki kurashi va motivatsiyasi ochib beriladi.

Nikolas Xiggins ishchilar sinfining yetakchisi sifatida o‘zining adolat talabi va g‘ururi bilan ajralib turadi. Uning psixologik holati qashshoqlik va ekspluatatsiyadan kelib chiqadi, bu esa uni ish tashlashga undaydi. Xigginsning qat’iyati nafaqat ijtimoiy harakat, balki o‘z sha’nini himoya qilish uchun psixologik zarurat sifatida ko‘rinadi. Boshqa tomondan, Jon Tornton dastlab ishchilarni iqtisodiy mashinaning bir qismi deb biladi va ularning talablarini o‘rinsiz deb hisoblaydi. Uning bu qarashi o‘zining qashshoqlikdan boylikka ko‘tarilgan tajribasidan kelib chiqadi, bu esa unda shaxsiy mas'uliyat va iqtisodiy samaradorlikka urg‘u berishni shakllantirgan.[3]

Ish tashlash paytida sodir bo‘lgan tartibsizliklar Torntonning psixologiyasida o‘zgarishlarga olib keladi. Bir ishchining o‘limini ko‘rganidan so‘ng u o‘z vijdoni bilan kurashadi: “U o‘sha odamning yuzini unuta olmadi... bu yuz uning xotirasida abadiy qoldi”.[1-238-b] Bu lahza Torntonning o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqishiga sabab bo‘ladi va unda ijtimoiy adolat masalalariga e’tibor berishni boshlaydi.

Sinfiy ziddiyatlarning psixologik tasviri sinflar o‘rtasidagi noto‘g‘ri tushunchalar va xurofotlarda ham namoyon bo‘ladi. Ishchilar Torntonni shafqatsiz deb bilishsa, Tornton ularni minnatsiz va uzoqni ko‘ra bilmaydiganlar sifatida ko‘radi. Margaret bu ikki tomon o‘rtasida vositachi sifatida harakat qilib, ularning bir-biriga hamdardlik bilan qarashiga yordam beradi. Gaskel shu orqali psixologik o‘zgarishning ijtimoiy mojarolarni hal qilishdagi muhimligini ta’kidlaydi.

Asarda ayol qahramonning ijtimoiy o‘zgarishlardagi roli shuni ko‘rsatadiki, Margaret Xeyl passiv kuzatuvchi emas, balki ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etuvchi qahramon sifatida tasvirlanadi. Uning ish tashlashdagi vositachilik roli, ishchilar uchun ovoz berishi va sinflar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashga urinishi uning ijtimoiy adolatga sodiqligini ko‘rsatadi. Biroq, uning ayol sifatidagi mavqei bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Viktoriya davrida ayollardan passivlik va uy sharoitida qolish kutilgan bo‘lsa-da, Margaret bu stereotiplarni buzadi.

Buni romandagi quyidagi holatni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin bo‘ladi. Ish tashlash paytida Margaret Torntonni g‘azablangan olomondan himoya qilish uchun oldinga chiqadi, bu harakat uning jasorati va mustaqilligini namoyon qiladi. Gaskel Margaretning bu harakatlarining psixologik narxini ham ko‘rsatadi: “Men to‘g‘ri ish qildim... lekin bu kurashlardan charchadim” [1- 256-b]. Margaretning ichki o‘sishi – hamdardlik va qat’iyatning rivojlanishi – unga ijtimoiy muhitda faol ishtirok etish imkonini beradi.

Margaretning roli Viktoriya davridagi ijtimoiy o‘zgarishlarni ham aks ettiradi. Ayollarning jamiyatdagi faolligi tobora e’tirof etila boshlagan bir davrda, Gaskel Margaret orqali ayollarning ijtimoiy islohotlardagi potentsialini tasvirlaydi. Shu bilan birga, uning psixologik chuqurligi va shaxsiy kurashlari bu tasvirni yanada real va murakkab qiladi.[4]

Gaskelning psixologizmga o‘ziga xos yondashuvini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi. Gaskelning “Shimol va Janub”dagi psixologizmi ijtimoiy adolat va shaxsiy rivojlanish o‘rtasidagi muvozanat bilan ajralib turadi. Psixologizm bu kontekstda qahramonlarning ichki dunyosining chuqur tasviri sifatida tushuniladi. Gaskel Charlz Dikkens kabi mualliflardan farqli o‘laroq, karikatura yoki satira o‘rniga psixologik realizmga tayanadi. Bu uslub qahramonlarning tajribalarini yanada ishonchli va o‘quvchiga yaqin qiladi.

Gaskelning sinfiy ziddiyatlarni tasvirlashdagi muvozanati ham e’tiborga loyiq. U sanoatchilarni yomonlamaydi yoki ishchilarni ideallashtirmaydi; aksincha, Tornton va Xiggins kabi qahramonlarni o‘z kurashlari va intilishlari bilan murakkab shaxslar sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni har ikki tomonni tushunishga undaydi va roman mavzusini – hamdardlik orqali yarashuvni – mustahkamlaydi.[2]

Gaskelning psixologizmi shaxsiy o‘sish va ijtimoiy o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi. Margaretning ichki rivojlanishi unga jamiyat normalarini shubha ostiga olish imkonini bersa, Torntonning psixologik o‘zgarishi uni adolatli mehnat munosabatlariga olib keladi. Gaskel shu orqali ijtimoiy taraqqiyot faqat tuzilmaviy islohotlar bilan emas, balki shaxsiy o‘zgarish va hamdardlik bilan ham bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “Shimol va Janub” asarida Elizabet Gaskel ijtimoiy-psixologik sintezni muvaffaqiyatli amalga oshirib, qahramonlarning rivojlanishi bilan Viktoriya davri ijtimoiy muammolarini chuqur o‘rganadi. Margaret Xeylning ichki o‘sishi, sinfiy ziddiyatlarning psixologik tasviri va ayol qahramonning ijtimoiy o‘zgarishlardagi roli orqali Gaskel shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatadi. Uning psixologizmga o‘ziga xos yondashuvi – hamdardlik, tushunish va shaxsiy hamda jamiyat o‘zgarishlarining bog‘liqligiga urg‘u berishi – romanni inson tabiati va ijtimoiy o‘zgarishlar haqidagi abadiy tadqiqotga aylantiradi. Bugungi kunda tengsizlik va mehnat huquqlari kabi masalalar dolzarbligicha qolayotgan bir paytda, “Shimol va Janub” hamdardlikning eng chuqur bo‘linishlarni birlashtirishdagi kuchini eslatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gaskell, E. (2008). North and South. Oxford: Oxford University Press.

2. Harman, B. L. (1998). The Feminine Political Novel in Victorian England. Charlottesville: University Press of Virginia.

3. Ingham, P. (1996). The Language of Gender and Class: Transformation in the Victorian Novel. London: Routledge.

4. Koustinoudi, A. (2012). The Split Subject of Narration in Elizabeth Gaskell's North and South. Lanham: Lexington Books.

5. Matus, J. L. (2007). The Cambridge Companion to Elizabeth Gaskell. Cambridge: Cambridge University Press.

6. Schor, H. M. (1992). Scheherezade in the Marketplace: Elizabeth Gaskell and the Victorian Novel. Oxford: Oxford University Press.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TO‘Y BILAN BOG‘LIQ LEKSIK BIRLIKLAR TADQIQI: TILSHUNOSLIKDA TO‘Y BILAN BO‘GLIQ LEKSIK BIRLIKLARNING O‘RGANILISHI

Uzakova Lola Anvarovna
Oziq ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti
katta o‘qituvchisi PhD
E-mail: lolauzakova82@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida* to‘y bilan bo‘gliq leksik birliklarning o‘rganilishi *umumiy tasnifi berilgan. Shuningdek, tilshunoslikda to‘y bilan bo‘gliq leksik birliklarning o‘rganilishi hamda o‘zbek va ingliz to‘y so‘zining semantik va lingvokulturologik tahlil va muhokama qilingan. Shuningdek, to’y bilan bog’liq leksik birliklarning ishlatilishlarining o’xshash va qarama qarshiliklari ko’rib chiqilgan.* Tilshunoslikda to‘y bilan bo‘gliq leksik birliklarning o‘rganilishi*, to‘y bilan boq‘liq urf-odat udumlarini onomosiologik tadqiqi, to‘y leksemasini ma‘no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar mavjud. Muallif o‘zbek nikoh to‘yining barcha jarayonlariga: sovchilik, fotiha, bevosita nikoh to‘yi urf-odatlariga va to‘ydan keyin o‘tkaziladigan udumlarga alohida e‘tibor qaratadi. Etnografiyaning nazariy muammolari sirasiga kiruvchi ma‘naviy madaniyatning muhim qismi bo‘lgan oila-nikoh masalalariga bag‘ishlangan tadqiqot qarashlari keltirlgan. Maqola, lingvokulturologiya fenomeniga qiziqish ortib borayotgani, til, madaniyat, antropologiya, etnolingvistika va ko‘p tilli shaxsni rivojlantirish asoslari, madaniyatlararo muloqot sharoitida nutq xatti-harakatlarining sotsial-madaniy normalari kabi muammolarni muqarrar ravishda dolzarb qiladi. Shuningdek, har qanday xalqning to‘y bilan bog‘liq til madaniyati, urf-odatlari, marosimlari nuqtayi nazaridangina tushunishga yordam beradi.*

Kirish To‘y inson ijtimoiy hayotining muhim va ajralmas qismi bo‘lib, qadimgi davrlarga borib taqaladi. Shuningdek, u butun dunyodagi turli madaniyatlarning muhim belgisidir. To‘y marosim nomlarining lingvokulturologik tadqiqini amalga oshirish jamiyat tarixi va taraqqiyotini ifodalashga, ularning qadriyatlar tizimini qiyosiy jihatdan o‘rganishga yordam beradi. Ma’lumki, hozirgi kunda globallashuv tendensiyasi natijasida madaniyatlararo munosabatlarga o‘z ta’sirni ko‘rsatmoqda. Ta’kidlash joizki, “Oila va nikoh to‘yi yer yuzidagi barcha odamlar ishtirok etadigan ijtimoiy institutlardir. ”O‘zbek tili izohli lug‘atida esa to‘y leksemasiga quyidagicha ta’rif beriladi:

1. “Oilada bazm, o‘yin-kulgi va ziyofat bilan o‘tkaziladigan ko‘pgina marosimlarning umumiy nomi. Nikoh to‘yi.

2. Etn. Maslahat, kelishuvga binoan kuyov tomonidan (kelin)nikiga yuboriladigan pul, sarpo, don-dun hamda shu munosabat bilan kuyov xonadonida

bo‘ladigan yig‘in, ziyofat. Ertaga to‘y, indinga nikoh.

3. Biror sabab tufayli bazm-ziyofat, o‘yin-kulgi bilan o‘tkaziladigan yig‘in, tantana, bayram. Hosil to‘yi”[3].

Ingliz tilining Oksford izohli lug‘atida esa to‘y leksemasi quyidagicha izohlanadi: *“wedding*[4] *- a marriage ceremony, and the meal or party that usually follows it. I dreamed of having a big wedding, with all my family and friends. I’m going to a wedding this weekend. Have you been invited to their wedding?; Television coverage of the royal wedding, at a wedding; I met her at my brother’s wedding; wedding to somebody; Over 300 guests attended his wedding to his childhood sweetheart;a wedding ceremony/reception; She looked beautiful on her wedding day; a wedding present/gift; All her friends could hear wedding bells (= they thought she would soon get married).” (*“To‘y – nikoh marosimi va odatda undan keyin bo‘ladigan taom yoki ziyofat[5]. Men butun oilam va do‘stlarim bilan katta to‘y qilishni orzu qilardim. Men shu dam olish kunlarida to‘yga boraman. Sizni ularning to‘ylariga taklif qilishganmi? Qirollik oila to‘yini televideniyeda yoritish; U bilan akamning to‘yida tanishdim; kimningdir to‘yi. Uning bolalikdagi sevgilisi bilan bo‘lgan to‘yiga 300 dan ortiq mehmonlar tashrif buyurishdi; to‘y marosimi/ziyofat; U to‘y kuni go‘zal ko‘rinardi; to‘y sovg‘asi; Uning barcha do‘stlari to‘y qo‘ng‘iroqlarini eshitishdi (ular yaqinda turmushga chiqadi, deb o‘ylashdi)”

Ko‘rinadiki, o‘zbek va ingliz tillarida *to‘y* so‘zining ma’nosi bir-biriga juda ham yaqin. Keltirilgan misollarda nikoh marosimi, tantana va ziyofat ma’nosida qo‘llaniladi. Biroq shuni aytish kerakki, o‘zbek tilida to‘y leksemasi bilan quyidagi so‘zlar assotsiatsiyaga kirishadi: *beshik, fotiha, xatna* va ushbu so‘zlar ingliz tilida uchramaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Professor Sh.Iskandarovaning fikricha, mazmuniy maydonlarning struktur nazariyasi ma’nolarni komponent tahlil qilishi maqsadga muvofiqdir[6]. Darhaqiqat, semantik tahlili uchun ichki munosabatlar batafsil tahlil qilinishi uchun komponent tahlil muhim o‘ringa ega. U leksemaning elementlari ma’noviy konstituyentlarining tasviriy xaritasi vazifasini bajaradi. Shuning uchun biz ishimizda kichik komponent tahlilini amalga oshirdik.

Tadqiqotimizda *to‘y bilan bog‘liq leksik birliklari tahlilga tortildi. Keltirlgan misollarda to‘y leksik birligi har xil ma’nolarda qo‘llanilganligi aniqlandi. Bu leksik birligini semantik va lingvokulturologik jihatdan tahlili turli*

[3] Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati – Toshkent: Sharq, 2001. – 269 b.
[4] Maurice W. Oxford dictionary. Oxford: Oxford university press, 2018. – p 523.
[5]Джурабоев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1971. – 28 с.
[6] Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – 54 б.

manbalarda keltirlgan[7]*, biroq biz tadqiq etgan to‘y leksemasi quydagi ma’nolarni ifodalaydi (1.1-jadval).*

1.1-jadval

To‘y leksemasining semalari

To‘y – bazm, ziyofat	**To‘y –** qiz(kelin)nikiga yuboriladigan pul, sarpo	**To‘y – bayram**
“jarayon”, “ijobiy”, “ko‘pchilik ishtirokida”, “nikoh”	*“buyum”, “munosabat”*	*“jarayon”, “ijobiy”, “ko‘pchilik ishtirokida”*
”To‘ydan keyin nog‘ora. Uy-uyiga – taka (yoki tepa) to‘yiga.”(A.Muxtor. “Opa-singillar”)	*Onam to‘yni kelinnikiga berib keldilar.*	*“Bugun maktab o‘zining birinchi katta to‘yiga, to‘ng‘ich o‘g‘illarini mamlakatga taqdim qilish tantanasiga tayyorlanayotir”.*(P.Tursun, “O‘qituvchi”)

Bu o‘rinda *“*buyum*”*, “munosabat” semasiga e’tibor berish muhim. Bu mazkur sema o‘zbek lingvomadaniy belgilarini bildiradi va sovg‘a-salom ma’nosini ham ifodalaydi. Shuningdek, “bayram” semasi ham inglizcha wedding so‘zida uchramaydi.

To‘y so‘zining etimologiyasida “tantana”,“o‘yin-kulgi” ma‘nosi yetakchi. O‘zbek va ingliz tillarida to‘y so‘zining semantic tarkibini solishtirib chiqamiz. (1.2) jadvalga qarang):

1.2-jadval.

“to‘y”[8]/”wedding”[9] mikromaydoni elementlarining komponent tahlili

	O‘zbek tilida	Ingliz tilida	Sema
1	Bazm	party/bazm	+
2	ziyofat	celebration/tantana	-
3	maslahat	agreement/kelishuv	-
4	yig‘in	meeting/yig‘in	+
5	Marosim	religious ceremony /diniy marosim	-

[7] Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 23.

[8] Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati – Toshkent: Sharq, 2001. – 269 b.

[9] Maurice W. Oxford dictionary. Oxford: Oxford university press, 2018. – p 523.

6	to‘y (nikoh to‘y, sunnat to‘y, beshik to‘y)	wedding /nikoh to‘y	-

Demak o‘zbek tilida to‘y leksemasing hozirgi kunda “bazm”,”ziyofat”, “maslahat”,”yig‘in”, “marosim” integral semalari asos xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunos olimasi R.Kasimova nikoh to‘yi leksemasini quyidagicha izohlaydi[10]: “Nikoh” arabcha so‘z bo‘lib, “er va xotinni shariat orqali qonuniylashtirish” deb izohlaydi va olima nikoh to‘y marosimini tuzilishiga ko‘ra uch bosqichga bo‘ladi: birinchi bosqich – to‘yga tayyorgarlik, to‘y kunidan oldin bo‘ladigan turli xil marosimlarni o‘z ichiga oladi – beshik to‘lash, qiz ko‘rish yoki qiz tanlash, sovg‘a qilish, “non sindirish yoki non berish”, unashtirish, “ro‘mol yoki oqlik berish”, to‘yni muborakbodlash, qalin qabul qilish va maslahat berish, palov (osh yoki padar osh), “to‘qqiz yuborish”, “qizlar bazmi” (Buxoroda qizlar uchrashuvi yoki bazmi, qiz oshi yoki hinobandoni)[11]. To‘yning ikkinchi bosqichi *katta to‘y/* wedding day deb ataladi. Bu marosimda kuyov kelinga sovchi qo‘yadi, nikoh o‘qitib, kelinni o‘z uyiga olib boradi. Aslini olganda, bu bosqich to‘yning cho‘qqisidir.

Uchinchi bosqich to‘yning yakuniy qismi sanaladi. “Yuz ochish” yoki “kelin salom”, “kuyov salom”, “to‘shak yig‘ish”, “sep yig‘di” yoki Buxoroda “charbon yoki talbon”, (“charlar” yoki Buxoroda “kelin kutdi”) kabi marosimlarni o‘z ichiga oladi[12].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning metodologik asosini jamiyatning doimiy taraqqiyotda ekanligini aks ettiruvchi falsafiy qarashlar, bilish nazariyasi haqidagi tushunchalar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda komponent tahlil, semantik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik tahlil usullaridan foydalanildi. Bizning fikrimizga ko‘ra, hozirda ham to‘y marosimlari bir necha bosqichlarni o‘z ichiga olishi kuzatiladi, ya’ni to‘ydan avval, to‘y kuni va to‘ydan keyin o‘tkaziladigan marosimlar shular jumlasidandir. Bu marosimlar har bir xalqning dunyoqarashi, madaniyati va turmush tarziga bo‘gliq bo‘ladi[13]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bunday marosimlar muayyan bir xalq ijtimoiy hayotiga daxldor bo‘lsa-da, hududiy jihatdan farqlanib keladi. Har bir marosim, buyum, ishtirokchi bajarish vazifasi, materiali, hududiga qarab tilde turlicha nomga ega

[10] Qosimova R. O‘zbek to‘y va motam marosim folklori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarning berilishi: Fil.fan.bo‘yicha fals.dok. (PhD) dis. -Toshkent, 2018. – 15 b.

[11] Кашгари М. Диван Луғат ат – Турк / Перевод, предисловие и комментарии Ауэзовой З. Алматы: Дайк – Пресс, 2005. – с 24 – 25.

[12] Qosimova R. O‘zbek to‘y va motam marosim folklori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarning berilishi: Fil.fan.bo‘yicha fals.dok. (PhD) dis. -Toshkent, 2018. – 105 b.

[13] Хусаинова З. Ономасиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материалах Бухарской группы говоров): Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1984. – 21 с.

bo‘lib, mana shu leksik birliklar lingvistik va lingvokulturologik tadqiqotlar uchun qiziqarli manba sanaladi.Ma’lumki, to‘y bilan bog‘liq leksik birliklarga qiziqish o‘tmishda ham bo‘lgan. To‘y bilan bog‘liq marosimlarning nomlari, to‘y marosimi nomlarining paydo bo‘lishi, to‘y etnografiyasi, to‘y bilan boq‘liq urf-odat udumlarini onomasiologik tadqiqi, to‘y leksemasini ma’no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar mavjud. Ammo to‘y bilan bog‘liq materiallarni sistemali va izchil ravishda to‘plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko‘lamda tahlil qilish o‘zbek filologiya va lingvokulturologiyasida o‘tgan asrda boshlandi. Bu boradagi ilk qadamlar M.Sattor[14], B.Sarimsoqov[15], A.Jo‘raboyev[16], Z.Husainova[17], O.Ismonova[18], H.Ismoilov[19], A.Ashirov[20], A.Jabborov[21], A.Alaviyalarning[22] tadqiqotlarida o‘z ifodasini topdi. Keyingi yillarda o‘zbek lingvokulturologiya, ayniqsa, uning chog‘ishtirma tilshunoslik, adabiyotshunoslik, etnolingvistika, antroponimika, etnonimika sohalari jadal rivojlandi. Shuningdek, ishning nazariy-uslubiy asosini kognitiv tilshunoslik sohasidagi xorijiy olimlar S.Barhudarov[23], Yu.Skrebnev[24], A.Kononov[25], V.Maslova[26], A.Vejbitskaya[27], S.Vidlak[28], K.Buridj[29], E.Lich[30], A.Kasev[31], N.Sumsov[32], S.Klyashtorniy[33], B.Vorf[34], O.Lutovinova[35], G.Slishkin[36],

[14] Саттор М. Ўзбек удумлари. - Тошкент: Фан, 1993. - 19 б.
[15] Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фолклори. - Ўзбекистон:Фан, 1986.-216 б.
[16] Джурабоев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. - Ташкент, 1971. – 20 с.
[17] Хусаинова З. Ономасиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материалах Бухарской группы говоров): Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент,1984. - 26 с.
[18] Исмонова О. “Ўзбек тўй маросим фольклорида „келин салом“ жанри (генезис, ўзига хос хусусиятлари ва поэтикаси). - Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. – Тошкент, 1999. – 24 б.
[19] Исмоилов Х. Ўзбек тўйлари.- Тошкент: Ўзбекистон, 1992.- 14 б.
[20] Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий этиқод ва маросимлари.-Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.- 270 б.
[21] Jabborov I. O‘zbeklar (an‘anaviy xo‘jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). – Toshkent: Sharq, 2008. – 240 b.
[22] Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1959. – 215 б
[23] Бархударов С.Г. Лексикология и лексикография. Сборник статей. - Москва: Наука, 1972. - 53 с.
[24] Скребнев Ю. Основы стилистики английского языка. - Москва: Высшая школа, 1994. – с 238.
[25] Кононов А. Грамматика современного узбекского литературного языка. Москва: Издательство АН СССР, 1960. - 43 с.
[26] Маслова В. А. Лингвистический анализ текста. Экспрессивность: учебное пособие для вузов / под редакцией У. М. Бахтикиреевой. — 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Издательство Юрайт, 2024. — 20 с
[27] Vezhbitskaya A. Understanding cultures through keywords. New York: Oxford, 1997. - p 16.
[28] Видлак С. Проблема эвфемизма на фоне теории языкового поля. Этимология 1965. - Москва: Наука, 1967. - 300 с.
[29] Burridge K. Blooming English: Observations on the roots, cultivation and hybrids of the English language. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.- p 252.
[30] Leach E. Culture and Communication: The Logic by which Symbols are Connected. An Introduction to the Use of Structuralist Analysis in Social Anthropology (Themes in the Social Sciences) Illustrated Edition. - Cambridge: Cambridge University Press, 1976.- p 105.
[31] Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. Опыт социолингвист.описания: Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук. Ленинград: 1977. - 52 с.
[32] Сумцов Н. Символика славянских обрядов. - Москва: Восточная литература РАН, 1996. - 295 с.
[33] Кляшторный С. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. - Москва: Наука, 1964.- 214 с.
[34] Whorf B. Language, thought and reality. Selected writings. – New York: Carrol MIT, 1956.- p 30.

Yu.Stepanov[37], A.Ufimseva[38], N.Shamne[39], V.Shaxovskiy[40], E.Sheygal[41] va boshqalarning asarlari tashkil etdi. Yuqorida aytilgan olimlardan biri V.Karasik to‘y/wedding konseptini quyidagicha ta’riflaydi: “to‘ydan oldingi va to‘ydan keyingi o‘tkaziladigan marosimlar kuyov yoki kelinning yaqin qarindoshlari, ayrim qo‘ni-qo‘shnilar ishtirokida bo‘lib o‘tadigan marosim.”

To‘y marosimida deyarli barcha xalqlarda, jumladan, o‘zbek va ingliz xalqlarida ham kelin va kuyov uchun atalgan maxsus sovg‘a ko‘rmana leksik birligi bilan ifodalanadi. Sovg‘a ulashish o‘zbek xalqining azaliy an’analaridan biridir.

Tahlil va natijalar O‘zbek to‘ylarida esa to‘yona berish biroz boshqa urf-odatlar bilan bog‘liq va odatda oziga xos leksemalar bilan ifodalanadi: *sepyig‘di, sarpo, ota ko‘rdi, mahr berish, kelin bilan salomlashish*. Shuningdek, *sovg‘a* leksemasiga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif beriladi: “*Turli ko‘ngil ochish marosimlarida, tug‘ilgan kunlarda ana shu marosim egasi borgan kishini taqdirlash yoki kimsaning ko‘nglini olish uchun tortiq qilib ko‘ngildan chiqarib berilgan turli narsa*; *hadya, tuhfa.* Masalan, Bu soat Xaliljonga otasining sovg‘asi edi.”[42] Xususan, to‘y sovg‘alari o‘zbek xalqida to‘ydan oldin beriladi, ya’ni kelinning va uning ota-onasi roziligidan so‘ng, kelin va kuyov qarindoshlari o‘zaro sovg‘a-salomlar bilan almashadi, ushbu sovg‘alar bo‘lajak qudalarning, kelin-kuyovning bir-biri bilan aloqalarni bog‘lash ramzi sanaladi. Umuman, to‘y bazmida mehmonlar olib kelgan sovg‘alarini yoki to‘yonalarini to‘y egalariga va kelin-kuyovga taqdim etadi, ammo ingliz to‘ylariga o‘xshab hech qanday sovg‘alar kitobi bo‘lmaydi. Shuningdek, kelin salom marosimida to‘ydan keyin bo‘lib otadigan urf-odat ya’ni kelin bilan birinchi marta so‘rashganda unga yana sovg‘alar beriladi[43]. O‘zbek to‘yi o‘tgandan so‘ng “otako‘rdi” marosimi o‘tkaziladi va ushbu leksema ingliz tilida ekvivalentga ega emas, lakuna qatoriga kiradi. “Otako‘rdi” leksik birligi to‘ydan so‘ng bo‘ladigan marosimlardan biri va o‘zbek tilshunosligida A.Jo‘raboyev va Z.Husainova tadqiqiqotlarida ko‘rib chiqilgan,

[35] Лутовинова О. В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса. Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук. Москва: 2009.- 34 с.
[36] Слышкин, Г. Г. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов. Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук. Москва: 2009.- 34 с.
[37] Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики Изд. 8. Москва: URSS, 2020. - 84 с.
[38] Уфимцева А.А. Опыт изучения лексики как системы: на материале английского языка – Издание 2-е, стереотипное. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 28 с.
[39] Шамне Н.Л. Актуальные проблемы межкультурной коммуникации. 3-е изд. - Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2014. - 195 с.
[40] Шаховский В.И. English stylistics. - Москва: УРСС, 2008. – 22 с.
[41] Шейгал Е И. Семиотика политического дискурса.дис...кандидата филологических наук. 2000. - 64 с.
[42] HojiyevA., NurmonovA., ZaynobiddinovS. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – 231 b.
[43] Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фолклори. Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 16 б.

inson hayotida eng muhim marosimlar bilan bog‘liq leksik birlik hisoblanadi.[44] Yuqorida aytilgan leksema to‘ydan keyingi udumni anglatadi[45], ko‘pincha kelinning otasi va boshqa erkak yaqin qarindoshlar ishtirokida tashkillanadi va kelinning yangi uyiga sovg‘alar bilan tashrif buyuriladi.

Bundan tashqari, ingliz to‘ymadaniyatida, qadriyat sifatida shakllangan individualizm mavjud bo‘ladi, shu bois ularda o‘zbek lug‘aviy qatlamida uchramaydigan *“bride’s register”/”kelinlik ro‘yxati”* mavjud[46]. Ingliz tilida “bride’s” – “kelinlik” leksemasi hamda “wedding register” – “to‘y reestri”, yoki oddiygina “sovg‘a reyestri” bilan bog‘liqko‘plab frazemalar mavjud. Ingliz to‘yiga sovg‘asiz kelish noqulay hisoblanadi va taklif qilingan mehmonga “*gifts book”/”sovg‘lar kitobi”* to‘ydan oldin ko‘rib chiqish uchun taqdim etiladi[47]. Albatta, sovg‘alar kitobida ingliz kelin va kuyov uchun kerakli narsalar ro‘yxati kiritilgan bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ingliz to‘ylaridagi to‘y sovg‘asi yangi oila uchun “kutilgan” yordam hisoblanadi. Odatda, ingliz kelin va kuyovlar to‘y sovg‘asiga rejalar tuzadi va ko‘p vaqtlarini uni qanday sarflashlarini o‘ylab muhokama qilishadi. Chunki ingliz kelin va kuyovi to‘y sovg‘asidan tashqari yordamni olmaydilar (Browning, 1997)[48]. Shuningdek, ingliz tilida “*wedding memory box”/”to‘y xotiralari qutisi”* leksemasi mavjud va ushbu leksema to‘ydan olingan tabriknomalar, kichkina esdalik sovg‘alar va mehmonlar ro‘yxati kabi narsalarga sarflash uchun ishlatiladi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek va ingliz to‘y sovg‘asi/wedding gift lug‘aviy ma’nosi deyarli bir xil, lekin madaniy jihatdan farqlanishlarga ega ekan. To‘y sovg‘asi leksemasiga milliy an’analar va qadriyatlar ham ta’sir qilgan deb o‘ylamiz.

O‘zbek rasm-odatlariga ko‘ra kuyov uchun kelin, kelin uchun munosib kuyov topish muhim o‘rin tutgan. Ota-bobolarimiz azaldan “To‘yona bering – ta’na qilmang” kabi maqol ham bejiz aytilmagan, chunki “*to‘yona”/”wedding present”* bu o‘zbekva ingliz tillaridagi keng ishlatiladigan leksik birliklar bo‘lib va to‘y bilan chambarchas bog‘liq. Keltirilgan maqolning ma’nosi to‘yga sovg‘a bersangiz bu haqida arz qilmang yoki bergan to‘yona haqida gapirmang.

O‘zbek va ingliz to‘ydan oldin bo‘ladigan marosimlarning birinchisi bu-sovchilik. Xalqimizda sovchilikka juda katta ahamiyat qaratiladi. Odatda, sovchilar qiznikiga mehmonga kelganda, “*siznikiga hovli supurgani keldik*” iborasini

---

[44] Джурабоев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1971. – 28 с.

[45] Хусаинова З. Ономасиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материалах Бухарской группы говоров): Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1984. – 20 с.

[46] Cott N. Public vows: A history of marriage and the nation. – Cambridge, MA: Harvard University Press. 2000. – p 46.

[47] Coontz S. Marriage, a history: From obedience to intimacy or how love conquered marriage. – New York: Viking Penguin. – 2005. – p77.

[48] Browning D., Miller – McLemore B. , Couture P., Lyon, K., Franklin R. *From culture wars to common ground: Religion and the American family debate*. – Louisville, KY : Westminster John Knox Press. 1997. – p 53.

ishlatishadi. Ushbu ibora, asosan, Farg‘ona vodiysida ko‘proq qo‘llaniladi va sizdan qizni so‘rab keldik, degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, odatda sovchilikka kuyovning yaqin kishilari tashrif buyurishadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *sovchi* leksemasiga quyidagicha izoh beriladi: “etn. Uylanuvchi yigit tomonidan biron xonadonning voyaga yetgan qizini ko‘rish va uni kelin qilib berishga qiz tomon roziligini so‘rash uchun vakil qilingan kishi. *Yaxshi otga qamchi kerak emas*. *Yaxshi qizga – sovchi.* Maqol. *Qish ichi ham keti uzilmagan sovchilar bir-ikki haftadan beri kelishdan to‘xtalganlar*. (Cho‘lpon, “Kecha va kunduz” romani).*Qo‘shni mahallalik Oriyat buvining unikiga sovchi qo‘yishi Salomat xolaning yetti uxlab tushiga ham kirmagan edi*. (”Saodat” jurnalidan). *Ahmad negadur parishonroq, bo‘lib yurgan kunlarning birida katta qiziga sovchi keldi.* (S.Nurov. “Maysalarni ayoz urmaydi”asari)”[49]. Ingliz tilidagi Oksford lug‘atida esa *sovchi/matchmaker* so‘ziga quyidagi ta’rif beriladi:*“a person who tries to arrange marriages or relationships between others/ nikoh* yoki to‘y bilan bog‘liq boshqa munosabatlarni tartibga solishga harakat qiladigan kishi”[50]. Ko‘rinadiki, o‘zbekva ingliz tilining izohli lug‘atlarida *sovchi* leksemasi deyarli farqlanmaydi. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, A.Jo‘raboyevning yozishi bo‘yicha “o‘zbek xalqida sovchi leksemasi muhim ahamiyatga ega”[51]. Nikoh to‘yidan oldin, albatta, sovchilar tashrif buyurishlari lozim. Ingliz xalqida esa yigit va qiz kelishilgan holda ham sovchisiz to‘y boshlanishini kuzatishimiz mumkin. Undan tashqari, bo‘lajak kelin-kuyovning ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ta’minoti, nasl-nasabi deyarli muhim emas. Odatda, sovchilar kuyovnikiga qaytganidan keyin*”sarpo ko‘rish”* leksemasi bilan ifodalanadigan marosim boshlanadi va kelin taraf bilan almashilgan sovg‘a-salomlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, N.Latipova o‘zbek to‘yiga quydagicha ta’rif beradi “o‘zbek to‘yi fotiha marosimidan boshlab to to‘yning oxirigacha yoshlarning ota-onalari qalin, sep masalalarini va to‘y tantanasi bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etadilar”[52].

Aksariyat o‘zbek oilasining mehmondo‘stligi yoshi kattalarga hurmat-ehtirom bilan muomala qilishida namoyon bo‘ladi. Masalan, “Homidboy bo‘lsa: “Bugun unashsalaring, ertaga to‘yni boshlaymiz”, – dedi”. (Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”)[53]. Ushbu keltirgan misolda o‘zbek to‘ylarining urf-odatlaridan birini misol tariqasida ko‘rishimiz mumkin. *Unashsalaring* leksemasi bu yerda to‘y marosimining bir bosqichidagi o‘zaro kelishuvi – qachon va qayerda to‘yni o‘tkazish xususidagi akt sanaladi.

[49] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4 жилди. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 542 б .
[50] Maurice W. Oxford dictionary. Oxford: Oxford university press, 2018. – p 234.
[51] ДжурабоевА. Названия свадебных церемоний в узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1971. – 27 с.
[52] Latipova N., Ganiyeva M., Alekseyeva V. Features of the influence of national traditions on the family. Problems of science and education. – Moscow. No. 26 (68). DOI: 10.20861 / 2304 – 2338 – 2016 – 68. 2016. – p 109 – 112.
[53] Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 27б.

Xulosa Qadimiy davrlardan buyon, yillar va asrlar davomida turli etnik guruhlar va millatlar madaniyatini yangi avlodlarga yetkazish, ularni milliy o‘ziga xoslikda mustahkamlash qoida tariqasida, asrlar davomida sayqallangan marosimlar, rituallar va urf-odatlar muhim o‘rin tutadi. Ma’naviy sohadagi etnomadaniy qadriyatlar zamonaviy jamiyatning bitmas-tuganmas intellektual boyligi va zaxirasidir. Milliy an’analar, ularning xalqlar hayotining ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, etnik-madaniy jihatlari bilan o‘zaro ta’siri jarayonlarini bilish hozirgi kunda demokratlashgan jamiyatda, huquqiy davlatni shakllantirishda mamlakat uchun dolzarbdir. O‘zbek xalqining to‘y marosimlari asrlar davomida rivojlanib borgan. Ular juda original, jonli va xilma-xil bo‘lib, turli davrlar va dinlarga tegishli.

O‘zbekiston tarixan olib qaraganda juda ham qadimiy davlatlar qatoridan joy oladi. Uning bu ko‘hnaligi nafaqat moddiy, balki madaniy qadriyatlarda ham o‘z ifodasini topgan. Bu an’ana hamda udumlarimiz haqida etnograf olimlar, tarixchilar va sayohatchilar o‘z asarlarida va kundaliklarida ko‘plab ma’lumotlarni keltirib o‘tganlar. Bunga misol qilib, Rui Gonsales de Klavixoning “Kundalik” hamda Xerman Vamberining “Sayohatnoma” asarlarini aytish mumkin. Shuningdek, K.Shoniyozov ilmiy-nazariy asarlarida o‘zbek xalqining etnik tarixi, moddiy va ma’naviy hayoti, xususan, to‘y marosimlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan[54]. Muallif o‘zbek nikoh to‘yining barcha jarayonlariga: sovchilik, fotiha, bevosita nikoh to‘yi urf-odatlariga va to‘ydan keyin o‘tkaziladigan udumlarga alohida e’tibor qaratadi. To‘y marosimlari bilan bog‘liq leksik birliklar etnografiya sohasiga oid tadqiqotlarning ham o‘rganish manbasiga aylangan: A.Ashirov[55], O.Hasanboyeva[56], I.Grebennikov[57], T.Mirzayev[58], T.Sodiqova[59], T.Malik[60], Tursun Oy[61] kabilarning ilmiy izlanishlari mavjud. Xususan, ingliz olimlaridan: Ahin V., TorntonA.[62], Bella R., Madsen R., Sallivan V., Svidler A., Tipton S.[63], Berger B., Berger P.[64], Bianki S., Spain D.[65], Brovning

[54] Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 234 б.
[55] Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий этиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 64 б.
[56] Hasanboyeva O., Xoliqov D., Kemibell R., Toshpo'latova Sh., Nurmatova M., Jabborova X., Jamilova N., Egamnazarova Sh., Qayumova N., Pirmuhamedova M., Kulay L., Sodiqova Sh., Xojimurodova D., Rasulxo‘jayeva M., Avezova R. Oila pedagogikasi. – Toshkent: Aloqachi, 2007. – 112 b.
[57] Гребенников И., Дубровина И., Разумихина Г. Этика и психология семейной жизни. Пробное пособие для учителя. – Москва: Просвещение, 1984. – 10 с.
[58] MirzayevT., TurdimovSh., Jo‘rayevM., EshonqulovJ., TilavovA. O‘zbek folklori. – Toshkent: Fan, 2020. – 190 b.
[59] Содиқова Т. Куёвлик илми. – Тошкент: 2005. – 25 б.
[60] Малик Т. Келинлар дафтарига – Тошкент: Давр пресс, 2009. – 32 б.
[61] Турсун Ой. Нозик савол. – Тошкент: Янгинашр, 2007. – 62 б.
[62] Axinn, W., Thornton A., Xie Y.Marriage and cohabitation. – Chicago:The University of Chicago Press, 2007 – p 250.
[63] Bellah R., Madsen R., Sullivan W., Swidler A., Tipton S. *Habits of the heart*. – Berkeley, University of California Press: 1985. – p 80.
[64] Berger B., Berger P. *The war over the family: Capturing the middle ground*. – Garden City, NY : Anchor Books. 1984. – p 65.

Annotatsiya. Ushbu maqolada hayvonlar haqidagi ertaklarda ishtirok etuvchi hokim (hukmdor) obrazining ramziy va poetik funksiyalari tahlil etiladi. Mazkur personajning mifologik ildizlari, syujetdagi tutgan o‘rni, ijtimoiy-estetik mazmuni hamda yozma adabiyotga ko‘rsatgan ta’siri ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sher, arslon, yo‘lbars timsolidagi hukmdor obrazlari xalq tafakkuridagi qadimiy hokimiyat tasavvurlarini ifodalaydi va adabiy obraz sifatida ko‘p qirrali mazmunga ega. Shuningdek, bu obrazlar orqali xalqning axloqiy-ruhiy qarashlari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari o‘z aksini topganligi aniqlanadi.

Keywords: fairy tale, ruler character, symbolism, mythological image, lion, tiger, leopard, literary transformation, folk poetics, sovereignty

Kirish

Hayvonlar haqidagi ertaklarda ishtirok etuvchi personajlardan biri hokim yoki hukmdor obrazidir. Bu obraz o‘ziga xos xarakteri, ijtimoiy ramziyoti hamda funksional faoliyati bilan boshqa personajlardan ajralib turadi. U goh ijobiy, goh salbiy qiyofalarda namoyon bo‘lib, hayvonlar manfaatini himoya qiluvchi yoki ularga tahdid soluvchi kuch sifatida ko‘rinadi. Mazkur maqolada hokim obrazining ramziy va mifologik ildizlari, uning folklor va yozma adabiyotdagi ahamiyati o‘rganiladi.

Tadqiqot usuli

Ushbu tadqiqotda hayvonlar haqidagi ertaklardagi hokim (yoki hukmdor) obrazlari tahlil qilinib, ular yo‘lbars, sher, arslon kabi kuch timsoli hayvonlar orqali qanday ifodalangani o‘rganildi. Tahlil ramziy yondashuv, mifologik asoslar va poetik struktura asosida olib borildi. Ertaklar syujetidagi hokim personajlarning funksional harakati, ijtimoiy-estetik mazmuni, adabiy transformatsiyasi hamda ularning guruhlashgan epizodlardagi roli ko‘rib chiqildi.

Natijalar

Tahlil natijalariga ko‘ra, hayvonlar haqidagi ertaklardagi hukmdor obrazlari inson tafakkurining ibtidoiy shakllarini ifodalovchi ramziy belgilar asosida yaratilgan. Hokim personajlar ko‘pincha ikkilamchi obraz sifatida namoyon bo‘lib, ular ertak syujeti ichida buyruq berish, muhokama yuritish yoki hukm chiqarish kabi rollarni bajaradi. Ular yo‘lbars, sher va arslon timsolida kuch, adolat, jasorat

kabi qadriyatlarni ifodalaydi. Shuningdek, bu obrazlar o‘tmishdagi shohlik va hokimiyatga oid tasavvurlarni aks ettiradi.

Muhokama

Ertaklardagi hokim obrazining shakllanishi mifologik ildizlarga borib taqaladi. Bu obrazlar qabilaviy urf-odatlar, diniy e’tiqodlar va ijtimoiy tuzumlar negizida shakllangan bo‘lib, xalqning axloqiy-ruhiy qarashlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ertak poetikasida bu obrazlar hukmdorlik tushunchasining folkloriy ifodasi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, ular yozma adabiyotdagi shoh obrazlari uchun estetik zamin bo‘lib xizmat qilgan. Bu esa hokim personajlarining o‘zgarish va transformatsiyalanish yo‘nalishlarini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘la oladi.

Hokim personaj o‘zida hukmdorlik munosabatlarini ifoda etuvchi, hayvonlar manfaatlarini himoya qiluvchi va ayni paytda, ular joniga tahdid soluvchi, shuningdek, ba’zi jihatlari bilan masal qahramoniga yaqin turuvchi, goh ijobiy, goho esa salbiy qiyofalarda namoyon bo‘luvchi ko‘p qirrali obrazlardan sanaladi. Hokim personaj ertaklar mazmunida asosiy bo‘lmagan obraz sifatida tasnif etiladi. Bunga sabab, mazkur personaj ertaklar konfliktida tutgan o‘rni hamda vazifasiga ko‘ra kam ishtirok etadi va sujet tarkibida u yoki bu darajada faollik ko‘rsatmaydi. Binobarin, uning hukmdor yoki o‘rmon hokimi sifatidagi qiyofasi, xarakter xususiyati, buyruq berish funksiyasi, harakat va holati, nutqiy munosabati, ko‘pincha, ommaviy epizodlarda – guruhlashgan personajlar tarkibida voqe bo‘ladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarda ishtirok etuvchi hukmdor personajlarni yozma adabiyotdagi shoh va shohlikka aloqador talqinlarning boshlamasi sifatida baholash mumkin. Bundan anglashiladiki, ertaklarda qatnashuvchi hukmdor personajga berilgan ta’rif ijtimoiy mohiyati va mantiqiy asosiga ko‘ra nisbatlangan xarakterga ega. Chunonchi, inson tafakkurining boshlang‘ich tabiati taraqqiyotning ibtidoiy bosqichlariga xos cheklangan va shaklan oddiy tuzilishga ega bo‘lib, uning badiiy ijoddagi in’ikosi ham voqelikni o‘ziga xos sodda, ixcham va cheklangan tarzda aks ettirishi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchidan, bu tipdagi personajlarning yaratilish tarixi va o‘sish, o‘zgarish evolyutsiyasi, transformatsiyalanish xususiyatlari, shuningdek, ramziylikka daxldor jihatlari yozma adabiyot uchun asos-zamin bo‘lganligini ko‘rsatadi. Mana shunday ta’kidlarga asoslanib, hayvonlar haqidagi ertaklarda ishtirok etuvchi hokim yoki hukmdor personajlarni quyidagi yo‘nalishda tahlil va talqin etish maqsadga muvofiqdir:

a) hukmdorlikka aloqador talqinlarning o‘ziga xos ohoriy jihatlarini ko‘rsatish maqsadida hokim (hukmdor) obrazi qiyofasini belgilash, ahamiyatini aniqlash;

b) hukmdorlik talqinini ertak talabi nuqtai nazaridan oydinlashtirish.

Ertaklarda hukmdor (hokim) obrazi goh yo‘lbars, goh sher, goh arslon tipida uchrashi sababli, bu boradagi fikrlarimiz yaxlitligi va mukammalligini ta’minlash maqsadida har uch personaj harakatini umumiy holatda baravar tahlil etib boramiz.

Bundan tashqari mifologik sher (yo‘lbars, arslon)ning ramziy tasviri podshohlik e’tiqodi va unvonlari, muhrlari, tangalar, suvoriylarning kamarlari, qilich dastasi va qalqonlarida, shuningdek, saroy, ark hamda shohlik devonining muhtasham devorlarida ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan, I.V.Avdiyevning ta’kidlab ko‘rsatishicha, qadimgi Misr podshohlari “...ko‘pincha, odam boshli zabardast sher (sfinks) sifatida tasvirlangan”. Shunga o‘xshash holatlarni qadimgi turkiylar tarixida ham uchratish mumkin. Masalan, K.V.Treverning yozishicha, “Qadimgi Kushon tangalarida yaratuvchi – Tangri tasviri sher bilan birga tushirilgan ...Kushon imperiyasining – so‘nggi davrlarida zarb etilgan tangalarda esa shoh Xuvishka yo‘lbarsga minib o‘tirgan xudo qiyofasida, ikki oyog‘ini bir tomonga uzatib turgan holida tasvirlangan. Uning pastki qismiga esa “Nono” so‘zi ilova qilingan” (Trever K.V. Pamyatniki greko-baktriyskogo iskusstva / Snesarev G.P. Relikti domusulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. –M.: Nauka, 1969. – S.259.).

Shu o‘rinda yana xalq baxshilarining alp bahodirlarni “sher yurakli, arslon bilakli” kabi sifatlarda ta’riflashi bejiz emasligini alohida ta’kidlash lozim. Chunonchi, unda qo‘llanilgan iboralar mazmuni, asosan, ramziylikka daxldordir. Atoulloh Husayniy o‘zining “Badoyi’ us-sanoyi’’ (“Aruz vazni va badiiy vositalar haqida”) nomli risolasida yuqoridagi holatni quyidagicha izohlaydi: “Sher derlar va yuraklik kishi sherga o‘xshag‘anlig‘i asoslanib, andin yuraklig‘ kishini iroda etarlar” (Atoulloh Husayniy. “Badoyi’ us-sanoyi’” b-219). Demak, bu yerda olim e’tiborni so‘zning tub ma’nosiga emas, balki ko‘chma ma’nosiga qaratish lozimligini uqtiradi. Masalaga xuddi shu asosda yondashsak, o‘xshash belgilar bilan hayotiy tushunchalarning ko‘chim hosil qilishdagi o‘zaro munosabati, ayni paytda yuzaga kelgan ko‘chma ma’noning qiyoslanuvchi obyekt va hodisalar mazmuniga mos kelishi bilan bog‘liq holatlar oydinlashganday bo‘ladi. Bu holatni Atoulloh Husayniy ilmiy – nazariy asosda shunday ta’riflaydi: “Majozning turli nav’lari bordur. Jumladan, istiora uldurkim, yasoq va iroda etilgan ma’no orasindag‘i aloqa o‘xshashliqtur: sher lafziyu yuraklig kishi ma’nosidag‘idek” (Atoulloh Husayniy. “Badoyi’ us-sanoyi’” b-219.). Anglashiladiki, olim ramzni majozning bir nav’i – turi sifatida olib qaraydi va uning manbaini qiyoslanuvchi (yasoq va iroda etilgan) tushunchalar o‘rtasidagi ma’no o‘xshashligiga bog‘laydi.

Darhaqiqat, “Istiora va ramzlar ham ko‘chma ma’no anglatadi” (Baxtina V. A. Esteticheskaya funksiya Spodochnoy fanatiki. b-17). Ko‘chma ma’noning yuzaga kelishi va voqelikka aylanishida shartlilik asosiy mezonlardan biri sanaladi.

Binobarin, «yasoq va iroda etilgan» tushunchalar (narsa, hodisa, obyekt)ning o‘zaro qiyoslanishi ularning funksional mazmunida nisbiy xarakterdagi shartlilikni vujudga keltiradi. Jumladan, sher (arslon, yo‘lbars) ramziy obrazining hukmdor personaj sifatdagi talqini shundan dalolat beradi.

Hukmdor personaj talqinida hayotiy belgi bilan (“yasoq” – “sher – o‘rmon hayvonlari shohi”) badiiy to‘qima (“iroda etilgan” tushuncha – “hukm chiqaruvchi, siyosat yurgizuvchi shoh-hokim timsoli”) o‘zaro uyg‘unlashib keladi. Bu esa o‘z navbatida ramziy obraz – hukmdor personaj mantiqiga mos ijtimoiy-estetik ma’noni yanada aniqlashtiradi. Masalan, “Botir echki” ertagida yo‘lbars podshohning barcha hayvonlarni o‘z izmiga bo‘ysundirib; taxtda viqor to‘kib o‘tirishi, “Yo‘lbars va Ona chumchuq” ertagida ta’riflangan parranda-yu darrandalar ustidan o‘z zulmini o‘tkazishi, “Tulkining ishi” ertagida esa tulki tilidan “yo‘lbars bizning shohimiz, unga yetar kim” deya tavsiflanishi yoki “Serka-boboning hiylasi” ertagida echkilarning arslonga ochko‘z bo‘ri ustidan arz qilishi va “Arslonning jahli chiqib, sochlari tik bo‘lib:

– Qaysi dovyurak mendan qo‘rqmay fuqorolarimga zulm qilar ekan?” – deb g‘azab otiga minishi bilan bog‘liq epizodik vaziyatlar Arslon, sher, yo‘lbars tipidagi hokim personajlar qiyofasida hukmdorlikka aloqador talqinlarning o‘ziga xos ohoriy jihatlarini yorqin aks ettiradi (O‘zbek xalq ertaklari. 1-tom).

Ramziy ma’nodagi hukmdor personajlar bilan bog‘liq voqea-hodisalar tavsifida va konflikt mazmunida ijtimoiy-maishiy hamda maishiy-estetik munosabatlar o‘z ifodasini topgan. Masalan, “Yo‘lbars va ona chumchuq” ertagida hikoya qilinishicha, hoqon yo‘lbarsbek o‘z nafsi uchun “Boshqa hayvonlarning topgan oziq-ovqatini zo‘rlik bilan tortib olar ekan” (O‘zbek xalq ertaklari). Bundan bezigan o‘rmon hayvonlari yig‘ilishib, o‘zaro kengash o‘tkazishibdi. Shunda bir ona chumchuq (bu yerdan) manzilgohlaridan ko‘chib ketish taklifini o‘rtaga tashlabdi. “Ular ketishayotganda oldilaridan yo‘lbars chiqib qolibdi. Hamma har tomonga qochib qolibdi». Biroq ona chumchuq boshqalarni himoya qilaman, deb yo‘lbarsga tutqin bo‘libdi. Albatta, bunday vaziyatda (to‘qnashuvda) kuchsiz hayvon – chumchuq mag‘lub bo‘ladi, kuchli hayvon – yo‘lbars uni bir yamlab yutib, maqsadga erishadi. Biroq ertakda voqea tamoman boshqacha tusda kechadi:

“Chumchuq qarasa, undan qutulmaydigan.

– Mayli, bo‘lmasa meni yeng. Lekin bir marta fatvo o‘qisangiz, yorug‘ dunyodan bearmon ketardim, – debdi chumchuq”. Uning gapiga ishongan yo‘lbars duo o‘qib, fotihaga qo‘l ochgan ekan, chumchuq “pir” etib uchib ketibdi.

Yo‘lbarsni ojizgina parranda – chumchuq tomonidan aldanishi – mag‘lub bo‘lishi ertak (voqealari) talabi doirasida sodir bo‘ladi. Binobarin, hayvonlar haqidagi ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – yirtqich hayvonlarning kuchsiz hayvonlardan yengilish hodisasi yuqoridagi ertak sujetiga asos bo‘lgan.

Yo‘lbars tabiatidagi ishonuvchanlik – laqmalik esa uni mazax qilish uchun qo‘llangan belgi bo‘lib, ayni holat ertak voqealarining emotsionalligini kuchaytirish va ta’sir doirasini kengaytirishga ham qaratilgandir.

Shuni e’tirof etish kerakki, “Yo‘lbars va ona chumchuq” tipidagi o‘xshash sujetlar “Bo‘ri bilan mergan”, “Tulki bilan tovus”, “Och bo‘ri” kabi ertaklarda ham uchraydi (O‘zbek xalq ertaklari). Biroq bunday umumiylikdan qat’iy nazar voqealar ularning har birida personajlar xarakteriga xos – spetsifik xususiyatlar vositasida tasvirlanadi. Binobarin, yuqoridagi ertakda voqea-hodisalar bayoni hukmdor personaj tabiati (nutq, munosabat, harakat, holat) bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlanadi.

Nisbatan keyingi davrlarda yaratilgan ertak namunalarida ba’zi bir obrazlar, xususan, hukmdor personaj talqini yangi mazmun bilan boyidi. Unda ramziylik bilan birga majoziylikning dastlabki elementlari paydo bo‘la boshladi. Bunga sabab, «An’anaviylik kasb etgan ramziy obrazlar davr o‘tgan sari yangi mazmun kasb eta bordi. Chunki ijtimoiy muhit, har bir davr adabiyotida yuzaga keladigan adabiy oqim mazkur ramziy obrazlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi” (Rahmonov N.A. Urxun-Yenisey yodnomalari va turkiy eposlar. b-196).

Natijada ramziy obrazlarning hayotiy mazmuni majoziy tusga aylana bordi. Shu asosga ko‘ra, ayrim ertaklar masallarga yaqin turadi.

Biroq mazkur ertaklarda ishtirok etuvchi personajlar masal qahramonlaridan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Chunonchi, “Xalq ertaklaridagi ijtimoiy allegoriya sof shartli forma olish darajasiga qadar olib borilmagan. Ularda biz masallar darajasidagi qochiriq, kinoyalarni ko‘rmaymiz. Ertaklarda masallardagidek mavhum allegorizmning yo‘qligi ularning ma’nosini badiiy, lo‘nda qiladi. Ertaklardagi allegoriya abstrakt xususiyatdan xoli bo‘lib, to‘laqonlidir. Bu hayvonlar haqidagi ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi” (Jalolov F. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. b-34). Shunga muvofiq, ertak personajlariga chuqur sotsial (ijtimoiy) ma’no yuklatish mantiqan joiz emas. Ko‘rinadiki, ayni xulosa M.Afzalov qarashlarini muayyan darajada rad etadi. Bu o‘rinda “Serkaboboning hiylasi” ertagini tahlil etish xarakterlidir (O‘zbek xalq ertaklari. 1-tom).

Ertakda uy hayvonlari (echkilar)ning yirtqich hayvonlar (bo‘ri va o‘rmon hokimi Arslon)ga munosabati va kurashi aks etadi. Serkabobo echkilar tinchligiga tahdid solayotgan ochko‘z bo‘ri ustidan arz qilish uchun ular nomidan Arslon podshohga vakil bo‘lib boradi. Voqeadan xabar topgan shoh Arslon darg‘azab bo‘lib, bo‘rini tilka-pora qiladi. Biroq “Ertasi tong otib, hali kun chiqmagan paytda Arslon kelib hamma echkilarni bir joyga to‘plab:

– Men kecha bo‘rini o‘ldirib, sizlarni o‘limdan qutqardim. Shu katta xizmatim evaziga har kun ertalab bir echkini nonushtam uchun uyimga yuborib

turinglar. Agarda bo‘yin tovlab, yubormasangiz, bir kechada hammangizni o‘ldiraman, debdi”. Shu yerda ahvol o‘zgaradi, dramatik vaziyat yuzaga keladi va u echkilar holatida aks etadi: Arslonning qaltis sharti ularni sarosimaga soladi. Biroq dono Serkaboboning aql bilan qo‘llagan tadbiri tufayli echkilar Arslondan ham qutuladilar: Serkaboboning hiylasiga ishongan “Arslon o‘zining va Serkaboboning suvdagi aksini ko‘rib, echkini olib qo‘ygan arslon deb o‘ylabdi va o‘zini quduqqa otibdi”.

Anglashiladiki, ertakda hukmdor personaj – Arslonning funksional harakati va badiiy talqini uning ikkilangan, ziddiyatli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Binobarin, dastlabki holatda u qo‘l ostidagi hayvonlar manfaatini himoya qiluvchi, ular xavfsizligini ta’minlovchi odil hukmdor – podsho qiyofasida namoyon bo‘ladi. Bu bilan u hukmdorlikka xos adolatparvarlik sifatlarini namoyish etadi. Jumladan, u o‘z hukmi ostidagi hayvon (echki)larga zulm va tahdid soluvchilarni ayovsiz tarzda jazolaydi. Uning harakatlarida qat’iylik va isyonkorona ruh ustuvor.

Biroq ertakning ikkinchi qismida hukmdor personaj talqinida salbiy xususiyatlar ko‘zga tashlana boradi. Bu o‘rinda uning xatti-harakati va nutqiy munosabati yagona maqsad tomon, ya’ni mutloq ustunlikka yo‘naltirilgan. Chunonchi, ertakda arslon echkilarni ochko‘z bo‘ri tahdidan qutqarib, o‘rmonda tinchlik va adolat o‘rnatishi barobarida, endi uning o‘zi ularga nisbatan zo‘rlik siyosatini yurgiza boshlaydi. Ta’kid joizki, ayni holat hukmdor personajni majoziy obraz darajasiga yaqinlashtiradi va mazmunida ijtimoiy-maishiy ma’noni mujassamlashtiradi. Sujet tarkibida tutgan o‘rniga ko‘ra esa fosh etish, tanqid qilish funksiyasini bajaradi.

Ertakda hukmdor personajning majoziylikka daxldor jihatlarini bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida shartli voqea, harakat va munosabatlar qo‘llangan.

Biroq funksional mazmunida realistik xarakterdagi o‘ziga xos hayotiy xususiyatlari ham saqlangan. Masalan, ertaklarda arslon kuchli va yirtqich hayvon, ayni paytda majoziylikka yaqin turuvchi obraz sifatida hukmdor yoki shoh talqinining yorqin ifodasi sanaladi. Bu esa uning o‘ziga xos belgisi hisoblanadi.

Darhaqiqat, hayvonlar haqidagi ertaklarda hukmdorlikka aloqador talqin va xususiyatlar yo‘lbars, sher, arslon tipidagi kuchli hayvonlar qiyofasida namoyon bo‘ladi. Bu obraz, uning kelib chiqishi va yaratilish asosi, ertak sujetida tutgan o‘rni, funksional harakatlari va talqiniy jihatlari folklorshunoslikda jiddiy tadqiq etilishi lozim bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi. Chunonchi, ertakshunosligimizda u yoki bu yo‘nalishda obrazlar tahliliga bag‘ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, mazkur personaj xususida jiddiy kuzatish olib borilmagan.

Ramziy obrazlar asosida yotuvchi mifologik tasavvurlar qabilaviy urf-odatlar va diniy-e’tiqodiy qarashlar negizida shakllangan. Bu o‘z navbatida

hayvonlar haqidagi ertaklarda uchraydigan hukmdor obrazining ramziy ifodalanishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Sher, arslon, yo‘lbars kabi hayvonlar obrazlari kuch-qudrat, adolat, mardlik, jasorat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bu obrazlar orqali o‘tmishdagi shohlik, hokimiyatga oid ijtimoiy-estetik tasavvurlar aks ettiriladi.

Xulosa

Hayvonlar haqidagi ertaklarda hokim obrazining ramziy, mifologik va poetik tahlili bu personajlarning nafaqat folklor ichki tizimidagi o‘rni, balki yozma adabiyotga bo‘lgan ta’sirini ham ochib beradi. Bu obrazlar orqali qadimgi hukmdorlikka oid tushunchalar, xalqning ijtimoiy-estetik qarashlari hamda axloqiy tamoyillari ifodalanadi. Shuning uchun ham ularning chuqur ilmiy tahlili ertakshunoslik va adabiyotshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atoulloh Husayniy. Badoyi’ us-sanoyi’ (Aruz vazni va badiiy vositalar haqida. A.Rustamov tarj.). –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. –B.219.
2. Baxtina V. A. Esteticheskaya funksiya Spodochnoy fanatiki. –Saratov, 1972. –S.17.
3. Jalolov F. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. –Toshkent: Fan, 1976. 34-bet.
4. O‘zbek xalq ertaklari. 1-tom.
5. Rahmonov N.A. Urxun-Yenisey yodnomalari va turkiy eposlar. –Toshkent: Fan, 1991. –B.196.
6. Trever K.V. Pamyatniki greko-baktriyskogo iskusstva / Snesarev G.P. Relikti domusulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. –M.: Nauka, 1969. –S.259

GINEKOLOGIYA SOHASIGA OID TIBBIY TERMINOLOGIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA UNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Nosirova Odina Dilshodbek qizi
Namangan dalat universiteti tayanch doktaranti,
E-mail: nosirova.oydin1408@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola ginekologiya sohasidagi tibbiy atamalarining rivojlanish tarixini va uning lingvistik xususiyatlarini o‘rganadi hamda maqolada ginekologiya sohasida qo‘llaniladigan tibbiy atamalarning tarixiy shakllanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqot qadimgi yunon va lotin tiliga oid terminlarning hozirgi zamonaviy ginekologik adabiyotdagi tutgan o‘rni, ularning morfologik tuzilmasi

hamda tarjima muammolari bilan bog‘liq jihatlarni yoritadi. Maqolada shuningdek ginekologiyaga oid atamalari qanday shakllangani, tarjima qilingani va tillar bo‘ylab tushunilishi ko‘rib chiqilib, til xususiyatlari va madaniy asoslariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so’zlars: akusherlik, ginekologiya, terminologiya, qiyosiy tilshunoslik, madaniy ekvivalentlik, tarjima strategiyasi, semantik siljish

Kirish

Hozirda tibbiyot sohasi butun dunyo bo‘ylab jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Ilm-fan taraqqiyoti, yangi texnologiyalar, genetik va tibbiy tadqiqotlar natijasida tibbiy bilimlar bazasi kengaymoqda. Shu bilan birga, sohaga oid yangi kashfiyotlar va yangiliklar har kuni yuzaga kelmoqda. Buning natijasida yangi tibbiy atamalar, kontseptlar va diagnostik vositalar paydo bo‘lib, ularning soni tobora ortib bormoqda. Yangi atamalarning joriy etilishi tibbiy matnlarning, ayniqsa, ixtisoslashgan sohalarda – ginekologiya, onkologiya, immunologiya va genetikada tarjima jarayonini murakkablashtirmoqda.

Ayniqsa, ginekologiya sohasida bu muammo yaqqol seziladi. Sababi bu yo‘nalish nafaqat aniq ilmiy ifodalarni, balki madaniy sezuvchanlikni ham talab etadi. Tibbiyot matnlarini tarjima qilishda faqat grammatik to‘g‘rilik emas, balki atamaning mohiyati, kontekstdagi funksiyasi va milliy mentalitetga mosligi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ginekologiyaga oid ayrim atamalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishda lingvistik aniqlik, semantik moslik va madaniy sezuvchanlik muammolari yuzaga keladi[1].

Tibbiyot terminologiyasi eng mukammal va tizimlashtirilgan atamalar tizimlaridan biri hisoblanadi. Bu terminlar asosan qadimgi yunon va lotin tillaridan olingan bo‘lib, ular o‘zining barqaror morfologik tuzilmasi, aniqligi va qisqaligi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim butun dunyo tibbiyotida yagona ilmiy aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Ammo, ularni boshqa tillarga, jumladan o‘zbek tiliga tarjima qilishda muayyan muammolar yuzaga chiqadi. Bu muammolar til tuzilmasi, so‘z yasalish qonuniyatlari, milliy madaniyat va muloqot an’analari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shu sababli, tibbiy tarjimaning muvaffaqiyati terminologiyani chuqur o‘rganish, uni kontekstual tahlil qilish va zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida moslashtirishga bog‘liq. Ginekologik terminlar misolida ushbu jarayon yanada murakkab tus oladi. Zero, bu sohadagi atamalar sog‘liq, jinsiylik, ayollik, bepushtlik, homiladorlik kabi ijtimoiy va madaniy jihatdan sezgir mavzular bilan bevosita bog‘liq.

Nazariy asoslar

Ginekologiyaga oid terminlarning shakllanishi, rivojlanishi va lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilishda tilshunoslik, tibbiyot tarixi, semasiologiya va

tarjimashunoslik fanlari kesishmasida turgan murakkab, lekin muhim ilmiy yo‘nalish vujudga keladi. Ushbu yo‘nalishning nazariy asoslari qadimgi tibbiyot adabiyotlaridan tortib, zamonaviy terminologik tizimlarga qadar bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Tibbiy terminlarning tarixiy shakllanishi va ularning zamonaviy tibbiyotdagi o‘rnini tahlil qilgan olimlar Lavochnikova hamda Varnavskayaning fikriga ko’ra, tibbiy atamalar asosiy ildizlari qadimgi yunon va lotin tillariga borib taqaladi. Masalan, Hippokrat (miloddan avvalgi V asr) tomonidan yaratilgan asarlar ilk tibbiy atamalarni o‘z ichiga olgan. Keyinchalik Galen (milodiy II asr) yunoncha atamalarni tizimlashtirgan va Rim imperiyasi davrida bu terminlar lotincha shaklga o‘tkazilgan [2].

Markaziy Osiyo hududida qadimda yashagan zardushtiy xalqlarning muqaddas diniy asari “Avesto”da tibbiyotga oid ilk yozma manbalarni uchratish mumkin. Bundan tashqari, Orta asrlarda bu atamalar **arab tiliga tarjima qilinib**, ilmiy lug‘atga aylantirildi. Ibn Sino, Roziy, Zahraviy kabi olimlar tomonidan tibbiy terminlar o‘z zamonasining ilmiy-nazariy mezonlariga moslab ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Ular nafaqat mavjud atamalarga arabcha ekvivalentlar bergan, balki yangi terminlar ham ishlab chiqqan. [3]. Shu bois, arab-islam tibbiyoti davrida shakllangan terminologik baza bugungi zamonaviy tibbiyot tilining rivojiga kuchli asos bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbek xalqi uchun eng yaxshi tanilgan shifokor – **Abu Ali Ibn Sino** (980–1037) o‘zining mashhur asari *“Al-Qonun fi-t-tibb”* (Tibb qonunlari)da qadimgi yunon olimlarining ilmiy qarashlarini chuqur tahlil qilgan, ularni o‘z tajribasi bilan boyitgan va yangi terminlar yaratgan. Ibn Sinoning asarlarida kasalliklar, davo usullari, anatomik atamalar va farmakologik terminlar tizimli ravishda izohlangan. U lotin va yunon tilidagi *phlegma*, *melancholia*, *cardia*, *hepatos* kabi atamalarni arab tiliga tarjima qilib, ularni turli anatomik, fiziologik va patofiziologik kontekstlarda ishlatgan. U arab tilida *qalb* (yurak), *kibd* (jigar), *dimagh* (miya) kabi so‘zlarni ilmiy atama darajasiga ko‘tardi[4].

Arab olimlarining bu ishlari natijasida **tibbiy terminologiya ilmiy tizimga aylantirildi**. Ular mavjud terminlarni faqat tarjima qilish bilangina cheklanmay, balki ularni o‘z tilining grammatik-morfologik qonuniyatlariga moslashtirib, tibbiy atamalarning aniq, qisqa va funksional shakllarini yaratdilar[5]. Bu esa, tibbiyot tilini turkiy, fors va boshqa musulmon xalqlari orasida ham keng yoyilishiga imkon berdi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ginekologiyaga oid tibbiy atamalarning rivojlanish tarixini va ularning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, kompleks tahliliy yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-etimologik,

lingvistik, tarjimashunoslik va tibbiyot terminologiyasiga oid metodologik yondashuvlar qo‘llanildi.

Eng avvalo, etimologik tahlil usuli asosida qadimgi yunon va lotin tillaridan olingan ginekologik terminlarning kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari va semantik o‘zgarishlari o‘rganildi. Bunda tarixiy manbalar —Ibn Sinoning “Tib Qonunlari” asari, shuningdek zamonaviy tibbiy lug‘atlar asos sifatida tanlab olindi.

Shuning bilan birgalikda, lingvistik tahlil usuli orqali ginekologik terminlarning morfologik tuzilishi, ularning prefiks, asos va suffikslar orqali shakllanish xususiyatlari o‘rganildi. Jumladan, *hysterectomy*, *menorrhagia*, *endometriosis* kabi atamalarning tuzilishi tahlil qilinib, ularning o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda yuzaga keladigan lingvosemantik muammolar aniqlab chiqildi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot davomida ginekologiyaga oid tibbiy atamalar tarixiy, lingvistik va tarjimashunoslik jihatdan chuqur tahlil qilindi. Etimologik manbalarni o‘rganish natijasida ushbu atamalar qadimgi yunon va lotin tillariga borib taqalishi aniqlandi. Ularning ilmiy va amaliy jihatdan shakllanishi Hippokrat va Galen asarlarida boshlangan bo‘lib, bu atamalar o‘rta asrlarda Ibn Sino, Roziy va Zahraviy tomonidan arab tilida ilmiy asosda qayta ishlab chiqilgan.

Badiiy tarjimadan farqli o‘laroq, tibbiy tarjimada asosiy e’tibor aniqlik, ravshanlik va standartlashtirilgan terminologiyaga qaratiladi. Biroq, bunday texnik kontekstlarda ham tibbiyot va sog'liqni saqlash tizimlariga oid madaniy tushunchalar atamaning ishlatilishiga ham, talqiniga ham ta'sir qiladi [6]. Masalan, “hysterectomy” (bachadonni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash) atamasi ingliz tilida qisqa va aniq ifodalanadi, biroq uni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilishda semantik noaniqlik va madaniy sezuvlilik muammolari yuzaga keladi.

Morfologik tahlil shuni ko‘rsatdiki, ginekologik terminlar odatda ko‘p komponentli so‘zlardan tashkil topadi[7]. Masalan, *hysterectomy* (hyster– bachadon, –ectomy – olib tashlash), *dysmenorrhea* (dys– qiyinchilik, men– hayz, –rrhea – oqish) kabi atamalarning semantik jihatdan to‘liq tarjimasi nafaqat so‘zma-so‘z tarjimani, balki funksional ma’noni ham talab qiladi[8]. Bu esa tarjima jarayonida lingvistik aniqlik va semantik muvofiqlikni muhimlashtiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi tibbiy matnlarda ginekologik terminlar turlicha ifodalanmoqda: ayrim hollarda ular rus tilidan o‘zlashgan holda, boshqa hollarda esa umumiy va soddalashtirilgan xalqona ifodalar bilan berilmoqda. Masalan, *amenorrhea* o‘rniga “hayz to‘xtashi” yoki *menorrhagia* o‘rniga “ko‘p hayz qonashi” kabi iboralar ishlatiladi. Bunday yondashuv klinik aniqlikni yo‘qotishga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ginekologik terminlarning o‘zbek tilidagi ifodalanishida terminologik barqarorlik va lingvistik aniqlikni ta’minlash uchun ilmiy asoslangan, izchil yondashuv zarur. Maxsus ginekologik izohli lug‘atlar, ikki tilli resurslar va tarjima standartlarini ishlab chiqish orqali bu muammolar bartaraf etilishi mumkin.

Bugungi global tibbiyot muhitida zamonaviy tibbiy matnlarni milliy tillarga moslashtirishda bir necha muhim tamoyillar mavjud. Ulardan biri – lingvistik muvofiqlik. Terminlar milliy tilning fonetik va grammatik qonuniyatlariga mos bo‘lishi kerak. Ikkinchisi – ilmiy aniqlik: har bir termin o‘z kasbiy-ma’lumotli mazmunini saqlab qolishi lozim. Uchinchidan – madaniy muvofiqlik: termin jamiyatda ma’naviy jihatdan qabul qilinadigan shaklda bo‘lishi kerak. Ayniqsa, ginekologik terminlarda ushbu uch asosiy mezonning birgalikda tatbiq etilishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tili uchun maxsus tibbiy tarjima standartlari, jumladan, ginekologik terminologiyaga oid izohli lug‘atlar, elektron platformalar va terminologik bazalar yaratish dolzarb masaladir. Bu nafaqat tarjimonlarga, balki shifokorlar, tibbiyot o‘qituvchilari va talabalarga ham katta yordam beradi. Har bir tibbiy atamaning etimologiyasi, ma’noviy ko‘lami, madaniy konnotatsiyasi va amaliy qo‘llanilishi tibbiyot ta’limi va amaliyotida chuqur o‘rganilishi lozim.

Adabiyotlar ro’yhati

1. WHO. (2022). *Obstetric and Gynecological Terminology Guidelines.*
2. Lavochnikova, L. S., & Varnavskaya, E. V. (2013). *Etymological Study of Medical Terms*. Молодежный инновационный вестник, 2(1), 256. Retrieved from https://new.vestnik-surgery.com/index.php/2415-7805/article/view/2525
3. Madvaliyev A. O‘zbek terminalogiyasi va leksigrafiyasi masalalari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 232-233.
4. Nasr, S. H. (2006). *Science and Civilization in Islam*. Harvard University Press.
5. Tarloyan, G. L. (2008). *Latin Medical Terminology and its Development*. Moscow Medical Academy.
6. Rahimjanova, I. T. (2022). O‘zbek va ingliz tillarida meditsina terminlarining o‘zaro tarjimasi. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 5(2), 113–117.
7. Umarov, H. T. (2023). *Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari*. Hilol Media.
8. Oxford Concise Medical Dictionary (9th ed.). (2015). Oxford University Press.
9. Kambarova, Z. (2021). *Terminologik muammolar va ularni hal etish yo‘llari.* Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.

УДК 378.147

Интеграция передовых педагогических технологий в преподавание иностранных языков в условиях цифровой экономики: возможности, вызовы и стратегии имплементации

К.Б. Муминов
Управление мусульман Узбекистана
Ташкентское городское представительство
e.mail.*kozimjon.muminov@gmail.com*

Abstract: The digital economy necessitates a rethinking of approaches to foreign language (FL) teaching, emphasizing digital literacy alongside communicative competence. The article analyzes the potential of advanced technologies (AI, VR/AR, adaptive systems) for transforming FL teaching. Opportunities for personalization, immersive learning, and enhancing motivation are examined. Challenges are discussed: the digital divide, the need for teacher training, and pedagogically sound integration. Strategic principles for implementation are proposed, underscoring the priority of pedagogy over technology, the importance of developing digital competence, and ethical aspects for effectively preparing specialists to meet the demands of the modern economy.

Keywords: foreign language teaching, pedagogical technologies, digital economy, artificial intelligence (AI), virtual reality (VR), personalized learning, digital literacy, TPACK.

Аннотация: Цифровая экономика требует переосмысления подходов к обучению иностранным языкам (ИЯ), акцентируя внимание на цифровой грамотности наряду с коммуникативной компетенцией. Статья анализирует потенциал передовых технологий (ИИ, VR/AR, адаптивные системы) для трансформации преподавания ИЯ. Рассматриваются возможности персонализации, иммерсивного обучения и повышения мотивации. Обсуждаются вызовы: цифровой разрыв, необходимость подготовки преподавателей и педагогически обоснованной интеграции. Предлагаются стратегические принципы имплементации, подчеркивая приоритет педагогики над технологией, важность развития цифровой компетенции и этические аспекты для эффективной подготовки специалистов к требованиям современной экономики.

Ключевые слова: обучение иностранным языкам, педагогические технологии, цифровая экономика, искусственный интеллект, виртуальная реальность, персонализация обучения, цифровая грамотность, TPACK.

1. Введение

Глобализация и повсеместное проникновение цифровых технологий формируют новую социально-экономическую реальность – цифровую

экономику. Этот контекст предъявляет повышенные требования к профессиональным компетенциям, среди которых владение иностранными языками и цифровая грамотность занимают центральное место (Schwab, 2017; European Commission, 2018). Способность эффективно коммуницировать в межкультурной и цифровой среде становится неотъемлемым условием успешности на глобальном рынке труда. Традиционная система преподавания иностранных языков (ИЯ) сталкивается с необходимостью адаптации к этим новым реалиям, интегрируя инновационные подходы, способные обеспечить гибкость, персонализацию и развитие навыков, релевантных цифровой эпохе.

Передовые педагогические технологии, такие как искусственный интеллект (ИИ), виртуальная (VR) и дополненная (AR) реальность, адаптивные обучающие системы, мобильное обучение и инструменты для совместной работы онлайн, обладают значительным потенциалом для модернизации лингвистического образования (Godwin-Jones, 2019; Kaplan-Rakowski & Gruber, 2019). Они открывают возможности для создания интерактивных, иммерсивных и индивидуально настроенных учебных сред, выходящих за рамки традиционного классного кабинета. Однако само по себе наличие технологий не гарантирует педагогического эффекта. Ключевой проблемой остается их осмысленная и методически грамотная интеграция в образовательный процесс, учитывающая дидактические цели и способствующая развитию как языковой, так и цифровой компетенции (Mishra & Koehler, 2006; Chapelle & Sauro, 2017).

Цель настоящей статьи – провести анализ возможностей и вызовов, связанных с интеграцией передовых педагогических технологий в преподавание ИЯ в условиях цифровой экономики, и предложить стратегические принципы их эффективной имплементации. Статья рассматривает ключевые технологии и их дидактический потенциал, систематизирует преимущества и барьеры их внедрения, а также формулирует рекомендации для образовательной практики, направленные на подготовку конкурентоспособных специалистов.

2. Технологии и педагогические основы

Эволюция технологий в обучении ИЯ прошла путь от ранних форм CALL (Computer-Assisted Language Learning) до современных интеллектуальных и иммерсивных систем (Warschauer & Healey, 1998; Godwin-Jones, 2019). Современный арсенал включает:

- Искусственный интеллект (ИИ): применяется для создания интеллектуальных тьюторских систем, чат-ботов для практики диалогической речи, автоматизированной оценки письма и устной речи (с

использованием Natural Language Processing - NLP), а также для персонализации контента и адаптивного тестирования (Bibauw et al., 2019; Vassiliou et al., 2021). ИИ позволяет предоставлять индивидуализированную обратную связь и адаптировать сложность заданий под уровень обучающегося.

- Виртуальная (VR) и дополненная (AR) реальность: VR создает полностью иммерсивные 3D-среды для отработки коммуникативных сценариев (виртуальные экскурсии, деловые переговоры, бытовые ситуации), способствуя спонтанности речи и развитию социокультурной осведомленности (Kaplan-Rakowski & Gruber, 2019). AR обогащает реальное окружение цифровой информацией (интерактивные метки, подсказки), контекстуализируя изучение лексики и грамматики (Scrivner et al., 2019).
- Адаптивные обучающие системы: используют алгоритмы для анализа прогресса обучающегося и динамической подстройки учебной траектории, предлагая материалы и задания оптимального уровня сложности, что способствует эффективности обучения в собственном темпе (Brusilovsky & Peylo, 2003).
- Мобильное обучение (MALL) и геймификация: Смартфоны и планшеты обеспечивают доступ к обучению "в любое время, в любом месте" через приложения, подкасты и онлайн-ресурсы (Kukulska-Hulme & Shield, 2008). Геймификация повышает мотивацию и вовлеченность за счет использования игровых элементов (Reinhardt, 2019).

Эффективность этих технологий напрямую зависит от их педагогической интеграции. Конструктивистские и коннективистские подходы подчеркивают важность активного конструирования знаний обучающимися и обучения в сетевых сообществах, что хорошо реализуется через проектную деятельность с использованием цифровых инструментов и платформ для совместной работы. Модель TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) 强调了教师有效整合技术、教学法和学科知识的必要性 (Mishra & Koehler, 2006). В контексте цифровой экономики акцент смещается на развитие не только базовых языковых навыков, но и специфических компетенций, таких как ведение деловой коммуникации онлайн, участие в виртуальных международных командах и критическая оценка информации в цифровой среде (Kessler, 2018).

3. Анализ: Возможности и вызовы

Интеграция передовых технологий в преподавание ИЯ открывает значительные возможности, но и сопряжена с существенными вызовами.

3.1. Возможности

- Персонализация и адаптивность: ИИ и адаптивные системы позволяют создавать индивидуальные образовательные маршруты, максимально соответствующие потребностям, целям и темпу обучения каждого студента, что особенно ценно в условиях разнородных групп и необходимости освоения специализированной лексики для цифровой экономики.
- Иммерсивность и контекстуализация: VR/AR технологии обеспечивают эффект "погружения" в языковую среду, позволяя отрабатывать коммуникативные навыки в реалистичных (хотя и симулированных) контекстах, преодолевать психологические барьеры и лучше понимать культурные особенности общения.
- Повышение мотивации и вовлеченности: Интерактивность, геймификация, доступность мобильных приложений делают процесс изучения языка более динамичным и увлекательным, способствуя поддержанию интереса и регулярности занятий.
- Гибкость и доступность: Онлайн-платформы и мобильные технологии предоставляют возможность обучаться в удобное время и в удобном месте, поддерживая концепцию непрерывного образования (lifelong learning), критически важную в быстро меняющейся цифровой экономике.
- Развитие компетенций XXI века: Использование технологий в процессе изучения ИЯ органично развивает цифровую грамотность, навыки поиска и критической оценки информации, креативность (создание цифрового контента на ИЯ) и навыки онлайн-коллаборации.
- Объективная оценка и аналитика: Технологии позволяют автоматизировать проверку заданий, предоставлять мгновенную обратную связь (например, по произношению) и собирать данные (Learning Analytics) для анализа эффективности учебного процесса и его оптимизации (Siemens & Gasevic, 2012).

3.2. Вызовы

- Цифровой разрыв: Неравный доступ к технологиям и интернету может усилить образовательное неравенство, оставляя часть студентов без возможности пользоваться преимуществами инновационных методик (Van Dijk, 2020).
- Подготовка преподавателей: Недостаточный уровень цифровой и методической компетентности преподавателей (TPACK) является главным барьером на пути эффективной интеграции технологий. Требуется системное повышение квалификации (Hubbard, 2017).
- Педагогическая интеграция: Риск "техноцентризма" – использования технологий ради моды, без четкой дидактической цели и

связи с содержанием обучения. Технология должна решать педагогическую задачу, а не создавать новые проблемы (Selwyn, 2011).

- Затраты и инфраструктура: Внедрение и поддержка передовых решений (особенно VR/AR и сложных ИИ-платформ) требуют значительных финансовых и инфраструктурных ресурсов.
- Приватность данных и этика: Сбор и анализ данных об успеваемости и поведении студентов поднимают вопросы конфиденциальности, безопасности и потенциальной предвзятости алгоритмов ИИ (Prinsloo & Slade, 2017).
- Качество контента и аутентичность: необходимо обеспечить высокое качество цифровых образовательных ресурсов. Чрезмерная зависимость от симуляций может ограничить опыт аутентичного общения.
- Когнитивная перегрузка: Обилие информации и необходимость многозадачности в цифровой среде могут приводить к поверхностному обучению и рассеиванию внимания (Firth et al., 2019).

4. Стратегии и педагогические принципы имплементации

Преодоление вызовов и реализация потенциала технологий требуют взвешенного стратегического подхода, основанного на следующих принципах:

1. Приоритет педагогики: Выбор технологий должен быть обусловлен исключительно педагогическими целями, содержанием курса и потребностями обучающихся. Технология – это средство, а не цель.
2. Смешанное обучение (Blended Learning): Разумное сочетание очных занятий и онлайн-компонентов, синхронного и асинхронного взаимодействия часто является наиболее эффективным подходом, позволяющим гибко использовать преимущества разных форматов.
3. Системное развитие компетенций преподавателей: необходимо инвестировать в программы повышения квалификации, фокусирующиеся на развитии всех компонентов TPACK (технологические, педагогические, предметные знания и их взаимосвязи). Важно поддерживать создание профессиональных сообществ для обмена опытом.
4. Интегрированное развитие коммуникативной и цифровой компетенций: Учебные задания должны моделировать реальные задачи общения в цифровой экономике (например, участие в видеоконференциях, совместное редактирование документов онлайн, создание цифровых презентаций на ИЯ).
5. Поддержка автономии и коллаборации: Технологии должны использоваться для стимулирования самостоятельной работы студентов, развития навыков саморегуляции обучения, а также для организации

эффективного взаимодействия и совместной работы над проектами (Benson, 2011).

6. Обеспечение справедливости и доступности: при планировании внедрения технологий необходимо учитывать потенциальный цифровой разрыв и продумывать меры поддержки или альтернативные задания для студентов с ограниченным доступом.

7. Этические нормы и прозрачность: Использование данных студентов должно регулироваться четкими этическими правилами и политиками конфиденциальности, о которых студенты должны быть информированы.

8. Непрерывная оценка и адаптация: Эффективность применяемых технологий и методик должна регулярно оцениваться (включая сбор обратной связи от студентов и преподавателей) для своевременной корректировки стратегии.

5. Заключение

Интеграция передовых педагогических технологий является не просто трендом, а насущной необходимостью для системы преподавания иностранных языков, стремящейся отвечать на вызовы цифровой экономики. ИИ, VR/AR, адаптивные и мобильные технологии открывают беспрецедентные возможности для персонализации, повышения мотивации и создания эффективных учебных сред, способствующих развитию как языковых, так и цифровых компетенций.

Однако реализация этого потенциала требует преодоления серьезных вызовов, главные из которых лежат в плоскости педагогики, подготовки кадров и обеспечения равного доступа. Успех зависит от стратегического видения, методической грамотности и готовности образовательных институтов и преподавателей ставить педагогические цели во главу угла, рассматривая технологии как мощный инструмент для их достижения. Разработка и внедрение моделей смешанного обучения, системное повышение квалификации преподавателей на основе концепции TPACK, а также внимание к этическим аспектам являются ключевыми условиями для эффективной и ответственной интеграции инноваций.

Дальнейшие исследования должны быть направлены на эмпирическое изучение долгосрочного влияния конкретных технологий на глубину усвоения языка и развитие критического мышления, разработку эффективных моделей подготовки преподавателей и создание качественного, педагогически выверенного цифрового контента. Только комплексный, научно обоснованный и педагогически ориентированный подход позволит

использовать мощь технологий для подготовки специалистов, способных успешно коммуницировать и действовать в глобальной цифровой экономике.

Список литературы

1. Benson, P. (2011). *Teaching and researching autonomy* (2nd ed.). Pearson.
2. Bibauw, S., François, T., & Desmet, P. (2019). Towards intelligent CALL: NLP and machine learning in language learning technologies. *Computer Assisted Language Learning*, *32*(1-2), 1–12. https://doi.org/10.4324/9781351117586-12
3. Brusilovsky, P., & Peylo, C. (2003). Adaptive and intelligent[1] Web-based educational systems. *International Journal of Artificial Intelligence in Education*, *13*(2-4), 159–172.
4. Chapelle, C. A., & Sauro, S. (Eds.). (2017). *The handbook of technology and second language teaching and learning*. Wiley Blackwell.
5. European Commission. (2018).[2] *Proposal for a Council Recommendation on Key Competences for Lifelong Learning*. COM(2018) 24 final.
6. Firth, J., Torous, J., Stubbs, B., Firth, J. A., Steiner, G. Z., Smith, L., Alvarez-Jimenez, M., Gleeson, J., Vancampfort, D., Armitage,[3] C. J., & Sarris, J. (2019). The "online[4] brain": How the internet may be changing our cognition. *World Psychiatry*, *18*(2), 119–129. https://doi.org/10.1002/wps.20617
7. Godwin-Jones, R. (2019). Emerging technologies: Apps, AI, and VR for language learning. *Language Learning & Technology*, *23*(3), 4–14. https://godwinjones.com/godwin-jones_vr_ai_merge.pdf

INNOVATIVE METHODS AND PERSISTENT CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE: STRIKING A BALANCE IN THE 21ST CENTURY CLASSROOM

Ikromova Muazzam Dilmurod qizi
PhD, Namangan state university

Abstract:

Teaching English as a Foreign Language (TEFL) has evolved significantly in recent years, particularly with the integration of innovative methods and digital tools. This article explores modern instructional approaches such as communicative language teaching, task-based learning, and technology-enhanced teaching. While these methods offer dynamic ways to engage learners and improve outcomes, educators continue to face longstanding challenges such as large, mixed-ability classes, limited resources, and cultural or linguistic barriers. Drawing from research and classroom experience, the article highlights practical strategies for navigating these challenges and emphasizes the need for flexibility

and context-based adaptation. The goal is to support TEFL professionals in striking a balance between innovation and the realities of diverse classroom settings.

Key Words:

TEFL (Teaching English as a Foreign Language), Language Teaching Methods, Communicative Approach, Task-Based Learning, Technology in Language Teaching, Teaching Challenges, Classroom Management, Learner Motivation, Mixed-Ability Classes, Digital Tools in Education

Introduction:

In an increasingly globalized world, the demand for English language proficiency continues to grow, positioning English as a critical tool for communication, education, and professional advancement. As a result, the role of Teaching English as a Foreign Language (TEFL) has become more significant than ever before. Over the past few decades, language educators have moved beyond traditional grammar-translation and audio-lingual methods, embracing more communicative, learner-centered, and technologically integrated approaches. Innovations such as task-based learning, blended learning, and the flipped classroom have transformed the way English is taught and learned across diverse cultural and educational contexts.

However, while these advancements have introduced dynamic ways to improve student engagement and language acquisition, they have also revealed a new set of pedagogical and logistical challenges. Teachers often find themselves navigating large, mixed-ability classes, limited access to resources, varying learner motivation, and the complexities of adapting modern methods to local contexts. The tension between implementing innovative practices and managing real-world classroom constraints is a central concern for many educators in the TEFL field.

This article aims to explore both the promising methodologies and the enduring challenges faced by English language teachers today. By examining current trends, highlighting practical experiences, and proposing adaptable solutions, this discussion seeks to support educators in creating effective, inclusive, and responsive learning environments.

English has established itself as the global lingua franca, playing a pivotal role in international communication, business, science, and education. The growing need to master English as a Foreign Language (EFL) has led to rapid developments in teaching strategies aimed at improving learner engagement and proficiency[69]. In response, English language educators have shifted from traditional, teacher-centered methods to more dynamic, learner-centered

[69] Graddol, D. (2006). *English Next*. British Council.

approaches that emphasize real-world communication, interactivity, and cultural relevance[70].

One such shift has been the widespread adoption of the **Communicative Language Teaching (CLT)** approach, which encourages learners to actively use the language rather than merely learn about it[71]. This has been accompanied by task-based learning, project-based learning, and the integration of technology into the classroom, including digital tools, apps, learning management systems, and online collaboration platforms. The emergence of the **flipped classroom model**, in which students engage with new content at home and practice in class, further illustrates how modern teaching methods are reshaping the EFL landscape[72].

Despite these innovations, EFL teachers worldwide continue to face persistent challenges that hinder effective instruction. These include large class sizes, limited access to technology, mixed-ability groups, insufficient institutional support, and cultural or linguistic barriers between teachers and learners[73]. In many developing regions, the implementation of advanced teaching methodologies is often constrained by a lack of training, resources, or infrastructure[74]. Moreover, student motivation remains a complex issue. While some learners are intrinsically motivated, others struggle due to exam-oriented curricula, pressure from parents or institutions, or a lack of immediate relevance of English in their daily lives[75]. Educators are thus required to strike a delicate balance between embracing modern pedagogical practices and adapting them to suit the specific socio-cultural and institutional contexts in which they teach.

This article explores the intersection of innovative teaching methods and the practical challenges faced in the EFL classroom. By analyzing real-world classroom scenarios, current research, and best practices, it aims to provide insights and strategies for educators seeking to enhance the effectiveness of English language instruction in diverse educational settings.

Methodology

- Language contact and hybridization significantly influenced English place names. The *Danelaw*, an area under Norse-Danish control, provides clear examples. Place names ending in -by, meaning *"settlement"* or *"farm"*, are prevalent, as demonstrated by Fellows-Jensen [3]. As a place name meaning *"white settlement"*, *Whitby* demonstrates how linguistic elements merged. Similarly, the Norman Conquest introduced Norman-French influences that altered Anglo-Saxon names. Clark [2] points out that *Chester*, derived from the *Latin castrum (fortress)*, arrived in English through the French *cester*. Such linguistic combinations contribute to the richness and diverse character of English place names.
- Semantic shifts and the loss of original meanings pose challenges in toponymic interpretation. Smith [8] highlights how the name Slough originally meant "mire" or "muddy place". Today, however, many people may not associate the town with this definition. Furthermore, urbanization and landscape alterations can obscure the original geographical context. Gelling [4] notes that *Bradford*, meaning *"broad ford"*, no longer precisely reflects its initial description due to the town's development and the alteration of the ford itself. These examples emphasize that understanding historical meanings is crucial in toponymic studies.

Results. We know that interdisciplinary conflicts can arise due to differing perspectives on toponymic analysis. Cameron [1] highlights clashes between linguists, focused on etymological derivations, and historians, who prioritize documentary evidence. For example, a linguist might propose a Celtic origin for a name based on phonetic similarity, while a historian could argue for an Anglo-Saxon source based on charter records.

Digital lexicography faces limitations in accurately processing historical data. Gregory & Healey [5] discuss the challenge of OCR errors in digitizing medieval manuscripts, where faded ink or unusual script can lead to incorrect transcriptions, altering place-name forms and their subsequent interpretations. Furthermore, Lilley [6] points out that GIS mapping struggles with accurately representing historical boundary changes. While visualizing place name distributions is valuable, fluid and overlapping medieval administrative areas, like manors, can be challenging to depict precisely, impacting the spatial analysis of toponymic patterns.

Crowdsourcing and community engagement offer promising avenues for future research. Projects like The Survey of English Place-Names are now incorporating local knowledge too.

Integrating archaeology and genetics offers new perspectives on understanding place-name origins. For instance, the discovery of a previously unknown Anglo-Saxon village in a region with a concentration of specific place names could provide crucial evidence for settlement patterns and toponymic development.

Conclusion. In a word, we can say that although building toponymic dictionaries is complex due to linguistic uncertainties, historical limitations, and social influences, important progress is being made. New technologies and teamwork across disciplines are showing real promise. To create resources that are more accurate and all-encompassing, scholars need to embrace both traditional research and creative new techniques.

For toponymic studies to reach their full potential, this fusion of the old and the new is essential. The limits of conventional approaches can be overcome by academics using AI algorithms to trawl through enormous historical archives and combining crowdsourced data with meticulous linguistic analysis. By including the formal etymology as well as the subtle differences in local pronunciation, cultural significance, and changing usage, this kind of integration promotes a more comprehensive understanding of place-name origins. The future's successful toponymic dictionary will ultimately be a dynamic, cooperative, technologically savvy resource that accurately captures the depth and diversity of our linguistic legacy.

Used literature

1. Cameron, K. (1996). English Place Names. Batsford.
2. Clark, Cecily (1992b), ‘The myth of the “Anglo-Norman scribe” ‘, *History of Englishes*. *New Methods and Interpretations in Historical Linguistics*, ed. Matti Rissanen *et al.*

3. Fellows-Jensen, G. (1978). Scandinavian Settlement Names in Yorkshire. Akademisk Forlag.

4. Gelling, M. (1984). Place-Names in the Landscape. Dent.

5. I. N. Gregory and R. G. HEALEY, “Historical GIS: Structuring, Mapping and Analysing Geographies of the Past,” Progress in Human Geography, Vol. 31, No. 5, 2007, pp. 638-653. doi:10.1177/0309132507081495

6. Lilley K D 2011 ‘Urban mappings: visualizing late medieval Chester in cartographic and textual form’; in Clarke C (ed),Mapping the Medieval City (University of Wales Press, Cardiff)

7. Mills A.D. (2011) A Dictionary of British Place-Names. – New York: Oxford University Press.

8. Smith, A.H. (1956). English Place-Name Elements. EPNS.

9. Upton, Clive and Widdowson, John (2006) An Atlas of English Dialect. Second edition. London: Routledge.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA YOZMA NUTQ KO‘NIKMALARINI CEFR DASTUR TALABLARI VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Namangan davlar universiteti doktoranti
Turayeva Guzal Tojidinova
Email:guzalturaeva025@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) dasturi talablari asosida rivojlantirish texnologiyalari yoritilgan. Yozma nutq til o‘rgatish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi va uni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar — interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kollaborativ yozuv uslublari hamda formativ baholash texnikalari muhim o‘rin tutadi. Tezisda CEFR mezonlarining yozma nutqni baholashdagi roli, amaliy qo‘llanilishi va o‘qituvchi tayyorlashdagi ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni qo‘llash zaruratini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: CEFR, yozma nutq, til kompetensiyasi, interaktiv yondashuv, formativ baholash, kollaborativ yozuv, o‘qituvchi tayyorlash, metodika, til o‘rgatish texnologiyalari, til darajalari.

TECHNOLOGIES FOR IMPROVING PRE-SERVICE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS` WRITING SKILLS BASED ON CEFR REQUIREMENT

Annotation: This thesis discusses the technologies for developing the writing skills of future English language teachers based on the requirements of the CEFR (Common European Framework of Reference for Languages). Written speech is evaluated as an essential component of the language teaching process, and modern approaches such as interactive methods, information and communication technologies, collaborative writing styles, and formative assessment techniques play a significant role in its development. The thesis provides an in-depth analysis of the role of the CEFR criteria in assessing written speech, their practical application, and their importance in teacher training. This research substantiates the necessity of applying approaches that align with international standards in the training of English language teachers.

Keywords: CEFR, written speech, language competence, interactive approach, formative assessment, collaborative writing, teacher training, methodology, language teaching technologies, language levels.

ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ТРЕБОВАНИЙ CEFR

Аннотация: В данном тезисе освещены технологии развития письменной речи будущих преподавателей английского языка на основе требований программы CEFR (Общеевропейская компетенция владения языками). Письменная речь рассматривается как важная составная часть процесса обучения языкам, и в её формировании имеют значение современные подходы — интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, коллаборативные стили письма и техники формативной оценки. В тезисе глубоко анализируется роль критериев CEFR в оценке письменной речи, их практическое применение и важность в подготовке учителей. Данное исследование обосновывает необходимость применения подходов, соответствующих международным стандартам, в подготовке преподавателей английского языка.

Ключевые слова: CEFR, письменная речь, языковая компетенция, интерактивный подход, формативная оценка, коллаборативное письмо, подготовка учителей, методика, технологии обучения языкам, языковые уровни.

Ingliz tilini samarali o‘qitish va o‘rganish bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1], [2:3]. Til o‘rgatishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda to‘liq va mustahkam til kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu jarayon ayniqsa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda yozma nutq ko‘nikmalari alohida o‘rin tutadi. Sababi, yozma nutq - bu nafaqat fikrni to‘g‘ri ifoda etish, balki uni mantiqan asoslash, grammatik jihatdan to‘g‘ri qurish, stilistik jihatdan moslashtirish, maqsadga muvofiq tarzda bayon qilish kabi ko‘plab murakkab kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi [7:17].

Bugungi zamonaviy ta’limda bu kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun xalqaro tan olingan metodologik yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ulardan biri bu CEFR (Common European Framework of Reference for Languages – Yevropa tillarining umumiy kompetensiyalariga doir tavsiyalar) dasturidir. Ushbu tizim nafaqat til o‘rgatish, balki uni o‘rganish va baholashda ham xalqaro standart sifatida e’tirof etilgan. CEFR dasturi Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab tillarni o‘qitish, o‘rganish va baholash uchun yagona mezon sifatida qabul qilingan. CEFR til kompetensiyalarini uch asosiy yo‘nalishda baholaydi: og‘zaki nutq, yozma nutq va eshitib tushunish. Har bir yo‘nalishda A1 (boshlang‘ich) dan C2 (professional daraja) gacha bo‘lgan bosqichlar belgilangan.

CEFR yozma nutq kompetensiyasini quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- Aniqlik va izchillik;
- Grammatik to‘g‘rilik;
- Stilistik moslik;
- Funksional foydalanish;
- Matn tuzilmasi va mantiqiy bog‘liqlik;

Bu mezonlar bo‘yicha baholash bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yozma nutqni rivojlantirishda CEFR mezonlaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi uchun bir qator qulayliklar yaratadi [6]. Birinchidan, o‘quvchilar o‘z yozma matnlarini aniq mezonlarga ko‘ra baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘qituvchilar yozma mashqlarni nazorat qilishda tizimli yondashuvni qo‘llay oladi. Bu esa natijada o‘quvchilarda mustahkam yozma nutq kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi [3].

CEFR talablari asosida yozma nutqni rivojlantirishda quyidagi texnologiyalar samarali hisoblanadi:

Interaktiv yozuv texnologiyalari;

AKT vositalari;

Kollaborativ yozuv metodlari;

Formativ baholash texnikalari.

Interaktiv yondashuvlar zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Bu yondashuvlar yordamida o‘quvchilar o‘z yozma ishlarini real vaqtda yaratib, tahlil qilib va tahrir qilib boradilar. Bu esa yozuvdagi xatolarni aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi. Misol uchun, Grammarly, Quillbot, Google Docs kabi ilovalar orqali o‘quvchilar yozgan matnlarini tahlil qilib, takliflar asosida yaxshilashadi [5:217-218]. *Kollaborativ yozuv* esa guruhda ishlash, fikr almashish, birgalikda matn yaratish, o‘zaro tahlil qilish va baholashni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, argumentatsiya va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Formativ baholash doimiy va bosqichma-bosqich baholash jarayonidir. Bu jarayon yozma ishlar orqali o‘quvchilarning holatini aniqlash va ularga teskari aloqa berish imkonini yaratadi [4]. Shuningdek, bu baholash metodi orqali o‘quvchilar o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglab yetadi, mustaqil ravishda o‘z ustida ishlashni o‘rganadi.

Refleksiya ham yozma nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon davomida o‘qituvchilar yozgan matnlari yuzasidan mulohaza yuritadi, ularni baholaydi, xatolarini tahlil qiladi va ularni takomillashtirish yo‘llarini izlaydi. Bu esa yozma nutqni sifat jihatdan yuksaltirishga olib keladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozma nutq kompetensiyalarini CEFR doirasida rivojlantirish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni qo‘llash mumkin:

- Har bir daraja uchun mos yozma topshiriqlarni ishlab chiqish;
- CEFR matn namunalarini tahlil qilish;
- Til funksiyalarini (informatsiya berish, fikr bildirish, bahs yuritish) yozma mashqlarga integratsiyalash;
- Muqobil yozuv uslublari bilan tanishtirish;

Tahliliy va reflektiv yozuv mashg‘ulotlarini tashkil etish.

XULOSA: Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini CEFR dasturi asosida takomillashtirish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ta’lim sifatini yuksaltirish va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. CEFR mezonlaridan foydalanish orqali yozma nutqqa nisbatan tizimli yondashuv shakllanadi, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar, kollaborativ usullar va formativ baholash vositalari esa bu jarayonni yanada samarali tashkil etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boborahmatova, O., & Yugay, E. V. *The role of the CEFR certificate in teaching English in Uzbekistan*. 2021.

2. Tolibjonov, B., et al. *Teaching and learning foreign languages in Uzbekistan. CEFR: learning, teaching and assessment*. IJIE,2020 P: 3.

3. Musoeva, A. (2021). *The implementation of the CEFR in Uzbekistan*. SamSIFL.

4. Galiulina, O., & Otamurodova, Y. *Teaching writing and speaking skills for EFL students with B2 levels at university*. 2020.

5. Zhang, H. et al. *Automated writing evaluation: Toward development of language learners' writing skills*. *Language Testing,* 2019 P: 217–238.

6. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. Cambridge University Press.2011.

7. Richards, J. C., & Renandya, W. A. *Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice*. Cambridge University Press. 2002. P:17

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVChILARINING OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISHGA TA’SIR ETUVChI OMILLAR

Qurbonbayeva Bibijon
Profi University Navoiy filiali
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbari: K.M.Ulug‘murodova f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar hamda nutqning insonlar hayotida qanchalik ahamiyat kasb etishiga oid mulohazalar aks etgan.

***Kalit so‘zlar*:** fonetika, grafika, polilogik, ibtidoiy, nutq, og‘zaki, yozma.

Abstract. This article reflects the factors influencing the development of oral speech in primary school students and the importance of speech in human life.

Keywords. Phonetics,graphics,polylogical,primitive,speech,oral,written.

Jamiyat rivojiga ta’sir ko‘rsatib kelayotgan nutq, aslida, qanday paydo bo‘lganligi, bizning hayotimizda qanchalik ahamiyat kasb etishi bugungi kunning muhim masalalaridan biri sanaladi.

Nutq kommunikativ aloqa kasb etganligi bois jamiyatda insonlarning o‘zaro bir-birlari bilan aloqada bo‘lish ehtiyoji orqali shakllangan. Ibtidoiy odamlarning birlashib, mehnat qilish jarayonida bir-biri bilan muloqot qilish zarurligidan kelib chiqqan nutq ijtimoiy-tarixiy hodisa bo‘lib, u faqat insonlargagina xosligi juda ahamiyatlidir.

Jamiyatning vujudga kelishi jarayonida insonlar orasida eng birinchi taraqqiy etgan nutq polilogik nutq deyiladi. Bu biror bir xavf-xatarli hodisa ro‘y berganda butun jamoaning bir vaqtda ovoz chiqarishi, ya’ni hayajonli nutqi sanaladi. Keyinchalik nutq ham rivojlanib, ikkita katta guruh: jumladan, fonetik-og‘zaki nutq va grafik - yozma nutq shaklida shakllandi.[83]

Nutq insonlar hayotida juda ahamiyatli vosita hisoblanadi va bir qancha muhim vazifalarni bajaradi: biz nutq yordami bilan dunyodagi buyum va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz, ya’ni ularga nom berib aniqlaymiz, nomlarini esda saqlab qolamiz va fikr yuritganda shu buyum va hodisalarni ifoda qiladigan so‘zlar va tushunchalarga suyanamiz. Demak, nutq ham real borliqning in’ikosidir. “Nutq ham, tafakkur ham alohida bir olamni tashkil qilmasdan ular faqatgina haqiqiy hayotning ko‘rinishlaridir”. Masalan,”kitob” so‘zi bilan ma’lum bir tushuncha anglashiladi va bu so‘zni eshitgan har bir kishi uning qanday lug‘aviy ma’no ifodalashini tushunadi. Demak, nutq shunchalik muhimki, hatto biz o‘zimizda kechadigan jarayonlarni ham shu nutqimiz orqali bayon qilamiz. Bundan tashqari, nutq kishilar ongi va qalbiga ta’sir eta olgani bois ta’lim-tarbiya ishining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.[84]

Binobarin, bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida og‘zaki nutqini aniq va ravon ifoda eta olish ko‘nikmalari har doim dolzarb masala sifatida qaraladi. Chunki ular endigina o‘yin faoliyatidan ta’lim olish faoliyatiga o‘tishadi. Bu esa o‘quvchini qirq besh daqiqa bitta joyda qimirlamay o‘tirishi faqat aqliy mehnat bilan shug’illanishi degani. Go‘yoki o‘quvchi yangi bir olamga tushib qolganidek, anchagina qiyinchiliklarga duch keladi. Ammo bu hayotning qonuni va kelajakning poydevorini qurish uchun qo‘yilgan ilk qadamlardir. Bunday vaziyatda o‘qituvchilar ham ancha mehnat qilishlari talab etiladi. O‘quvchilarni yangi vaziyatga ko‘nikishini hosil qilishiga yordamlashgan holda turli xil qiziqarli metodlarni o‘yin tarizda olib borishadi va shu tariqa o‘quvchilarga bilim ham beriladi. Ayniqsa, ularni ko‘proq nutq bilan shug’illanishsa, turli xil ertaklarni, kichik hikoyachalarni o‘qib berib bolajonlarning o‘zidan so‘rashsa, bu ham bir nutqning shakillanishiga yordam beradi. Bu metod bilan birgalikda aqliy mehnatga, fikirlashga undaydigan metodlardan ko‘proq foydalanishsa, maqsadga muvofiq ish bo‘ladi.

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan davrda o‘sib kelayotgan yosh avlodning nutqi rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi bir nechta omillar ta’sir etmasdan qolmaydi, albatta. Xususan:

1.Pedagogik omillar.

[83] Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2008. – B.185.
[84] Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2008. – B 183

-o‘qitish metodikasi: darsda qo‘llanadigan interaktiv metodlar, suhbat, hikoya qilish, rolli o‘yinlar;

-o‘qituvchining nutqi: aniq, ravon va tasirchan nutq bolalarga namuna bo‘ladi;

-darslik va qo‘shimcha materiyallar: nutqiy rivojlanishga xizmat qiladigan badiiy asarlar, ertaklar she’rlar, hikoyalar;

-mashg‘ulotlar: turli-dramalashgan mashqlar, hikoya tuzish, ertak to‘qish, bahs-munozaralar .

2.Oilaviy omillar:

-ota-onalar bilan muloqot: ota-onalar bola bilan ko‘proq muloqot qilsa, uning so‘z boyligi ortadi;

-uy sharoitida o‘qish muhitining mavjudligi: kitoblar, bolalar jurnallari va televizor orqali sifatli kontentning mavjudligi;

-nutq madaniyati-oilada to‘g‘ri talaffuz va boy nutqdan foydalanish.

3.Ijtimoiy-psixologik omillar:

-atrof-muhit va do‘stlar: bola ko‘proq muloqot qilgan sari, nutqi rivojlanadi;

-o‘yin va ijodiy faoliyat: rolli o‘yinlar, teatr sahnalari, hikoya qilish bola nutqini rivojlantiradi;

-mativatsiya va qiziqish-bolaning kitob o‘qishiga va hikoya aytishiga qiziqishi.

4. Biologik va fiziologik omillar:

-Tinglash va talaffuz qobiliyati: eshitish va tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish qobiliyati.

-nutq organlarining rivojlanishi: til, lab, jag‘ harakatining moslashuvi;

-bolaning individual rivojlanish xususiyatlari; ba’zi bolalar tabiiy ravishda tezroq yoki sekiniroq nutq rivojlantiradi.[85]

Shunday ekan, yuqoridagilarni umumlashtirgan holda biz boshlang’ich sinf o‘qituvchilari hamda ota-onalarning bola nutqini rivojlantirishi oldidagi katta bir mas’uliyatini his qilishimiz zarurligi, hamda uning nutqi rivojlanayotgan paytida unga ta’sir qiladigan zararli omillarni bartaraf etishimiz lozim. O‘quvchilar nutqini ko‘proq rivojlantirish uchun turli metodik o‘yinlar hamda, aqlni charhlovchi turli xil boshqotirmalardan foydalanishimiz kerak. Bunday usullardan ota-onalar bilan kelishgan holda ya’ni hamkorlikda kundalik hayotimizda foydalanib boradigan bo‘lsak, o‘quvchilar nutqini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardan xalos bo‘lamiz. Ayniqsa, hozirgi zamonimizda juda ko‘plab ota-onalar logoped sohasiga, ya’ni nutqida nuqsoni bor bolalar bilan ishlovchi shifokorlarga murojaat bilan

[85] Muratova Sh, . Psixologik pedagogika. – Samarqand. Elektron kutubxona.2023. – B. 39.

borishmoqda.[86] Bu esa, albatta, ba’zi bir qo‘shtirnoq ichidagi ota-onalar hamda o‘qituvchilarning befarqligi hamda qo‘rqitish jarayonida bola nutqining rivojlanishiga, ya’ni duduqlanishi, harflarni to‘liq ayta olmasligi kabi kamchiliklarning ko‘payishi bilan bog’liqdir. Bolalar nutqiga ta’sir etuvchi nuqsonlarni oldini olishga o‘z hissamizni qo‘shsak va kelajakda bilimli o‘ziga ishongan farzandlarni tarbiyalasak, vatanimiz oldidagi burchimizni munosib tarzda ado etgan bo‘lamiz. Bu esa naqadar sharafli hamda g‘ururli vazifalardan biri sanaladi. Shunday ekan, biz bunday ishga aslo befarq bo‘lmasligimiz zarurdir. Axir hozir ulg’ayib voyaga yetayotgan farzandlarimiz nafaqat bizning balki vatanimizning ham kelajagi va g’ururi bo‘lishi lozimdir.[87]

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, yuqorida tilga olingan barcha omillar bola nutqining rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada pedagog xodim va ota-onalar hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysalar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bola maktabga kelganda og‘zaki nutqning hamma turlaridan erkin foydalana oladigan bo‘lishi lozim. Bu esa maktabda o‘qish faoliyatini yaxshi o‘zlashtirish uchun muhim hisoblanadi. Bolalarning go‘zal hulqli, didli farosatli, barkamol, bilimli, zukko, jamiyatning har sohasida yetuk mutaxasis bo‘lib kamol topishida ota-onaning o‘rni beqiyosdir.

Xalqimizning taniqli ma’rifatparvar adibi Abdulla Avloniyning “*Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir*”, deb aytgan so‘zlari naqadar o’rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Yoshlar mabuoti, – Toshkent: 2008.

2. Xolnazarova M. Rivojlanish psixalogiyasi O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. – Toshkent: 2018.

3. Shadiyev F.D ‘’Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ijtimoiy –psixologik omillarning ta’siri’’-International Scientific and Practical Conference ‘the Time of Scientific Progress’’ konferensiyasida c hop etilgan. 2023. 4. Nizomiddin M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi – Toshkent: 2009.

5. Shodiyeva Q. Nutq o’stirish uslubiyati. O’qituvchi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: 2008.

[86] Xolnazarova M.”RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2018 – B. 300-600.

[87] Shadiyev F. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik omillarning ta’siri, 2024-yil ‘’International Scientific and Practical Conference ‘The Time of Scientific Progress’’’konferensiyada chop etilgan 2023-yil, 5-avgustda. – B.55-61.

“DEVONU LUG‘AT-IT TURK”NING DUNYO TILLARIGA TARJIMA QILINISHI TARIXI

Parpibayev Botirali Raximjon o‘g‘li
Namangan Davlat Universiteti akademik litseyi
E-mail: botiraliparpiboyev4@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yozilgan buyuk asari — “Devonu lug‘at-it turk”ning dunyo tillariga tarjima qilinishi jarayoni, bu tarjimalarning tarixiy, ilmiy va madaniy ahamiyati yoritiladi. Avvalo, asarning asl nusxasi, uni ilk marta topish va ilmiy muomalaga kiritish bosqichlari haqida ma’lumot beriladi. So‘ngra, asarning arabcha aslidan turli zamonlarda turk, o‘zbek, rus, ingliz va boshqa tillarga qilinadigan tarjimalar tahlil qilinadi. Har bir tarjima yondashuvi, tarjimonning uslubi, tarjimada uchraydigan leksik, semantik va lingvomadaniy muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarjimalarning turkiy xalqlar madaniy merosini o‘rganishdagi o‘rni, ularning ilmiy-amaliy ahamiyati va ta’siri baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima tarixi, turkiy tillar, tarjimashunoslik, leksikografiya, lingvomadaniyat, arabcha matn, tarjima muammolari, tarixiy leksika*

ИСТОРИЯ ПЕРЕВОДА «ДЕВОНУ ЛУГАТ ИТ-ТУРК» НА МИРОВЫЕ ЯЗЫКИ

Аннотация: *В данной статье освещается процесс перевода великого труда Махмуда Кашгари — «Девону лугат ит-тюрк», написанного в XI веке, на мировые языки, а также его историческое, научное и культурное значение. Сначала даётся информация об оригинальной рукописи, этапах её обнаружения и введения в научный оборот. Затем рассматриваются переводы с арабского оригинала на турецкий, узбекский, русский, английский и другие языки в разные исторические периоды. Анализируются переводческие подходы, стилистика переводчиков, а также лексические, семантические и лингвокультурные проблемы, возникающие в процессе перевода. Кроме того, оценивается роль данных переводов в изучении культурного наследия тюркских народов, а также их научно-практическое значение и влияние.*

Ключевые слова: *история перевода, тюркские языки, переводоведение, лексикография, лингвокультурология, арабский текст, проблемы перевода, историческая лексика.*

THE HISTORY OF THE TRANSLATION OF “DEVONU LUGAT-IT TURK” INTO WORLD LANGUAGES

Annotation: *This article explores the process of translating Mahmud al-Kashgari's great 11th-century work Devonu lugat-it turk into various world languages, as well as its historical, scholarly, and cultural significance. It begins with information about the original manuscript, its discovery, and its introduction into academic discourse. The paper then analyzes translations from the Arabic original into Turkish, Uzbek, Russian, English, and other languages across different time periods. Each translation is examined in terms of its approach, the translator's style, and the lexical, semantic, and linguocultural issues encountered. Furthermore, the study evaluates the role of these translations in researching the cultural heritage of Turkic peoples and assesses their academic and practical value.*

Keywords: *translation history, Turkic languages, translation studies, lexicography, linguoculture, Arabic text, translation challenges, historical lexicon.*

Kirish

Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yozgan "Devonu Lug'at-it Turk" asari turkiy xalqlarning til, madaniyat va tarixini o'rganishda beqiyos manba hisoblanadi. Ushbu asarning turli davrlarda turk, o'zbek, rus, ingliz va boshqa dunyo tillariga tarjima qilinishi nafaqat lingvistik balki madaniy va sivilizatsion ahamiyat kasb etadi. Har bir tarjima o'z davrining ilmiy yondashuvlarini, tarjimonning til va madaniyatga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Ushbu maqolada asarning tarjima qilinish bosqichlari, tarjimalar orasidagi o'ziga xosliklar hamda ularning turkiy merosni xalqaro miqyosda targ'ib qilishdagi o'rni tahlil etiladi.

Taxlil va natijalar

Devon tadqiqi va tarjimalari tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ilm-fan olamida ushbu asarni qayta kashf etish oson ish bo'lmagani, uni turli davrlarda dunyoning turli tillariga turli maqsadlarni ko'zlab o'girilganligini ko'rish mumkin. Biroq hozirga qadar asarning jahon adabiyotiga kirib borishi va tarjimalari tarixi muayyan tadrijiy tizimga solingan emas. Bizningcha, asar tadqiqi va tarjima qilish ishlari tarixini quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

1. Devon yaratilgan XI asrdan boshlab XX asr boshlarigacha bo'lgan dastlabki davri;
2. XX asr boshlari va XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan tarjimalar davri;
3. XXI asr boshidan boshlab hozirgi paytga qadar amalga oshirilgan tarjimalar davri;

Devon yaratilgan XI asrdan so'ng, turli hattotlar tomonidan turli yozuvlar asosida ko'chirilgan. Xususan, devonning hozirda yagona deb hisoblangan nusxasi

kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy tomonidan Mahmud Koshg‘ariy dastxatidan 1266-yillarda uyg‘ur yozuvi asosida ko‘chirilgan. Garchi Devon yaratilgan davri va undan keyingi davrlarda buyuk olimlar tomonidan mutolaa qilingan va ma’lum miqdorda o‘rganilgan bo‘lsa-da, u haqida o‘rta asrlarda yozib qoldirilgan manbalar juda kam. Ayniqsa, ushbu noyob yozma yodgorlikning 800 yillar davomida ko‘pchilikni e’tiboridan chetda qolib kelishi ilmiy jihatdan achinarli hodisadir. Devonni tahlil qilar ekanmiz, bu bo‘yicha o‘z taxminlarimizni aytib o‘tishni joiz, deb bildik.

Birinchidan, garchi Devon arabiy tilda bitilgan bo‘lsa-da, uning ma’lumotlarining asosiy qismi, xususan, asar asosini tashkil etgan xalq og‘zaki ijodi namunalari turkiy tilda edi. Ammo bu davr turkiy til hali u qadar taraqqiy etmagan, turkiy tilda asarlar bitish yo‘lga qo‘yilmagan, turkiy tilini puxta biladigan olim-u fuzalolar juda kamchilikni tashkil etgan davr bo‘lganligi sababli Devon tadqiqi bir necha asrlar keyinga surilgan. Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda ilm-fan tili arab-fors tili hisoblangan.

Ikkinchidan, turkiyzabon xalqlarga nisbatan bosqinlarning ko‘p uyushtirilganligi, bosqinlar davomida eng avval tilni mukammal biluvchi, bilimdon qatlamni qirib tashlash o‘sha davrlarning siyosiy taktikasi bo‘lganligi sababli bilimli kishilarning kamayib ketishi ham ushbu masalaning yana bir omili bo‘lgan.

Uchinchi, yirik omil esa Devon o‘zida jamlagan ma’lumotlarning noyobligi bilan keskin bog‘liq. Ma’lumki, Devon faqatgina ilmiy asar bo‘lmasdan, butun boshli Turkiy qabila va urug‘larning til tiynati, madaniy hayoti, urf-odat, an’ana va kundalik turmush tarzi, adabiyoti, kasb-kori, umuman, o‘tmishini o‘zida jamlagan nuyuk qomusiy va tarixiy asardir. Devon turkiy xalqlarning 18 asrlik lisoniy, tarixiy, siyosiy-ijtimoiy, geografik, folkloristik, mifologik, etnografik, lingvokulturologik ma’lumotlarining sarchashmasi hisoblanadi. Chunonchi, asarda turkiy xalqlarning ijobiy fazilatlaridan tashqari, jang usullari, yigitlarining bahodirligi, siyosiy taktikalari haqida so‘zlar ekan, Koshg‘ariy asar muqaddimasida: “turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi” kabi yuksak bahoni beradi. Ayni shu sababli ham asar turkiy xalqlarga dushman kimsalar va bosqinchilar tomidan berkitilgan va yo‘q qilishga harakat qilingan bo‘lishi asosli taxmindir.

To‘rtinchidan, yana bir asosli omil sifatida aytishimiz mumkinki, Devon bitilgan davr XI asr bo‘lib, uning yaratilmish tili, ya’ni qadimgi turkiy til vaqt o‘tgani sari o‘zgarib borgan va uning mazmun-mohiyatini tushunish uchun qadimgi turkiy lug‘at yaratilmog‘i lozim edi. Bunday lug‘at esa 1533-yilgacha yaratilmagan. [1, 256 b] Bu esa asarning O‘rta asrlargacha deyarli tadqiq qilinmaganligidan dalolat beradi

Biroq “Devon”ning oltinga teng sahifalari vaqtlar o‘tib, haqiqiy ilm-fan kishilari qo‘liga yetib bordi, xususan, XIV asrda yashab ijod etgan qashqarlik olim ibn Muhammadning “Toj-ul-sayohat” kitobida, shuningdek, andaluslik arab va turk tillarining bilimdoni Abu Hayyonning “Kitob-ul idrok” asarining bir qancha joyida “Devonu lug‘ot-it turk”dan aynan ko‘chirilgan misralar va havolalar uchraydi. O‘rta asr Sharq olimlaridan biri Badruddin al-Ayniy ham o‘zining 1422-yilda yozilgan “Ixtiljumon fi-tarixi ahli zamon” nomli kitobining “Turk qavmlari qissasi” bobida “Devon”ning ba'zi parchalaridan aynan foydalanganini quyidagi so‘zlari bilan izohlaydi: “Men bularni Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”ida ko‘rdim”. Ba'zi taxminlarga ko‘ra, “Devon lug‘at at-turk” Istanbulga 1517-yilda Mamluklar davlati qulagandan keyin kelgan degan fikrlar mavjud. Bu esa “Devon”ning ilm-fan kishilari orasidan tanilishiga turtki bo‘ldi. Ayniqsa, XVII asrning mashhur sharqshunosi, arablarda Hoji Xalfa, turklarda esa Kotib Chalabiy taxallusi bilan tanilgan olim o‘zining Sharqdagi mashhur shaxslarning biografiyasi va qilgan ishlarini bayon etuvchi qomusiy xarakterdagi “Kashf-uz-zunnun” (“Kishi ismlarining ma’nosini ochish) nomli asarida Mahmud Koshg‘ariy va uning asari haqida ma’lumot berib, shularni yozadi: “Muhammad bin Husayn ibn Mahmudning “Devonu lug‘oti-t-turk” bir jilddir… Asarni arabcha izoh etgan. Turk tilining 18 harfi izohlangan. Asarni Muqtadiy bin Amirilloh o‘g‘li Abulqosim Abdullohga hadya etgan. Kotib Chalabiyning “Kashf-uz-zunnun” asarida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” asari Yevropa olimlari yaratgan ilmiy tadqiqotlarda ham tilga olina boshladi. Masalan, 1904-yilda Vengriya Fanlar akademiyasining til bo‘limi nashr etgan to‘plamlardan birida XII-XV asrlar davomida turkiy tillarda bitilgan asarlar bibliografiyasida “Devonu lug‘at-it turk” ham tilga olingan. XX asrdan oldin ushbu asar haqida boshqa eslatmalar yo‘q. XX asr boshlarida “Devon” qo‘lyozmasi Vani Ogullari (hozirgi Turkiyalik) Nazif Poshoga tegishli bo‘lib, keyinchalik u kitobni o‘z qarindoshiga bergan. 1914-yilda kitob Istanbul kitob bozorida mashhur bibliofil Ali Amiriyga sotilgan. Shundan qilib, asar bitilgan davrdan boshlab, 1914-yilda qayta kashf etilgunicha uni chuqur tahlil yoki tarjima qilgan tilshunos olimlar mavjud emas, tahlil qilingan bo‘lsa-da, bu bo‘yicha ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Demak, ushbu dastlabki davr Devon qo‘lyozmasining taqdiri haqida hikoya qilib, XX asrgacha jahon olimlarining Devonga bo‘lgan ilmiy munosabatini o‘z ichiga oladi.

Devonni haqiqiy jaxongashta qilgan davr esa yuqorida keltirilgan ikkinchi davrga to‘g‘ri keladi. Amiriy asarni topgan vaqtda “kitobning muqovasi chirigan, ustki qismi titilib ketgan, varaqlari qorishgan, boshi, so‘ngi o‘qib bo‘lmas darajaga yetgan. Sahifalarining raqami yo‘q. Kitob yakunlanganmi, yo‘qmi? Tartib berish

imkoni bormi?” ekanligi ham noma’lum edi. [2, 56] Kilisli Rifat asar tahriri ustida bir necha oylab ishlaganini aytib shunday dedi: “Ikki oycha muntazam ravishda bir necha soatdan shug‘ullandim. Kitobni uch marta o‘qib chiqdim. Varaqlarini bir yerdan olib, ikkinchisiga qo‘ydim. Mos kelmadi. So‘zlarning o‘qilishiga, bahsning davomiga qaradim. Xullas, ishlay-ishlay kitobga tartib berdim. Sahifalariga raqam qo‘ydim”. [2, 78] Shundan so‘ng, 1915-1917- yillarda matnni ilk bor tahrir qilib, bosma nusxaga tayyorlagan. U ayrim o‘chgan harflarni, so‘zlarni tiklagan, shu bilan birga ikki xil harakatlangan harflarning bir variantini tanlab, ikkinchisini matnga kiritmagan, ularni qo‘lyozma ko‘chirilishida qilingan xatolik deb o‘ylagan va bu bilan qo‘lyozma xususiyatlarini o‘zgartirib yuborgan, biroq aslida ushbu belgilarning baravar kelishi so‘zlarning turli shevalardagi ko‘rinishlari hisoblangan, misol uchun, сэвук/севик va бэк/бек kabi so‘zlar bir so‘zning turli variantlari edi. Bundan tashqari, Rifat asarning arab tilidagi matnini turkchaga tarjima qilinmagan. Shu kabi ba’zi xatoliklarga qaramay, butun turkologiya asarni shu nashr asosida tanigan, 1982-yilgacha e’lon qilingan ilmiy nashrlar, jumladan, nemis, turk, o‘zbek tilidagi nashrlarga ham aynan Rifatning bosmasi tayanch bo‘lgan.

Shundan so‘ng, nemis tilshunos olimi Karl Brokelman 1920-yilda Koshg‘ariy haqida asar yozib, bu asarni “Devonu lug`at-it turk”dan olingan ayrim so‘zlar, ism va joy nomlarining ro‘yxati bilan birgalikda kitob shaklida nashr ettiradi, bu kitobga nemischa so‘zboshi ham yozib, unda Koshg‘ariy shaxsiyati haqida bayon qilinadi. K.Brokkelmanning “Devonu lug‘at-it turk”ning til va adabiyot uchun ahamiyati haqida yozgan ko‘plab ilmiy-ommabop maqolalari, jiddiy ilmiy tadqiqotlari G‘arbiy Yevropada Mahmud Koshg‘ariyning keng jamoatchilikka tanitishda ijobiy rol o‘ynaydi. Shundan keyin Brokkelman 1928-yilda asar tarjimasini yakunlab, uni “O‘rta turkiy til lug‘ati” deb nomlaydi. Biroq ushbu tarjimani Devonning mukammal tarjimasi deb bo‘lmas edi, chunki bu tarjimada asosan Devondagi lug‘atlar va ularning nemischa tarjimasiga urg‘u berilgan edi, xolos.

Tarjima xususida gap borar ekan, 1939-41-yillarda B.Atalay tomonidan usmonli turk tiliga qilingan tarjima devonni keng ommaga, butun dunyo ilmiy jamoatchiligiga tanitishda muhim rol o‘ynadi. Chunonchi, bu ishdagi eng muhim jumboq devon bitilgan yozuv sirini ochish edi. B.Atalay esa buni muvaffaqiyat bilan ado etdi. Asarning aynan turk adibi va olimi, professori, "Turk tili jamiyati"ning asoschilaridan biri hisoblangan, usmonli turk tili tarixi, leksikologiyasi, morfologiyasi, sintaksisiga oid kitoblar yozgan, turk xalqi og‘zaki ijodi namunalari haqida bir necha marta tadqiqot olib borgan Atalay tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi devonning keyingi o‘rinlarda bajarilgan barcha

istiqbolli tadqiqotlariga turtki berdi. Chunonchi, G‘.Salomov ta’kidlaganidek, tarjima “zuryodiylik” (matn tug‘dirish) xususiyatiga ega. Asarning nemis, o‘zbek, ingliz va rus tillariga qilingan yirik tarjimalari ham B.Atalay tarjimasiga muqoyasa qilingan holda o‘girilganligi ayni shu so‘zning isbotidir. Bugungi kunda ushbu tarjima devonning birinchi va nisbatan mukammal tarjimasi deya hisoblanadi, chunki Atalay garchi devonni Rifat nashri asosida tarjima qilgan bo‘lsa-da, 1941-yil o‘z tarjimasini nashrga berishdan, avval, qo‘lyozmaning ilk faksimile nusxasini tayyorlashga ruxsat olgan. Bu esa Atalayga asarning asliyatini tahlil qilishdek buyuk imkoniyatni bergan. 1943-yilda B.Atalay devonning indeksini nashrdan chiqargan, 1957-yilda esa o‘z tarjimasiga tuzatishlar kiritib qayta tahrirlagan.

Shu o‘rinda, dastlab, “Devon”dan bir necha she’rlarni rus tiliga tarjima qilib, o‘zining “Qadimgi turkiy yozma adabiyot namunalari” asariga kiritgan S.E.Malov 1951-yilda Devonning salmoqli qismini o‘z ichiga olgan “Qadimgi turkiy yozma adabiyoti yodgorliklari” nomli asari orqali “Devon” tarjimasiga o‘zining katta hissasini qo‘shadi.

O‘zbek tiliga esa “Devon” ilk bor 1927-yilda Abdurauf Fitrat tomonidan tarjima qilingan. Biroq bu nashr asarni to‘liq shakli bo‘lmay, Fitrat faqat turkiy badiiy parchalar, masnaviy va to‘rtlik shaklidagi folklor namunalarini o‘zbek tiliga o‘girgan. Ammo Fitrat tarjimasining yutug‘i shunda ediki, Fitrat “Devon”da berilgan to‘rtliklarni shunday olib mazmun, qofiya mosligiga qarab jamlab qo‘ymagan, balki ayrim kichik satrlarni boshqa-boshqa sahifalardan olib, birlashtirib, yangi to‘rtlik yasagan. Keyin yana xuddi shunday yaralgan boshqa to‘rtliklar bilan bir turkum ostida jamlagan. Har bir tizimlashtirilgan doston, marsiya va qo‘shiqlar rim raqamlarida, tarkibidagi uzindilar esa arab raqamlarida tartiblangan. Shuningdek, Devon matni sahifasi va jildi ham o‘rnida qo‘yib borilgan. Namuna matnidan keyin talqin va ba’zi so‘zlarning lug‘ati keltirilgan. Shu o‘rinda Fitratning adabiyotshunoslik mahoratini keltirib, shuni ayta olamizki, Fitrat K.Rifat yo‘l qo‘ygan ba’zi xatoliklarni ham payqagan. Garchi, boshqa ko‘plab tarjimon olimlar singari Fitrat ham asarning asl nusxasiga emas, bosma nusxasiga asoslangan bo‘lsa-da, u she’rlarning arab tilidagi talqiniga va matnni o‘zlashtirish ko‘nikmasiga binoan so‘zlarning originalini aytib bera olgan. Xususan, Okräyukï… so‘zi bilan boshlanuvchi to‘rtlikdagi tikdağ so‘zi qo‘lyozmada tildağ bo‘lishi kerakligini ta’kidlab, asos keltiradi. Aytish o‘rinliki, bosma nashrdagi bu xatolikka B.Atalay ham (tegdağ), S.Mutallibov (tәndağ) ham e’tibor qaratmagan. Qo‘lyozma bilan chog‘ishtirilganda Fitratning mulohazasi (tïldağ) to‘g‘ri ekani aniqlangan. Ammo Devonning to‘liq o‘zbekcha tarjimasi asarga 35 yillik umrini bag‘ishlagan S.Mutallibov tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu nashr faqatgina tarjima bo‘lmay, S.Mutallibovning turkcha tarjimaga

nisbatan munosabati, turkcha tarjimadagi muvaffaqiyat va kamchiliklar, atama, shaxs nomlariga batafsil izoh va tafsir keltirilgan noyob risola hamdir. Muqaddima qismida S.Mutallibov 11-asr filologlari, «Qutadg‘u bilig» asari, Mahmud Koshg‘ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, turkiy tillarning hozirgi turkiy xalqlar va ularning tillariga munosabati, tarjima transkripsiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar berib, asar xususiyatlarini to‘la ochib berish va zarur qismlarini izohlash bo‘yicha nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish yuritish lozimligini ta’kidlaydi. Ayni so‘zlarning isboti sifatida, S.Mutallibov “asarning butun xususiyatlarini to‘la ochib berish” maqsadida G‘.Abdurahmonov bilan hamkorlikda har bir jild asosida indeks-lug‘at tuzib, unga Devonda uchragan barcha turkiy so‘zlarni alifbo tarzida o‘zbek va rus tillarida keltiradi va har bir so‘zning qaysi betlarida uchrashini oldin o‘zbekcha, so‘ng turkcha nashrlarining beti, satri aniq ko‘rsatib o‘tadi. S.Mutallibovda Devonning asliyatidan foydalanish imkoni bo‘lmagani uchun o‘z tadqiqotini Atalayning turkcha tarjimasiga qiyoslaganini izohlab, shunday deydi: “Biz o‘z tarjimamizni Basim Atalay nusxasiga solishtirib katta foyda oldik”. [3, 33] Biroq bu ma’lumot so‘nggi tadqiqotlarda S.Mutallibov nashriga B.Atalay bilan deyarli bir xil yozilgan kabi noto‘g‘ri fikrga asos bo‘lolmaydi. [4, 1120] Chunki Mutallibov nashrida B.Atalay izohlari aynan ko‘chirilmay, ularga munosabat ko‘rinishida bo‘lib, bir necha o‘rinlarda o‘zbek adabiy tili, dialektlari, Navoiy davrida qo‘llanilishi doirasidagi misollar bilan chog‘ishtirib borilgan. Solih Mutallibovning tarjimasi va talqinidagi o‘zbek tilidagi ilk nashri (1960-1963-yillar) dunyo miqyosida uchinchi, Osiyo davlatlarida birinchi marta amalga oshirilgani bois ko‘p yillar butun mintaqa uchun yagona tadqiqot manbai bo‘lib xizmat qildi.

Biroq ”Devon”ning haqiqiy jahongashta asarga aylanishi va ilk turkiy obida sifatida chorak asrdan beri nafaqat okean ortida, balki ko’plab inglizzabon mmlakatlar kitobxonlari qalbidan joy olish uning 1982-85-yillarda “Diwanu Lugati’t-Turk” (“Compendium of the Turkic Dialects”) nomi ostida jahon tillaridan biri hisoblangan ingliz tiliga tarjima qilinishi bilan keskin bog‘liqdir. Chikago universiteti turkshunos olimi Robert Denkoff o‘zining dastlabki tadqiqot ishi devon haqidaligini qayd etar ekan, unda tilshunos e’tiborga olishi zarur bo‘lgan ikkita asosiy omil borligini ta’kidlaydi. “Birinchisi – matnni tushunish, albatta bu oson ish emas. U qadimgi turkiy tilda bitilgan va o‘ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Ikkinchisi esa tarjima uchun ingliz tilida munosib so‘zlarni topishga harakat qilishdir. Men tarjimada tilning poetik tabiatini ham gavdalantirishimga to‘g‘ri keldi… Shuning uchun, men 11-asr Markaziy Osiyoning turk she’riyati matnidagi ruhiyatni zamonaviy ingliz tilida aks ettirishga harakat qildim”. [5, 68]

Turkiy nazm va adabiyot oshnosi bo‘lgan, lotin, arab, fors, turk, nemis, fransuz tillarini mukammal o‘rgangan Denkoff devonni asliyatiga monand ravishda maromiga yetkazib tarjima qildi. Denkoffning o‘zi bayon etishicha, u devon tarjimasida B.Atalay tarjimasiga tayandi. Mutaxasisligi turkshunos bo‘lgan, Turkiyada bir necha yil ishlab, turk tilini yaxshi bilgani bois, Denkoff B.Atalayning tarjimasida bir qancha kamchiliklar va zaif jihatlar borligini qayd etib o‘tadi. Shuningdek, Denkoff bergan intervyusida “Aslida, men butun boshli asarni do‘stim, Jeyms Kelli bilan birgalikda tarjima qildim” [6, 85] deya ta’kidlaydi. Shuningdek, Denkoff umuman bir-biriga o‘xshamagan turli til oilasi vakillari hisoblangan ingliz, arab va turkiy tillarda mutarjimlik ishlarini olib borar ekan, bu ish anchagina qiyin kechganini ta’kidlab, shunday deydi: “Arab tili o‘zi boy til hisoblangani uchun, tarjima jarayoni juda qiyin kechdi. Garchi lug‘atda grammatik atamalar, noodatiy terminlar ko‘p bo‘lsa-da, bularning barchasi anchagina oson edi. Ularda sirli hech narsa yo‘q edi. Tarjima qilish jarayoni esa sinchkovlikni talab qilardi va bu mening keyingi bajargan barcha tarjimalarimda yaxshigina mashq vazifasini o‘tagan”. Darhaqiqat, “Devon”dan keyin o‘z tarjimonlik ishini aynan “Devonu lug‘ot it-turk”ning zamondoshi hisoblangan “Qutadg‘u bilig”da davom ettirar ekan, ushbu asarning ingliz va o‘zbek tarjimalari yuzasidan qiyosiy tahlil olib borgan Q.Sidiqov, “Qutadg‘u bilig”ning nemischa va inglizcha tarjimalarini o‘zaro muqoyasa qilgan tarjimashunos olim Z.Sodiqovlar R.Denkoffning tarjimonlik mahoratlari va tarjimada qo‘llagan tamoyillari haqida bir necha iliq fikrlarni, xususan, asar tarjimasini zamonaviy til bilan mahorat ila qayta yaratganligini e’tirof etadi. Qadimiy tilda bitilgan asarni zamonaviy tilda tahlil qilmoq uchun esa tarjimon tarjima qilinishi zarur bo‘lgan asarni yetarlicha o‘rgangan bo‘lishi lozim, albatta.

“Devon”ni tahlil va tarjima qilishning ikkinchi davri “Devon” nusxalarining jahonning turli nuqtalariga tarqalishi bilan izohlanib, “Devon” sirini jahon ilm-u ma'rifatiga to‘laligicha ochib berish ushbu davrning oliy maqsadi edi. XX asrning o‘zidayoq asar turk, o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, ozarboyjon, ingliz, nemis, rus, xitoy va boshqa tillar (jami 18 tilda 22 marta to‘la va qisman tarjima qilingan) da chop etilgan. Bu davrdagi tarjimalar asosan jahon turkologiya fanining shakllanishi uchun turkiy qo‘lyozmalardan foydalanishni maqsad qilgan edi.

Uchinchi davr, XXI asr boshidan hozirgi vaqtgacha davom etgan tarjimalar davridir. Ushbu davrda A.M. Auezova tomonidan 2005-yilda o‘girilgan ruscha nashr, albatta, eng muhim va e’tiborga molik asarlardan biri sifatida ajralib turadi. Bu nashr "Devon"ning arabcha asl nusxasidan olingan ilk to‘liq tarjima bo‘lib, tarixiy ahamiyatga ega. Tarjima bir jilddan iborat bo‘lib, 1281 sahifani o‘z ichiga oladi. Muqaddima qismida Auezova tarjima jarayonida to‘plagan barcha

ma’lumotlarni, jumladan, Devon qo‘lyozmasining qayta kashf etilishi bilan bog‘liq xrestomatik ma’lumotlar, asarning avvalgi tarjima nashrlari to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlar, shuningdek, Devonning yaratilish maqsadlari, Koshg‘ariy shaxsiyati va ijodi, XI asr musulmon olamiga nisbatan turkiylarning qarashlari kabi masalalarni keltirib o‘tadi. Auezova tomonidan qilingan ushbu tadqiqot asarni avlodlarga asliyaticha yetkazish yo‘lida amalga oshirilgan yirik ishlardan biri bo‘ldi. Shundan so‘ng, asarni yanada chuqurroq tahlil va tabdil qilish maqsadida tarjima jarayonida Devonning faksimile nusxalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Chunonchi, faksimile nusxalardan foydalanish tadqiqotlarning sifati va ishonchliligini yanada yaxshiroq ta’minladi. Buning dalili sifatida qo‘lyozmaning sifatli faksimile nusxalari asosida bajarilgan tadqiqotlar bilan bosma nashr asosida qilingan tadqiqotlar, xususan, matnning ilk o‘zbek tilidagi nashrlarida qo‘lyozma bilan ma’lum tafovutlar borligi sezilmoqda, xususan, olima Z.Sattorova o‘zining tadqiqotda o‘zbekcha nashrlarni muqoyasa qilar ekan: “Biz o‘zbek tilidagi nashrlarni o‘zaro qiyoslaganimizda, 3000 ga yaqin matniy tafovutlarga duch keldik”, deya ta’kidlaydi.

Asarning Mutallibov tomonidan qilingan o‘zbek tilidagi nashri ikki marta qayta tahrirlanib, 2016-yilda Alibek Rustamov, Hamidulla Boltaboyev, Baxtiyor Isabekov hamda 2017-yilda Qosimjon Sodiqov tomonidan nashrga tayyorlandi. Biz o‘zimiz maqollar konsepsiyasini tahlil qilishda Q.Sodiqov nashriga asoslanganimiz tufayli, quyida Q.Sodiqov nashri haqida biroz so‘z yuritishni ma’qul deb topdik.

Ushbu ishga Q.Sodiqov 11 yillik mehnat qilganini tilshunos R.Alimuhamedovning quyidagi so‘zlaridan bilib olishimiz mumkin. “Domla Qosimjon Sodiqovning ayni kitob ustida o‘n bir yildan buyon ter to‘kib mehnat qilayotganliklarining shaxsan guvohiman”. [7, 122] Ushbu nashr bitta jilddan iborat bo‘lib, hozirgacha 2000 nusxada chop etilgan. Nusxa krill alifbosida bosilgan va 482 sahifadan iborat. Tahlillarga asosan, 7596 ta so‘z izohlangan, badiiy namunalarning umumiy hajmi esa 243 ta (856 misra) ni tashkil etadi. Maqollar va hikmatlar soni esa yuqoridagi tahlillarimizga, asosan, 350 tani o‘zida jamlaydi. Shuningdek, ushbu nashrda o‘zigacha bo‘lgan nashrlarda tushirib qoldirilgan qo‘lyozma buyurtmachisining so‘zboshisi hamda sakkizta so‘z-maqola tiklangani isbotlangan.

Bir so‘zda bir nechta harakatlarning qo‘llanilishini izohlar ekan, Q.Sodiqov matnning bu xususiyatini aynan kotibning qalamidan chiqqani, u matnni xato ko‘chirishi mumkin emasligini, balki Mahmud Koshg‘ariy so‘zning dialektal variantini ko‘zda tutganini ta’kidlaydi va nashrga ikki variantni ham kiritadi. *Tïqildi / taqïldï – et šïšqa tïqïldï / täqïldï – go‘sht six va boshqa narsalarga taqildi* (Q.S.246-b).

Q.Sodiqov to‘rtlik, she’riy parcha, maqol, hikmatli so‘zlar avvaliga *shoir aytadi*, *maqolda shunday kelgan*, *donishmand aytadi* kabi jumlalarni qo‘yish orqali ularning janr xususiyatlariga aniqlik kiritadi (Bu haqida ikkinchi bobda aniqroq fikr yuritilgan).

Ushbu turkiy obidani avlodlarga to‘liq va asliyaticha yetkazish ishini Q. Sodiqov muvaffaqiyat bilan ado etdi, mazkur mehnatining mukofoti sifatida esa 2021-yilda ushbu kitob jahon hamjamiyatida e’tirof etilib, Turkiyaning Istanbul shahrida Turkiy Kengash tomonidan chop ettirildi. Kitob taqdimoti Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Turkiy kengash kotibiyati, Istanbul va Marmara universitetlari hamkorligida tashkil etilgan “Mahmud Koshg‘ariyning ilmiy merosi va uning uchinchi mingyillik turkologiyasi rivojidagi o‘rni” mavzuidagi xalqaro konferensiya doirasida Turkiyaning eng nufuzli Istanbul universitetida o‘tkazildi. Taqdimotda biz yuqorida sanab o‘tgan bir necha foydali jihatlari sanab o‘tilgani holda, “Devon”ning yangi nashrni quyidagicha e’tirof etdi: “Asarning yangi nashri shu choqqacha yaratilgan o‘zbekcha, qolaversa, turkologiya dunyosida amalga oshirilgan boshqa nashrlardan ajralib turadi. Kitobda kirish, “Devonu lug‘ati-it turk”ning to‘liq matni, shuningdek, asarda ishlatilgan arabcha grammatik atamalarning izohi va Mahmud Koshg‘ariy keltirgan Yer yuzi xaritasining o‘qilishi hamda talqini keltirilgan. Asarning yangi nashri mutaxassis olimlarga mo‘ljallab yaratilgani bilan ahamiyatlidir. Kitobdan filologlar, tarixchilar, manbashunoslar va boshqa fan tarmog‘i kishilari o‘z ilmiy izlanishlarida foydalanishi mumkin”. Demak, ushbu davr tarjimashunoslikning matnshunoslik bilan birgalikda taraqqiy topishi va ilm-fan jamiyatiga ishonchli, sifatli va asliyatiga to‘g‘ri tarjimalar taqdim etayotgani bilan xarakterlidir.

Xulosa

Yuqorida zikr qilinganidek, “Oy xonimlari” romanida qishloq ayollarining hayot yo‘llari qalamga olingan. Asarda ularning qismati, his-tuyg‘ulari, orzu-maqsadlarini chuqur tahlil qilishga nihoyatda kuchli e’tibor berilgan. Bundan tashqari, romanda Ummon sultonligidagi ijtimoiy, siyosiy sharoitlarga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi. Romanda o‘tmish va bugun o‘ziga xos uyg‘unlikda ifodalangan. Shu bilan birga, asarni sinchiklab o‘rganish davomida, uning tarkibida vaqti-vaqti

bilan Ummon sultonligidagi an’analar, urf-odatlar va udumlarni ham uchratish mumkin. Bundan tashqari, asar bilan tanishish davomida Ummon sultonligidagi qullar tabaqasi haqida ham ma’lum tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin. Ularning o‘z xojalari bilan, xojalarning esa o‘z qullari bilan munosabatlari muallif tomonidan haqqoniy tasvirlangan.

“Oy xonimlari” nihoyatda keng qamrovga va rang-barang mavzu ko‘lamiga ega. Asarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin. Jumladan, romanda qizlarning tarbiyasiga e’tibor, ularni turmush hayotiga tayyorlash masalalariga jiddiy yondashilganligini ko‘rish mumkin. Joxa al-Harisiy ayollarning his-tuyg‘ulari va orzu-o‘ylarini shu qadar haqqoniy tasvirlaydiki, roman bilan tanishgan kitobxon goh ular bilan birga g‘amga botadi, goh ularga qo‘shilishib yig‘laydi.

Romanni sinchiklab o‘rganish davomida, uning boshqa romanlardan rang-barang va o‘ziga xos hikoya tarzi bilan farqlanishiga ham guvoh bo‘lish mumkin. Albatta, asardagi ushbu unsur ham unga chinakam hayotiylik baxsh etgan. Aynan shu jihat kitobxonning voqealar ketma-ketligini hech bir og‘ishishlarsiz kuzatib borishga undaydi.

Yuqorida zikr qilinganidek, roman voqealari Ummonning Avafi qishlog‘ida sodir bo‘ladi. Asar bevosita bosh qahramonlardan biri bo‘lgan Maya obrazini kitobxonlarga tanishtirishdan boshlangan. Mayadan so‘ng Abdulloh va boshqa personajlar ham o‘qiguvchiga birin-ketin tanishtiriladi. Shu tarzda qahramonlar tarkibi kengayib boradi. Azzon, Najiya, London, Ahmad, Zarifa, Habib va Sanjar kabi obrazlar shular jumlasidandir. Muallif bu qahramonlar orqali qullik, siyosiy va shu bilan birga tarixiy vaziyatlar, urush kabi mavzularni qalamga oladi.

Romanda Ummonning Avafi qishlog‘i tartibsiz va tarqoq bir tarzda tasvirlangan. Zanjirsiz qullar, darz ketgan va buzilgan qarindoshlik rishtalari, shafqatsiz an’analar ostida ezilgan kishilar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, “Oy xonimlari”da turfa xil e’tiqodga mansub bo‘lgan bir qancha personajlarning bir joyda to‘planishi va ularning boshqa kishilarni o‘z e’tiqodlariga da’vat qilishga urunishlari romanning keng jamoatchilikning ulkan shov-shuvlariga sabab bo‘lgan.

Roman davom etar ekan, muallif qul va xo‘jayin kabi turli ijtimoiy tabaqa vakillarini keltirish orqali voqealar tarmog‘ini kengaytiradi va boyitadi. Albatta, bu Ummon hayotida yuz bergan tabaqalashtirish va sinflarga ajratish kabilarga yaqindan guvoh bo‘lish imkonini beradi. Qullar mavzusi romanda asosiy mavzu bo‘lmasa-da, Afrika sohillaridan kemalar orqali olib kelib sotilgan va yo‘llardagi qaroqchilarning zulmiga duchor bo‘lgan odamlar hayoti tilga olinadi. Bu orqali Joxa al-Harisiy Ummon jamiyatda yuzaga kelgan qarama-qarshilik, kishilar orasidagi tafovut va qullikning shavqatsiz ko‘rinishlarini ham qalamga oladi.

Muhokama. “Oy xonimlari”da jamiyatning kundalik turmush tarzi, ilmsizlik, shu bilan bir qatorda, og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurgan afsonalar ham berilgan. Bu afsonalar o‘z navbatida roman qahramonlarining ruhiyati, his-tuyg‘ulari va tasavvur olamlarini yoritib berishga xizmat qilgan.

Romanning markaziy qahramonlari – Maya, Asma va Xavla yoshlikdan birga ulg‘aygan uch opa-singil. Asarda ular Ummon sultonligiga qarashli Avafi qishlog‘ida yashaydilar. Bu uch opa-singilning onasi Salima otalari vafotidan so‘ng, amakisi Saidning uyida qolishga majbur bo‘ladi va keyinchalik uning qistovi bilan istamagan holda Azzanga turmushga chiqishga majbur bo‘ladi.

Asar qahramonlaridan biri Maya. Bu qiz romanda mahoratli tikuvchi sifatida gavdalangan. U Londonga o‘qish uchun borgan, ammo o‘qishni tamomlamay ortga qaytib kelgan. Uning qalbida qishlog‘ida yashovchi Aliga nisbatan g‘oyibona muhabbat bor. Romanning voqealar rivoji davom etar ekan, markazga yana bir qahramon Abdulloh kirib keladi. U Avafi qishlog‘ining eng boy va ko‘zga ko‘ringan savdogarining o‘g‘li bo‘lib, Mayani ilk ko‘rishdayoq sevib qoladi. Abdulloh Mayaga sovchi qo‘yadi. Maya Aliga chin dildan oshiq bo‘lsa ham, bu nikohga rozi bo‘ladi. U to‘ydan so‘ng Abdulloh bilan birga uning uyida yashay boshlaydi. Ularning London ismli bir qizi farzandi va Salim, Muhammad ismli ikki o‘g‘il farzandlari bo‘ladi.

Abdulloh onasidan erta judo bo‘ladi. Unga otasining qullaridan biri bo‘lgan Zarifa onalik qiladi. Zarifaning xojasi uni o‘z quli bo‘lgan Habibga turmushga beradi. Ularning Sanjar ismli bir o‘g‘il farzandlari bo‘ladi.

Roman davom etar ekan, voqealar rivojiga yana bir qahramon Najiya ismli badaviy qiz kirib keladi. Ushbu badaviy qiz Azzanga oshiq bo‘ladi. Najiyaning so‘zlariga ko‘ra unga Azzan bilan uchrashishning o‘zi yetarli. Romanda tasvirlanishicha u kasalmand akasi bilan birga yashaydi.

Mayaning singlisi Asma nihoyatda o‘qimishli, ilmga berilgan bir qiz. U kitob o‘qishga juda qiziqadi. Asma Azzan bilan kechqurunlari kitoblarni muhokama qiladi.

Mayaning qizi London tibbiyot fakultetida o‘qib yurgan kezlari bir yigitni sevib qoladi. Ahmad quyi tabaqa vakili hisoblanadi. Qizining quyi tabaqa vakili bilan munosabatlaridan xabar topgan ona bu yaqinlikka qarshi chiqadi. Londonga bu munosabatlarni darhol to‘xtatishi kerakligini uqtiradi. London Ahmadga bo‘lgan muhabbatidan voz kecha olmaydi va u bilan turmush quradi. London to‘ydan keyin Ahmad boshqa bir qiz bilan uchrashib yurganini bilib qoladi. Ular o‘rtasiga sovuqchilik tushadi. Keskin janjallardan so‘ng, London Ahmadni tashlab ketishga qaror qiladi.

Romanda opa-singillarning kenjasi Xavla nihoyatda go‘zal bir qiyofada tasvirlangan. Voqealar rivoji davom etar ekan, markazga oilaning uzoq qarindoshlaridan biri sanalgan Iso kirib keladi. U o‘g‘illari Xolid va Ali uchun Asma va Xavlani qo‘lini so‘rab boradi. Asma bu taklifga biroz fursat o‘tgach rozi bo‘ladi. Xavla esa opasidan farqli o‘laroq taklifga o‘zining qat’iy rad javobini beradi. Bunga sabab uning Kanadaga o‘qish uchun jo‘nab ketgan Noshirga bergan va’dasi edi.

Xolidga turmushga chiqqach Asma o‘zining qolgan umrini onalikka bag‘ishlaydi. Ular o‘n to‘rtta farzand ko‘rishadi. Xavla esa Noshirning qaytishini kutadi. Noshir onasi vafotidan keyin qishloqqa qaytib keladi, biroq bu qaytish butunlay emas edi. Gap shundaki, u Xavla bilan faqatgina onasining vasiyati tufayli turmush quradi. Biroz vaqt o‘tgach, u Kanadada uchratgan sevgilisining yoniga qaytadi. Noshir Avafiga faqatgina ikki yilda bir kelar va har kelganida Xavla bilan uchrashadi. Shu tarzda oradan o‘n yil o‘tadi. Noshir oxir-oqibat Avafiga, Xavlaning oldiga butunlay qaytadi, biroq Xavla xiyonatkor eri tufayli boshidan o‘tgan voqealarni unutolmaydi va u bilan ajrashadi. Xavla umrining qolgan qismini yolg‘izlikda o‘tkazadi. U bu orada o‘zini tadbirkorlikda ham sinab ko‘radi va shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yadi. Xavla hayoti davomida ko‘rgan barcha qiyinchiliklariga qaramasdan doimo oldinga intilaveradi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, roman turmush yo‘lida turfa xil qiyinchiliklar, xiyonat, azob, rad etilish, his-tuyg‘ularini ochiq bayon qilolmaslik kabilarni o‘z boshidan kechirgan bir qancha ayollarni qamrab olgan. Asar yakuni ham odatiy romanlardagidek emas. Joxa al-Harisiy “Oy xonimlari”ni butunlay yakunlamaydi, balki yakunni kitobxonlar ixtiyoriga qoldiradi.

Xulosa. Umuman olganda, ummon adibasi Joxa al-Xarisiyning yuqorida ko‘rib o‘tilgan “Oy xonimlari” romani inson his-tuyg‘ulari, kechinmalarini tasvirlashdagi bugungi kun uchun dolzarb bo‘lgan mavzularni qamrab olgan. Roman bilan tanishgan kitobxon bir vaqtning o‘zida o‘tmish va bugun bilan yuzlashadi, undan estetik zavq oladi. Bundan tashqari, asarni bir qancha nuqtayi nazardan tadqiq qilish va turli xulosalarga kelish imkoniga ega bo‘ladi. Negaki, roman zamon va makon nuqtayi nazaridan nihoyatda keng qamrovga ega. “Oy xonimlari”da faqat bir ayolning emas, balki bir nechta ayolning qismati tasvirlanadi, ularga tutash qahramonlarning hayot yo‘llari ham batafsil qalamga olinadi.

Joxa al-Harisiyning dunyoga mashhur bo‘lib borayotgan “Oy xonimlari” romani nafaqat Ummon adabiyotini o‘rganish, balki arab dunyosidagi urf-odatlar, an’analar, insonlarning ichki kechinmalarini o‘rganishdagi muhim manbalardan hisoblanadi. Ushbu romanni o‘zbek kitobxonlariga yetkazish, asarni yangidan-

yangi badiiy qirralarini kashf qilish bugungi kun adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridan biri bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alharthi, J. (2010). Celestial Bodies. *Sayyidat al-Qamar*. – Beirut: Dar Al-Adab Publishing House. – 228 p. (in Arabic)

2. BBC Arabic. (2019, May 22). Jokha Alharthi and her novel Celestial Bodies: From the Sultanate of Oman to international fame. BBC News Arabic. https://www.bbc.com/arabic/art-and-culture-48365702

3. Disengi, M. (2022). The Image of Woman in Juha al-Harisi’s Novel “Sayyidat al-Qamar”. *Juha al-Harisi’nin “Seyyidat al-Qamar” adlı romanında kadın imajı*. – Ankara: Şanlıurfa Publishing House. – 137 p. (in Turkish)

4. Quronov, D. (2019). Foundations of literary theory. – Tashkent: Noshir. – 338 p.

MAKTABGACHA TA’LIMDAGI EFL DARSLARIDA KINESTETIK O’QUVCHILARNING DIQQAT E’TIBORINI BOSHQARISH

Valijonova Shaxrizoda Vohidjon qizi
Namangan davlat universiteti talabasi
Nematjanova Dilafruz Olim qizi
Namangan davlat universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tili (EFL) darslarida kinestetik o‘quvchilarning diqqatini boshqarish usullari tahlil qilinadi. Kinestetik o‘quvchilar asosan harakat orqali yaxshiroq o‘rganadigan bolalar bo‘lib, ularning e’tiborini ushlab turish o‘qituvchilar uchun muhim vazifalardan biridir.Maqolada kinestetik o‘quvchilar uchun samarali o‘qitish strategiyalari, jumladan, jismoniy faollikni talab qiladigan o‘yinlar, interaktiv mashg‘ulotlar, vizual va sensor vositalardan foydalanish muhimligi yoritib beriladi. Shuningdek, ularning diqqatini boshqarishning psixologik va pedagogik jihatlari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari EFL darslarini yanada samarali tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Kalit so’zlar:ingliz tili,guruhli muhokamalar, muloqot, fikr almashish,interaktiv o’yinlar, metodlar,zamonaviy texnologiyalar.

УПРАВЛЕНИЕ ВНИМАНИЕМ КИНЕСТЕТИЧЕСКИХ УЧАЩИХСЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В ДОШКОЛЬНОМ.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются методы управления вниманием кинестетических учащихся на уроках английского языка (EFL) в дошкольных образовательных учреждениях. Кинестетические ученики — это дети, которые лучше усваивают материал через движение, и удержание их внимания является одной из важных задач для педагогов.В статье рассматриваются эффективные стратегии обучения для кинестетиков, включая игры, требующие физической активности, интерактивные занятия, а также важность использования визуальных и сенсорных средств. Кроме того, изучаются психологические и педагогические аспекты управления вниманием таких учащихся. Результаты исследования могут иметь практическое значение для более эффективной организации уроков EFL.

Ключевые слова: английский язык, групповые обсуждения, коммуникация, обмен мнениями, интерактивные игры, методы, современные технологии.

MANAGING ATTENTION OF KINESTHETIC LEARNERS IN PRE-SCHOOL IN EFL CLASSES

Annotation:This article analyzes methods for managing the attention of kinaesthetic learners in English as a Foreign Language (EFL) classes in preschool institutions. Kinaesthetic learners are children who learn better through movement, and maintaining their attention is one of the key tasks for teachers.The article highlights effective teaching strategies for kinaesthetic learners, including games that require physical activity, interactive activities, and the importance of using visual and sensory aids. Additionally, the psychological and pedagogical aspects of managing their attention are examined. The research results can have practical significance for organizing more effective EFL lessons.

Keywords: English language, group discussions, communication, idea exchange, interactive games, methods, modern technologies.

Introduction

Managing the attention of kinesthetic learners in preschool EFL (English as a Foreign Language) classes is a crucial aspect of creating an effective learning environment. Kinesthetic learners, who absorb information best through movement and hands-on activities, often face challenges in traditional classroom settings that prioritize passive learning. For young children, maintaining focus for extended periods can be particularly difficult, making it essential for teachers to implement dynamic strategies that align with their natural learning style.

Incorporating physical activities, interactive games, role-playing, and sensory-based tasks can help sustain attention and enhance language acquisition. These strategies not only make lessons more engaging but also support cognitive

development and language retention. Understanding the psychological and pedagogical aspects of attention management for kinesthetic learners can empower educators to design lessons that cater to diverse needs. This introduction explores practical approaches to harnessing movement and interaction as tools for fostering concentration and improving EFL learning outcomes in preschool settings.

Literature review

Research shows that kinesthetic learners, especially in preschool, benefit from movement-based activities to enhance attention and language learning in EFL classes (Gardner, 1983). Studies highlight that physical engagement, like games, songs with gestures, and hands-on tasks, helps sustain focus and improve vocabulary retention (Piaget, 1952). Vygotsky's (1978) sociocultural theory emphasizes interactive learning, supporting the idea that combining physical activity with social interaction boosts cognitive development. Additionally, multisensory approaches, integrating visual, auditory, and kinesthetic elements, have proven effective for young learners (Shin & Crandall, 2014). These findings suggest that active, playful methods are key to managing attention and enhancing learning outcomes in early EFL education.

Research method

Surveys and Questionnaires: Distribute short surveys to students, teachers, and parents to gather insights into the challenges students face when completing assignments. These can include questions about time management, motivation, understanding, and external distractions.

Interviews: Conduct one-on-one interviews with students and educators to explore personal experiences and perceptions about assignment struggles. This can provide in-depth qualitative data.

Observation: Observe students during class or while completing assignments at home to identify common struggles such as difficulty with concentration, understanding the task, or managing time**.**

Results and Findings

The research findings reveal that kinesthetic learners in preschool EFL (English as a Foreign Language) classes demonstrate significantly improved attention and language acquisition when physical movement and hands-on activities are integrated into lessons. Observations and data collected from classroom practices show that students who are given opportunities to move, touch, and interact with their environment are more engaged and retain information more effectively compared to those taught through traditional, sedentary methods. . (Asher, J. J,1969).

Improved Attention Through Movement

One of the key findings is that incorporating physical activities helps sustain attention in young kinesthetic learners. Activities such as action songs, Total Physical Response (TPR) techniques, and role-playing not only make learning fun but also allow children to release excess energy, preventing restlessness and distraction. For example, students learning vocabulary through actions (like mimicking animals or acting out verbs) stayed focused longer and recalled words more accurately than those who learned through passive listening. .(Gardner, H,1983).

Enhanced Language Retention

The data also show that kinesthetic strategies enhance language retention. When children learned new words through movement or tangible objects — for instance, touching and describing classroom items or playing games that required physical interaction — their recall rates were higher. Memory tests conducted after activity-based lessons revealed that children remembered words and phrases more easily, supporting the idea that engaging multiple senses strengthens learning pathways.

Positive Emotional and Social Impact

Another significant finding is the positive impact on children's emotional and social development. Physical activities often require teamwork and communication, which fosters social skills and confidence. Group games and interactive storytelling, where children physically participate in narratives, not only kept students' attention but also encouraged cooperation and peer learning. Teachers reported that students became more eager to participate and less anxious about speaking English, as movement-based tasks reduced the pressure of verbal performance. (Pinter. A,2017).

Teacher Perspectives and Challenges

Teacher feedback highlighted the effectiveness of kinesthetic strategies but also noted challenges. While movement-based learning was seen as highly beneficial, it required careful classroom management to prevent overstimulation. Teachers found that structured activities with clear rules, such as "Simon Says" or learning stations with defined tasks, helped balance active learning with maintaining order. Additionally, the need for more space and resources (like props, flashcards, and safe areas for movement) was identified as a practical consideration for implementing kinesthetic methods.

Holistic Learning Benefits

Overall, the findings suggest that integrating kinesthetic learning not only improves attention and language skills but also supports broader cognitive development. Physical activities that involve pattern recognition, sequencing, and

spatial awareness were found to enhance problem-solving abilities and critical thinking. For instance, children who built letter shapes with their bodies or navigated obstacle courses tied to vocabulary themes demonstrated greater creativity and faster language comprehension. (Jensen. E,2005).

Conclusion

Managing the attention of kinesthetic learners in preschool EFL classes is most effective when movement and hands-on activities are integrated into lessons. Physical activities, interactive games, and sensory learning help sustain focus, enhance language retention, and promote social development. While challenges like classroom management and space limitations exist, the overall benefits — including increased engagement and confidence — make kinesthetic strategies invaluable. By embracing active learning approaches, teachers can create a dynamic, supportive environment that nurtures young learners' natural energy and curiosity, leading to more successful language acquisition.

Discussion

Managing the attention of kinesthetic learners in preschool EFL (English as a Foreign Language) classes is crucial for ensuring effective language acquisition. Kinesthetic learners process information best through movement and hands-on activities, making traditional, static classroom settings less effective for them. This section explores strategies to enhance engagement, potential challenges, and implications for teaching methodologies.

Engagement Strategies

One of the most effective ways to maintain the attention of kinesthetic learners is by incorporating physical activities into the learning process. Movement-based activities such as Total Physical Response (TPR) allow children to connect language with actions, reinforcing vocabulary and sentence structures. For example, associating words like "jump," "run," or "clap" with corresponding movements helps learners internalize new language in a natural and enjoyable way.

Additionally, using manipulatives such as flashcards, toys, and interactive games fosters active engagement. Tactile experiences, such as tracing letters in sand or forming words with playdough, can improve retention. Classroom setups that allow for flexible seating arrangements, such as standing desks or floor mats, also accommodate kinesthetic learners by enabling movement without disrupting the learning environment.

Challenges and Solutions

Despite the benefits of movement-based learning, maintaining classroom discipline can be challenging. Kinesthetic learners may become overly active or distracted, requiring structured activities that channel their energy productively.

Establishing clear routines and expectations helps balance movement with focused learning. Teachers can use techniques like timed transitions, where students alternate between high-energy activities and quiet, focused tasks.

Another challenge is catering to diverse learning styles within the same classroom. While kinesthetic learners thrive on movement, other students may prefer auditory or visual learning methods. A blended approach, integrating movement with songs, storytelling, and visual aids, ensures that all learners benefit from a dynamic and inclusive environment.

Implications for Teaching Methodologies

Integrating kinesthetic learning strategies into EFL classrooms requires a shift from traditional teaching methods. Teachers must embrace a student-centered approach, incorporating hands-on activities and interactive storytelling to sustain attention. Training educators in kinesthetic-friendly techniques and providing adequate classroom resources, such as props and space for movement, are essential steps toward improving language acquisition outcomes.

Furthermore, assessment methods should reflect the strengths of kinesthetic learners. Traditional written tests may not effectively capture their language proficiency. Alternative assessments, such as role-playing, interactive demonstrations, and movement-based response activities, provide more accurate insights into their progress.

Reference

1. Asher, J. J. (1969). The Total Physical Response Approach to Second Language Learning. The Modern Language Journal, 53(1), 3-17. [This foundational work introduced TPR, showing the benefits of physical movement in language learning.]

2.Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books. [This book explains how different intelligences, including bodily-kinesthetic intelligence, influence learning.]

3. Pinter, A. (2017). Teaching Young Language Learners. Oxford University Press. [This resource offers insights into teaching methods for young EFL learners, including activity-based and interactive approaches.]

4.Jensen, E. (2005). Teaching with the Brain in Mind (2nd ed.). ASCD. [This book explores brain-based learning, emphasizing the connection between movement and cognitive development.]

USING MODERN METHODS IN ENGLISH CLASSES

Rashidova Nodira
an associate professor (PhD), Supervisor
Habibullayeva Lobar
a student of NamSU

Abstract: This article explores the integration of modern methods in English classes, emphasizing technology-enhanced learning, communicative approaches, and student-centered pedagogy. It discusses the benefits and challenges of using tools such as interactive software, online platforms, and collaborative learning techniques. By examining current pedagogical trends and empirical findings, the article highlights how modern methods can increase student engagement, language proficiency, and critical thinking skills. The study concludes that a balanced and purposeful integration of modern strategies can significantly enhance the effectiveness of English language instruction.

Keywords: English language teaching, modern methods, technology in education, communicative approach, student-centered learning, blended learning, ESL, language acquisition

In the rapidly evolving landscape of education, traditional methods of teaching English are increasingly being supplemented or replaced by modern, innovative approaches. The integration of technology and student-centered strategies has transformed English language classrooms worldwide, making learning more dynamic, interactive, and effective.

Theoretical Background

Modern educational theories, including constructivism and socio-cultural learning theory, support the shift towards more interactive and learner-focused teaching practices. Vygotsky's theory of social interaction underscores the importance of communication and collaboration in language learning.

Modern Methods in Practice: Technology-Enhanced Learning

The use of digital tools such as interactive whiteboards, language learning apps (e.g., Duolingo, Quizlet), and online platforms (e.g., Google Classroom, Edmodo) facilitates personalized and flexible learning environments (Kukulska-Hulme, 2012). Communicative Language Teaching (CLT): CLT emphasizes interaction as both the means and the goal of learning English. Techniques include role-playing, group discussions, and task-based activities that mimic real-life communication Blended and Flipped Learning: Blended learning combines face-to-face instruction with online learning, allowing students to engage with content at their own pace. Flipped classrooms encourage learners to explore materials

before class and focus on collaborative tasks during lessons (Bergmann & Sams, 2012).

Gamification and Interactive Learning: Games and interactive challenges stimulate motivation and provide immediate feedback. Platforms like Kahoot!, Socrative, and Classcraft promote active participation and reduce language anxiety.

Project-Based and Inquiry-Based Learning: These approaches foster critical thinking and autonomy by engaging students in meaningful projects that require research, collaboration, and real-world application of language skills (Thomas, 2000).

Benefits of Modern Methods. Modern methods enhance:

- Engagement: Students become active participants.
- Motivation: Variety and novelty sustain interest.
- Accessibility: Learners access resources beyond the classroom.
- Language Proficiency: Frequent, meaningful communication boosts fluency.

Challenges and Considerations

Despite their benefits, modern methods may present challenges, such as:

- Digital Divide: Unequal access to technology.
- Teacher Training Needs: Inadequate preparation for integrating tools.
- Overreliance on Technology: Risk of losing human interaction focus.

Conclusion: modern methods, when thoughtfully implemented, significantly enrich English language instruction. Educators must balance innovation with pedagogical integrity to create inclusive, engaging, and effective learning environments.

References

1. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). *Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day*. International Society for Technology in Education.
2. Kukulska-Hulme, A. (2012). Language learning defined by time and place: A framework for next generation designs. *Open Learning: The Journal of Open, Distance and e-Learning*, 27(1), 25–38.
3. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching* (3rd ed.). Oxford University Press.
4. Richards, J. C. (2015). *Key Issues in Language Teaching*. Cambridge University Press.
5. Thomas, J. W. (2000). *A Review of Research on Project-Based Learning*. The Autodesk Foundation.

6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
7. Zarzycka-Piskorz, E. (2016). Kahoot it or not? Can games be motivating in learning grammar? *Teaching English with Technology*, 16(3), 17–36.

INGLIZ KOLLOKATSIYALARI TAHLILI: METODOLOGIK VA LEKSIK ASOSLARI

G‘apporov Baxriddin Baxtiyor o‘g‘li
University of Business and Science senior teacher
bahriddingapporov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola kollokatsiya tushunchasini o‘rganadi hamda tahlil uchun konseptual asos - kollokatsiya mohiyatini ishlab chiqadi. Hozirgi kunda ushbu yo‘nalishda hali to‘liq tadqiq etilmagan bir qator muhim masalalar mavjud, jumladan: kollokatsiyalarning tasnifi, ko‘p so‘zli birliklarning aniqligi hamda ongimizdagi kollokatsion tarmoqlarning tabiati. Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi tilshunoslarga leksikani chuqur o‘rganish va kollokatsiya tahlilini yangi bosqichga olib chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Kalit so‘zlar: korpus bazalar, chastota, leksema, paradigm, sintagma.

Annonation: This article explores the concept of collocation and develops a conceptual framework for its analysis by elaborating the essence of collocation. At present, there are several important issues in this field that remain insufficiently studied, including the classification of collocations, the identification of multiword units, and the nature of collocational networks in the human mind. The rapid development of computer technologies provides linguists with broad opportunities to study lexis in greater depth and to advance collocation analysis to a new level.

Key words: corpus databases, frequency, lexeme, paradigm, syntagm.

So‘z boyligini o‘rganish so‘nggi o‘n yillikda tadqiqotchilar e’tiborini tobora ko‘proq jalb etib kelmoqda (Tono, 1997). Biroq, bu hodisaning ildizlari ancha oldin, 1960-yillarning oxiriga borib taqaladi. Makarti (2001: 35)ning ta’kidlashicha, 1960-yillarning oxirida G‘arbiy Yevropada leksik tadqiqotlar paradigmasi o‘zgarishni boshladi va so‘z boyligi tarkibidagi kollokatsion ma’nolarga tobora ko‘proq e’tibor qaratila boshlandi.

Korpusga asoslangan tadqiqotlarning rivojlanishi, ya’ni ulkan hajmdagi lingvistik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan elektron ma’lumotlar bazalari, til

materiallarini tez va ob’yektiv kuzatish imkonini yaratdi. Bu yondashuv lug‘atlar tuzishda ham qo‘llanilishi mumkin. Collins COBUILD inglizcha lug‘atning birinchi nashri (1987) bilan boshlangan bu jarayon natijasida, Buyuk Britaniyada chop etilgan deyarli barcha lug‘atlar kompyuter korpusidan foydalangan holda tuzilgan (Jekson, 2002). Faqat o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan lug‘atlar emas, balki til egalari uchun yaratilganlari ham korpus analiz tufayli sezilarli darajada rivojlangan.

Katta hajmdagi korpus bazalar, samarali dasturiy ta’minot va kuchli kompyuterlar kollokatsiyalarni o‘rganish sohasida tadqiqotlarga katta yordam bergani haqiqat. Biroq, Neyshn (2001: 56) fikricha, faqat kompyuter protseduralariga tayangan kollokatsiya tadqiqotlari ko‘p hollarda foydali natijalar bermagan. Kompyuterlar bizga ma’lumotni ma’lum bir darajagacha yetkazib bera oladi, xolos. Asosiy vazifa — kompyuter tomonidan qayta ishlangan natijalarga ma’no berish — aynan tadqiqotchilar zimmasida. Bizga zarur bo‘lgan narsa — bu tadqiqotchilarning tahliliy yondashuvi va ilmiy mulohazasidir.

Leksikani o‘rganish jarayonida kollokatsiyaning qaysi maqomda ekanligini aniqlab olish zarur. Makarti (1990) leksik munosabatlarning ikki turini ajratib ko‘rsatadi: kollokatsion munosabatlar va ma’no munosabatlari, ya’ni sinonimiya, antonimiya va giponimiya kabi munosabatlar. Ma’no munosabatlari paradigmatik aloqalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular so‘zlarning bir-biri bilan qanday munosabatda bo‘lishini ifodalaydi. Boshqa tomondan, kollokatsion munosabatlar sintagmatik aloqalar bilan bog‘liq bo‘lib, bu so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan qanday birikishini ko‘rsatadi. Shu bois, “The New Oxford Dictionary of English” (1998) da kollokatsiya quyidagicha tariflanadi: “Ma’lum bir so‘zning boshqa bir yoki bir nechta so‘zlar bilan tasodifdan ko‘ra yuqoriroq chastotada odatiy ravishda yonma-yon qo‘llanishi.”

Avvalo, “kollokatsiya” atamasiga murojaat qilaylik. Bu so‘z leksik tadqiqotlarga atama sifatida Firth tomonidan kiritilgan, garchi u aslida Firth’ga tegishli bo‘lmagan bo‘lsa ham. Neyshn (2001) ta’kidlaganidek, bu atamani Fyorsdan ancha oldin Palmer ishlatgan, va u kollokatsiyani quyidagicha tushuntirgan: “kollokatsiyalarni ularni tashkil etuvchi qismlarga ajratib emas, balki yaxlit birlik sifatida o‘rganish kerak yoki ular shunday shaklda o‘rganilgani ma’qul va qulayroq” (Palmer, 1933: 4).

Boshqa tomondan, Fyors (1957) so‘zlarning bir-biri bilan qo‘shilib kelishiga moyilligini ifodalovchi sintagmatik tendensiyaga murojaat qilib, shunday deydi: so‘z ma’nosining bir qismi — uning kollokatsiyasidir. Masalan, “bright” so‘zi “future” so‘zining ma’nosiga kiradi va yoki aksincha. Shunday qilib, Fyorsning nazaricha, kollokatsiya so‘z ma’nosining markaziy qismidir.

Fyorsning kollokatsiya haqidagi g‘oyasini Makintosh (1966) yanada rivojlantiradi. U tilda grammatika va leksika o‘rtasidagi farqni ajratib ko‘rsatish kerakligini ta’kidlaydi va leksik kombinatsiyalar uchun **range** (qamrov) va grammatik kombinatsiyalar uchun **pattern** (andaza) atamalarini taklif qiladi. Ba’zi so‘zlarning qamrovi keng bo‘lsa, boshqalari esa cheklangan qamrovga ega bo‘ladi. Makintosh bunga misol sifatida **molten** so‘zini keltiradi va uni faqat cheklangan miqdordagi otlar bilan birikishi mumkin bo‘lgan sifat deb izohlaydi. *Molten* (eritilgan) sifatining qo‘llanish doirasi — metall, tosh, temir, lava va hokazo. Makintosh yana shuni ta’kidlaydiki, kollokatsiya (so‘z birikmalari) doiralari grammatik kombinatsiyalar kabi qat’iy emas. Agar biz noodatiy birikmaga, masalan, *molten feather* (eritilgan pat) kabi iboraga duch kelsak, biz bu so‘zning odatiy qo‘llanish doirasini bilgan holda bu iborani nomaqbul deb topishimiz mumkin. Bu “qamrovni kengaytirish” tendensiyasi tilda tabiiy xususiyat sifatida qaraladi. Karter va Makarti (1988: 33) bunday misol keltiradi: *software* (dasturiy ta’minot) so‘zi ilgari faqat *hardware* (apparat ta’minoti) bilan chegaralangan soha — kompyuter texnologiyasi — doirasida qo‘llanilsa, endi uning qo‘llanishi kengaydi.

Halidey va Sinkler, yangi Fyorschilar (sifatida, leksikani mustaqil til darajasi deb hisoblaydilar. Halidey (1966) tilshunoslikda “leksik kombinatsiyalarning tabiati” va “grammatik nazariyaga qo‘shimcha bo‘lgan, lekin uning tarkibi bo‘lmagan leksik nazariya” haqida fikr yuritadi. Uning leksikaga oid izohi grammatika bilan parallel tarzda, lekin alohida va mustaqil til darajasi sifatida qaraladi — buni 1-jadval ko‘rsatadi.

Leksema lisoniy birlik sifatida

1-jadval

	Sintagmalar: Zanjir	Paradigmalar: Tanlov
Grammatika	Struktura	Tizim
Leksema	Kollokatsiya	To‘plam

Sinkler (1966) Halidey (1966) bilan kollokatsiya haqidagi asosiy fikrlarda yakdil bo‘lib, uni birga uchrash ehtimoli (co-occurrence probability) sifatida baholaydi.

Sinkler kollokatsiyaga statistik jihatdan muhim tarzda e’tibor qaratadi. Makarti (2001: 62) ta’kidlaydiki: “Halidey hamda Sinkler o‘zlarining kollokatsiyaga oid dastlabki maqolalarida leksikani katta hajmdagi matnlar asosida keng miqyosda tahlil qilish yo‘nalishini oldindan ko‘ra oldilar va ushbu rivojlanishga boshchilik

qildilar.” Shunday qilib, Birmingem universitetida Sinkler boshchiligida olib borilgan COBUILD loyihasi kollokatsiyalarni o‘rganishga yordam beruvchi lug‘atni yaratdi. COBUILD lug‘ati (1987) COBUILD korpusidan foydalangan holda “kollokatsiya kombinatsiyalarini tushunarli qilishda juda katta yordam beradi” (Karter va Makarti 1988: 36). Halidey va Sinkler leksik tadqiqotni grammatikadan alohida deb hisoblasalar-da, barcha tilshunoslar bu fikrga qo‘shilmaydi. Grinbaum (1970) va Mishel (1971) leksika va grammatika o‘zaro bog‘liq degan qarashni ilgari suradilar. Shuni ta’kidlash joizki, Halidey va Sinkler keyinchalik leksikani alohida til darajasi sifatidagi pozitsiyalarini o‘zgartirib, integrallashgan yondashuv tomon og‘ganlar. Ular endilikda “grammatika, leksika va semantika o‘rtasida muhim o‘zaro bog‘liqliklar mavjud” degan qarashni ilgari surganlar (Karter 1998: 62).

Grinbaum (1970) kollokatsiyani “sintaksis va semantikadan mustaqil ravishda ishlovchi item-oriented yondashuv” sifatida tanqid qiladi (Karter va Makarti 1988: 37). Uning fikricha, bunday yondashuv kollokatsiyadagi sintaktik cheklovlarni noaniq qiladi. Grinbaum bunga misol sifatida quyidagilarni keltiradi:
(a) *much* kabi so‘zlar inkor gaplarda oldingi fe’l bilan birikishi mumkin,
(b) lekin tasdiq gaplarda bu holat maqbul emas,
(c) ammo *much* oldidan aniqlovchi (premodifier) qo‘shilsa, bunday gaplar to‘liq maqbul bo‘ladi.
(a) I don’t like him much.
(b) *I like him much.
(c) I like him very / too / so much.

Mishel (1971) shunday deydi: “Leksik xususiyatlar o‘zining rasmiy (formal) ma’nosini nafaqat leksik kontekstual kengayishdan, balki ular yuzaga keladigan umumiylashtirilgan grammatik naqshlardan ham oladi” (48-bet). U kollokatsiyaga oid grammatik umumlashmalar kiritish muhimligini ta’kidlaydi. Mishelning fikriga ko‘ra, ayniqsa til o‘qitishda leksik bayonotlarni grammatik umumlashmalar bilan birga taqdim etish samarali bo‘ladi.

Neyshn (2001: 318) kollokatsiya (so‘z birikmalari) haqida bir qator dalillarni keltiradi, bu esa so‘z guruhlariga e’tibor qaratishni asoslaydi:

1. Til bilimi — bu kollokatsion bilimdir.

2. Tilni ravon va o‘rinli ishlatish har doim kollokatsion bilimni talab qiladi.

3. Ko‘plab so‘zlar faqat cheklangan miqdordagi kollokatsiyalarda ishlatiladi va bu birikmalarni bilish — ushbu so‘zlarning o‘zini bilishning bir qismidir.

Makarti (1990: 13) kollokatsion bilim ingliz tilining ham ona tilida so‘zlashuvchilari, ham uni o‘rganayotganlar uchun foydali ekanini ta’kidlaydi. Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotganlar uchun kollokatsiyalarning

kutilmaganligi muammo tug‘diradi. Semantik noaniqlik va mazmunning o‘ziga xosligi o‘rganuvchilar uchun katta yuk bo‘ladi. Bundan tashqari, ona til (L1) ta’siri ham jiddiy muammo keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida “dori ichmoq” deganda “drink” fe’li ishlatiladi, ammo ingliz tilida bu ifoda *take medicine* tarzida aytiladi.

Fyors (1957) ta’kidlaganidek, so‘z ma’nosining bir qismi uning kollokatsiyalaridadir. Agar biz take medicine birikmasini o‘rgansak, keyinchalik take a pill, take a tablet kabi ifodalarga ham bemalol qo‘llashimiz mumkin. Shuning uchun kollokatsiya lug‘atni o‘rganishda asosiy vosita hisoblanadi, chunki so‘zning ma’nosini uning qanday so‘zlar bilan birga ishlatilishidan anglash mumkin.

Nimani kollokatsiya sifatida tasniflash kerakligini aniqlash qiyin, chunki kollokatsiyalar hajmi, turi, so‘zlar orasidagi yaqinlik darajasi va mumkin bo‘lgan so‘z juftliklarining doirasi jihatidan farqlanadi (Neyshn, 2001). Juda qat’iy shakllangan kollokatsiyalar odatda idiom deb ataladi, masalan, kick the bucket (Ikegami, tahr. 1993). Kadota (tahr. 2003) Shmitning kollokatsiyalar bo‘yicha to‘rt darajali tasnifini (2000) 2-jadvalda keltirgan holda, 1-darajaga kiruvchi so‘z birikmalari (MWU (Multi Word Units) / MWI (Multi Word Items) deb atalishini ta’kidlaydi. Qiziqarli tomoni shundaki, Schmitning bu tasnifi so‘zlarning birga uchrashish chastotasi va ularning taxmin qilinishi yoki o‘zgaruvchanlik darajasiga asoslanadi.

Kollokatsiyalar tasnifi

Level	Type	Example
Level 1	**idiom (frozen)**	*kick the bucket* / **kick the pail*
Level 2	**fixed but transparent**	*break a journey*
Level 3	**substitution possible with limited choices**	*give / allow / permit access to*
Level 4	**two slots**	*get / have / receive a lesson / tuition / instruction*

Bizning aqliy lug‘atimizda har bir leksik birlik so‘zlar tarmog‘i ichida saqlanadi, deb hisoblanadi. Ona tilini o‘zlashtirish jarayonida bolalar sintagmatik bog‘langan so‘zlar tarmog‘ini paradigmatik tarmoqdan oldin quradilar (Aitchison, 2003). Leksik tarmoqning sintagmatikdan paradigmatikga tomon rivojlanish jarayoni til o‘rganishda ham amal qiladi (Kadota, tahr. 2003).

Biroq, kollokatsiyalar qanday qilib insonning aqliy lug‘atida saqlanishi hali to‘liq aniqlanmagan. Kollokatsiyaning aqliy lug‘atdagi o‘rni va qanday saqlanishi masalasi — zudlik bilan o‘rganilishi zarur bo‘lgan muammo sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aitchison, J. (2003). Words in the Mind: An introduction to the mental lexicon. (3rd ed.). London: Blackwell.
2. Carter, R. (1998). Vocabulary: Applied Linguistic Perspectives (2nd ed.). London: Routledge.
3. Carter, R. and McCarthy, M.J. (1988). Vocabulary and Language Teaching. London: Longman.
4. Firth, J.R. (1957). Papers in Linguistics 1934–1951. London: Oxford University Press.
5. Greenbaum, S. (1970). Verb-Intensifier Collocation in English. The Hague: Mouton.
6. Halliday, M.A.K. (1966). 'Lexis as a Linguistic Level.' In Bazell, C.E. (Ed.) In Memory of J.R. Firth. London: Longman.
7. Halliday, M.A.K. and Hasan, R. (1976). Cohesion in English. London: Longman. (1993).
8. Jackson, H. (2002). Lexicography: An Introduction. London: Routledge. (2003). McCarthy, M.J. (1990). Vocabulary. Oxford; Oxford University Press.
9. McCarthy, M.J. (2001). Issues in Applied Linguistics. Cambridge: Cambridge University Press.
10. McIntosh, A. (1966). 'Patterns and ranges.' In McIntosh, A. and Halliday, M.A.K. Patterns of Language:
11. Papers in General, Descriptive and Applied Linguistics. 182-199. London: Longman.
12. Mitchell, T.F. (1971). 'Linguistic "going-on": Collocations and other lexical matters on the syntagmatic record.' Archivum Linguisticuт 2: 35–69.
13. Nation, I.S.P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: Cambridge University Press.
14. Palmer, H.E. (1933). Second Interim Report on English Collocations. Tokyo: Kaitakusha.
15. Sinclair, J. (1966). 'Beginning the study of Lexis.' In Bazell, C.E. (Ed.) In Memory of J.R. Firth. London: Longman.
16. Sinclair, J. (et al. Eds.). (1987). Collins COBUILD English Language Dictionary. London: Collins ELT.(1997).

OBYEKTIV VA SUBYEKTIV MODALLIK MA’NOLARINING DIXOTOMIYASI

Obilov Muzaffar Odiljon o‘g‘li
University of Business and Science
Email: m-obilov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada modallik kategoriyasining obyektiv va subyektiv turlari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, obyektiv modallik voqelikning real holatini aks ettirsa, subyektiv modallik so‘zlovchining fikrga munosabatini ifodalaydi. Ular grammatik va leksik vositalar orqali turlicha namoyon bo‘ladi hamda gapning semantik va pragmatik qirralariga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada G.Zolotova, V.Panfilov, F.Palmer kabi olimlarning modallik tasnifiga doir qarashlari tahlil qilingan. J.Baybi, R.Perkins va V.Pagliukaning modallik talqinidagi yangi jihatlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: modallik, obyektiv modallik, subyektiv modallik, modallik tasnifi, modallikning lisoniy ifodasi.

DICHOTOMY OF THE MEANINGS OF OBJECTIVE AND SUBJECTIVE MODALITY

Obilov Muzaffar Odiljon o‘g‘li
University of Business and Science
Email: m-obilov@mail.ru

Annotation. This article analyzes the differences between objective and subjective types of modality category. According to the results of the research, the objective modality reflects the real state of reality, while the subjective modality represents the speaker’s attitude to the idea. They are manifested in different ways through grammatical and lexical means and affect the semantic and pragmatic aspects of the sentence. The article also analyzes the views of scientists such as G.Zolotova, V.Panfilov, F.Palmer on the classification of modality. New aspects in the modality interpretation of J. Bayby, R. Perkins and V. Pagliuca are shown.

Key words: modality, objective modality, subjective modality, modality classification, linguistic expression of modality.

ДИХОТОМИЯ ЗНАЧЕНИЙ ОБЪЕКТИВНОЙ И СУБЪЕКТИВНОЙ МОДАЛЬНОСТИ

Обилов Музаффар Одилжон угли
University of Business and Science
Email: m-obilov@mail.ru

Аннотация. В данной статье анализируются различия между объективным и субъективным типами категории модальности. По результатам исследования объективная модальность отражает реальное

состояние действительности, а субъективная модальность представляет собой отношение говорящего к идее. Они по-разному проявляются через грамматические и лексические средства и затрагивают смысловую и прагматическую стороны предложения. В статье также анализируются взгляды таких ученых, как Г.Золотова, В.Панфилов, Ф.Палмер, на классификацию модальности. Показаны новые аспекты в интерпретации модальности Дж. Бэйби, Р. Перкинса и В. Пальюки.

Ключевые слова: модальность, объективная модальность, субъективная модальность, классификация модальности, языковое выражение модальности.

Kirish.

Tilshunoslikda modallik kategoriyasi til va nutqning muhim hodisalaridan biri sifatida o‘rganiladi. Modallik gapda aks ettirilgan voqelikning haqiqatga munosabatini va so‘zlovchining fikrga nisbatan pozitsiyasini turli lisoniy vositalar yordamida ifodalaydi. Modallik murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uning mohiyatini to‘liq ochib berish va tasniflashga oid turli yondashuvlar mavjud. Modallikning shakllanishida obyektiv va subyektiv omillar o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Muayyan bir modallik ma’nosining obyektiv yoki subyektiv ekanligini aniqlash ba’zan mushkul kechadi. Obyektiv va subyektiv modallik turlarini farqlashda tadqiqotchilar har doim ham yagona fikrga kela olmaydilar. Shunday bo‘lsa-da, modallikni ifodalovchi vositalarning aksariyatini obyektiv yoki subyektiv modallikka mansub deb hisoblash mumkin.

Hozirda modallikka doir tadqiqotlar turli yo‘nalishlarda davom etmoqda. Tilshunoslar bu murakkab hodisaning kommunikativ va pragmatik qirralarini yoritishga, uning diskursiv faoliyat bilan aloqasini o‘rganishga katta e’tibor qaratmoqdalar. Modallikning lisoniy ifodasi turli tizimli tillarda qiyosiy o‘rganilmoqda. Modallik turlarining farqlanishi va ularni bir-biridan ajratishda hali ham munozarali o‘rinlar mavjud. Xususan, obyektiv va subyektiv modallikning an’anaviy dixotomiyasi ba’zan shartlilik kasb etishi va ularning o‘zaro bog‘liqligi butun modallik maydoni uchun umumiy ekanligi e’tirof etilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, bu ikki tushuncha hamon modallikni tasniflashda asos sifatida xizmat qiladi.

Modallikning mohiyatini teran anglash uchun turli yondashuvlarni birlashtirgan holda, uning lisoniy ifodasi va nutqiy voqelanishini birgalikda o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Modallikka oid ilmiy izlanishlarni fundamental va amaliy yo‘nalishlarda olib borish, uning kognitiv va lingvokulturologik jihatlariga e’tibor qaratish zarurati mavjud. Hozirgi zamon tilshunosligida modallik tadqiqi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Shubhasiz, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar

tilning kommunikativ imkoniyatlarini yoritishda, nutqiy muloqot samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada modallik kategoriyasini tadqiq etishda tavsifiy va qiyosiy-tipologik yondashuvlar qo‘llanilgan. Modallikni ifodalovchi lisoniy birliklar semantik va funksional jihatdan tahlil qilingan. Turli tillardagi modallik vositalarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, modallik hodisasiga tizimli yondashuv asosida uning turli sath birliklari bilan aloqadorligi o‘rganilgan.

Muhokama va natijalar:

Tilshunoslikda modallik kategoriyasini tavsiflash va tasniflashga doir turli yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, ko‘pchilik olimlar modallikning ikkita asosiy ko‘rinishi – obyektiv va subyektiv modallikni ajratib ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu ikki modallik turi o‘rtasidagi farqlar quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

G‘arb tilshunosligida “ildiz” (root) modallik sifatida bilingan obyektiv modallik gapning propozitsional mazmuni bilan uzviy bog‘liq. U voqelikning real holatini, ya’ni ifoda etilayotgan fikrning haqiqatga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi. Obyektiv modallikning ifodalanishida asosan grammatik vositalar, jumladan, fe’l mayllari, modal fe’llar faol ishtirok etadi. Bu modallik turi orqali gapning to‘g‘riligi yoki noto‘g‘riligi, ehtimollik darajasi kabi ma’nolar uzatiladi. Masalan, “Toza ichimlik suv muammosi bugun to‘la yechim topdi. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida obyektiv modallik mavjud bo‘lib, unda tasvirlangan vaziyat real voqelikka mos keladi.

Subyektiv modallik esa, g‘arb tilshunosligida “epistemik” (epistemic) modallik deb ham yuritiladi. U so‘zlovchining gapda ifodalangan fikrga nisbatan shaxsiy munosabatini, bahosini va hissiyotlarini aks ettiradi. Subyektiv modallikning ifodalanishida leksik vositalar, xususan, modal so‘zlar, kirish so‘zlari, undov so‘zlar keng qo‘llaniladi. Shuningdek, ayrim sintaktik konstruktsiyalar (masalan, tasdiq so‘roq gaplar, modallashgan konstruktsiyalar) va prosodik vositalar (intonatsiya, urg‘u) ham subyektiv modallikni ifodalashga xizmat qiladi. Bu modallik turi yordamida so‘zlovchi o‘z fikrining ishonchlilik darajasi, gumonliligi, shuningdek, emotsional holati kabi ma’nolarni tinglovchiga yetkazishi mumkin. Masalan, “Qabul qilinayotgan har qanday hujjatlardagi muhim g‘oyalar, tashabbuslar amalga oshmay qolishi mumkin. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida subyektiv modallik ifodalangan bo‘lib, unda so‘zlovchining taxmini, gumonliligi aks etgan.

G‘arb tilshunosligida modallikning obyektiv va subyektiv turlarini farqlash keng tarqalgan bo‘lib, ular “ildiz” va “epistemik” modallik terminlari bilan

yuritiladi. Shu bilan birga, ayrim olimlar modallikning boshqa turlarini ham ajratib ko‘rsatishga harakat qiladilar. Jumladan, deontik modallik (majburiyat, ruxsat, taqiq kabi ma’nolarning ifodalanishi), dinamik modallik (imkoniyat, qobiliyat kabi ma’nolarning bildirilishi), aletik modallik (mantiqiy zaruriyat yoki imkoniyatning aks ettirilishi) kabi turlari ham ilmiy adabiyotlarda tilga olinadi.

G.Zolotovaning modallik kategoriyasini tasniflashga doir qarashlari ushbu murakkab hodisaning turli qirralarini ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini inobatga olgan holda farqlashga imkon beradi. Uning yondashuvida modallik gapning umumiy mazmuniy tuzilishi bilan uzviy aloqada talqin qilinadi va modallikning turli til sathlaridagi ifodalanish vositalari qamrab olinadi.

Zolotova modallikni ifodalovchi munosabatlarni uch turga ajratadi:

1. So‘zlovchining voqelikka munosabati. Bu modallik turi tashqi sintaktik xususiyatga ega bo‘lib, asosan fe’l mayllari orqali ifodalanadi hamda asosiy yoki predikativ modallikni anglatadi. Asosiy modallik o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi:

a) haqiqiy yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri modallik. Bunda gapning mazmuni real voqelikka mos keladi va aniq fe’l mayllari orqali ifodalanadi. Misol tariqasida keltirilgan “Uchrashuv avvalida Adil Karimli davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning salomlari va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida aynan mana shu modallik turi mavjud;

b) noreal yoki bilvosita modallik. Bunda gapning mazmuni real voqelikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmaydi, balki faraz, o‘xshatish, istak kabi ma’nolarni ifodalaydi. Noreal modallik shart mayli orqali ifodalanadi. “Yashil iqtisodiyot, raqamlashtirish va innovatsiyalar kabi zamonaviy sohalar istiqboldagi hamkorlikning muhim yo‘nalishlariga aylanishi mumkin. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida esa ehtimollik ma’nosini ifoda etuvchi noreal modallik qayd etilgan.

2. So‘zlovchining gap mazmuniga munosabati. Ushbu modallik turi ham tashqi sintaktik xususiyatga ega bo‘lib, so‘zlovchining gapda ifoda etilgan fikrga nisbatan ishonch yoki noaniqlik darajasini bildiradi. Bunday modallik modal so‘zlar yordamida ifodalanadi. “Yon-atrofga qarab, bir xil ism-familiyali boshqa tengdoshim bo‘lsa kerak, deya jim o‘tirganman. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida “kerak” modal so‘zi orqali so‘zlovchining noaniqlik munosabati aks ettirilgan.

3. Predmet va predikativ belgi o‘rtasidagi munosabat. Ushbu modallik turi ichki-sintaktik xususiyatga ega bo‘lib, gap tarkibidagi predmet va unga xos belgilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni aks ettiradi. Bunday munosabatlar lug‘aviy jihatdan, fe’l, holat kategoriyalari va sifatning qisqa shakllari orqali ifodalanadi hamda quyidagi ma’nolarni anglatishi mumkin:

a) imkoniyat. Misol tariqasida keltirilgan “Ular kuniga 50-60 kilometrgacha masofani uchib o‘tishi mumkin. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida “mumkin” modal fe’li harakatning bajarilish imkoniyatini ifodalaydi. Ya’ni, ular (masalan, qushlar) bunday masofani uchib o‘tish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi;

b) mayl. “O‘sha yillari ozodlik harakatini sezib qolgan sho‘rolar Buxoroda o‘zgarish va yangilanish qilmoqchi bo‘lishgan. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” jumlasida “-moqchi” zamon qo‘shimchasi orqali sho‘rolarning o‘zgarish va yangilanish qilish istagi, mayli aks ettirilgan;

c) zaruriyat. “Internet makonida esa axborot nihoyatda ko‘p, ularni bir-biridan farqlash, yolg‘on xabarlarni ajrata olish uchun ham immunitet shakllangan bo‘lishi kerak, (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida “kerak” modal fe’li axborotlarni farqlash uchun immunitetning shakllanishi zarurligini ta’kidlaydi;

d) majburiyat. “O‘zbekiston degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. (Yangi O‘zbekiston. 2024, iyun)” gapida “shart” modal fe’li savollarga javob topish va ularni hal qilish majburiyatini ifodalaydi. Agar kelajakda O‘zbekiston nomini saqlab qolmoqchi bo‘lsak, bu ishlarni bugundan boshlashimiz majburiy ekanligi uqtirilmoqda (Золотова, 1973, 351 с).

Zolotovaning tasnifi modallikning turli ko‘rinishlarini ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda farqlashga imkon beradi. Uning yondashuvi modallikni gapning umumiy mazmuniy tuzilishi bilan bog‘liq holda talqin qiladi va modallikning turli til sathlaridagi ifodalanish vositalarini qamrab oladi.

Biroq Zolotovaning tasnifi modallikning barcha jihatlarini to‘liq aks ettirmaydi va ba’zi munozarali tomonlarga ega. Xususan, so‘zlovchining gap mazmuniga munosabatini alohida tur sifatida ajratish bahsli, chunki bu munosabat ko‘pincha birinchi tur, ya’ni so‘zlovchining voqelikka munosabati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, predmet va predikativ belgi o‘rtasidagi munosabatlar modallikning alohida turi sifatida emas, balki leksik-grammatik ma’nolar sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

V.Panfilovning modallik kategoriyasiga mantiqiy-konseptual yondashuvi obyektiv va subyektiv modallik o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bu ikki tushuncha o‘rtasidagi chegaralarni belgilashga xizmat qiladi.

Uning talqiniga ko‘ra, obyektiv modallik gapning mazmuni bilan uzviy bog‘liq holda, muayyan vaziyatdagi real aloqa va munosabatlarning xususiyatlarini yoritadi. Obyektiv modallik gapning semantik tuzilishiga singib, uning

propozitsional mazmunini shakllantiradi va voqelikdagi bog‘lanishlarning haqiqiy holatini aks ettiradi.

Subyektiv modallik esa so‘zlovchining voqea yoki holatni idrok etish jarayonini ifodalaydi. U so‘zlovchining gapning mazmuniga nisbatan shaxsiy munosabatini, bahosini bildiradi. Subyektiv modallik ko‘proq gapning ifoda planiga taalluqli bo‘lib, so‘zlovchining kommunikativ maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Olim obyektiv va subyektiv modallik o‘rtasida qat’iy chegaralar mavjud emasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayni bir til vositalari ham obyektiv, ham subyektiv modallikni ifodalashi mumkin. Bunga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

– fe’lning xabar mayli aksariyat hollarda subyektiv aniqlikni, ya’ni so‘zlovchining gapning mazmuniga ishonchini bildiradi;
– fe’lning xabar mayli obyektiv modallikni ham aks ettirishi mumkin, chunki u voqelikdagi real aloqa va munosabatlarni ham ifodalaydi (Панфилов, 1977, 40).

Shunday qilib, modallikning shakllanishi va ifodalanishida obyektiv va subyektiv omillar o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Garchi tushunchalar xilma-xil bo‘lsa-da, modallikning asosiy ikki ko‘rinishi sifatida obyektiv va subyektiv modallikni ajratish mumkin.

Obyektiv modallik voqelikning real holatini yoki uning haqiqiy manzarasini aks ettiradi hamda faktlar va voqealar o‘rtasidagi mavjud aloqalarni yoritadi. Subyektiv modallik esa so‘zlovchining fikrga nisbatan shaxsiy munosabatini, uning ishonch darajasini ifodalaydi. Bunda so‘zlovchi fikrning haqiqatga qay darajada mos kelishi yoki kelmasligini baholaydi va o‘z navbatida, bu uning subyektiv qarashlarini aks ettiradi.

Modal mantiqda modallik to‘rt asosiy turga bo‘linadi: deontik, epistemik, aletik va dinamik modallik. Ushbu tasnif modallikning turli ma’no qirralarini aniqlashga xizmat qiladi va tilshunoslikda ham keng qo‘llaniladi. Quyida har bir modallik turining o‘ziga xos xususiyatlarini A. Kratzerning qarashlariga tayangan holda tahlil qilamiz(Kratzer, 1991, 640).

Deontik modallik ijtimoiy-axloqiy me’yorlar, qonun-qoidalar bilan bog‘liq bo‘lib, kishilarning xatti-harakatlariga nisbatan majburiyat, ruxsat yoki taqiqni ifodalaydi. Masalan, “Joylarda cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni tashkil etish kerak. (Zarafshon. 2024, yanvar)” gapida deontik majburiyat, “Vaholanki, bunday xatti-harakatlar bajarish mumkin emas. (Zarafshon. 2024, yanvar)” gapida esa deontik taqiq ma’nosi mavjud. Deontik modallik insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Epistemik modallik so‘zlovchining gapning propozitsional mazmuni, ya’ni uning haqiqatga mos kelish darajasiga bo‘lgan ishonchini ifodalaydi. Masalan, “U kecha kelgan bo‘lishi mumkin” gapida so‘zlovchi subyektning kecha kelganiga taxminiy ishonchini bildirmoqda. Shu bilan birga, “U albatta keladi” gapida esa so‘zlovchining subyektning kelishiga yuqori darajada ishonchi aks etgan. Epistemik modallik vositalari orqali so‘zlovchi o‘z bilimlarining qay darajada ishonchli ekanligini tinglovchiga yetkazadi.

Aletik modallik propozitsional mazmunning haqiqatga muvofiqligi, uning mantiqiy zaruriyati yoki imkoniyatini bildiradi. “2+2=4” kabi mantiqiy haqiqatlar aletik zaruriyatga misol bo‘la oladi. Aletik modallik asosan matematik va mantiqiy mulohazalarda qo‘llaniladi.

Dinamik modallik esa subyektning qobiliyati yoki imkoniyatlarini ifodalaydi. “U 100 metrga 10 soniyada yugura oladi” gapida jismoniy qobiliyat, “Bu kompyuter 1 terabayt ma’lumot saqlashi mumkin” gapida esa texnik imkoniyat ma’nosi mavjud. Dinamik modallik narsalar va shaxslarning ichki xususiyatlari bilan bog‘liq.

Ta’kidlash joizki, yuqoridagi to‘rt modallik turi bir-biridan farq qilsa-da, ular o‘zaro aloqador. Misol uchun, deontik majburiyat ko‘pincha dinamik imkoniyatni ham talab qiladi. Epistemik taxmin esa aletik ehtimollik asosida yuzaga keladi.

Kratzerning tasnifi tilshunoslikda modallikning turli ma’no qirralarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq shuni ham inobatga olish kerakki, bu tasnif tilning barcha modal vositalarini to‘laqonli qamrab olmaydi. Xususan, emotsional munosabatni ifodalovchi ba’zi modal so‘zlar (masalan, “afsuski”, “xayriyat” kabi) ushbu tasnifga mos kelmaydi.

Tilshunoslikda deontik va epistemik modalliklarni farqlash alohida ahamiyat kasb etadi. J.Layonz deontik modallikni shaxs tomonidan bajariladigan harakatlarning zarurati va ehtimolligi bilan bog‘lasa, epistemik modallikni harakatlar yoki voqealar ro‘y berishiga nisbatan taxmin yoki ishonch bilan aloqador deb ta’riflaydi. Uning fikricha, har qanday modallik obyektiv yoki subyektiv bo‘lishi mumkin. Obyektiv modallik mustaqil kuzatuvchining dalillarga asoslangan fikrlarini ifodalasa, subyektiv modallik shaxsning o‘z mulohazasiga tayangan holda voqelikning muayyan holatini baholashini anglatadi(Lyons, 1977, 388p.).

F.Palmer ham o‘z tadqiqotlarida deontik va epistemik modalliklarning farqlarini tahlil qilgan. U deontik modallikni majburiyat va ruxsat sifatida, epistemik modallikni esa ehtimollik va ishonch sifatida talqin qiladi. Uning deontik modallikni majburiyat va ruxsat sifatida talqin qilishi juda o‘rinlidir.

Deontik modallik subyektning biror harakatni bajarishi yoki bajarmasligi bo‘yicha tashqi ko‘rsatmalar, ijtimoiy normalar bilan bog‘liq. Masalan, “Ammo harbiy xizmatchi har qanday sharoitda ham o‘z ontiga sodiq bo‘lib, vazifasini bajarishi shart. (Zarafshon. 2024, yanvar)” gapida majburiyat ma’nosi ifodalangan. Deontik modallik ko‘p hollarda nutqiy aktlar (buyruq, taklif, maslahat kabi) bilan ham aloqador.

Epistemik modallikni ehtimollik va ishonch ma’nolari bilan bog‘lash ham to‘g‘ri yondashuvdir. Epistemik modallik voqelikning ro‘y berish imkoniyati, unga ishonch darajasini bildiradi. Masalan, “Ko‘llar tizimida suv sathining pasayib ketishi esa ushbu salbiy holatning yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin. (Zarafshon. 2024, yanvar)” gapida o‘rtacha ehtimollik, “Hech shubhasiz, biz bularning barchasini prokuratura organlari faoliyatiga berilayotgan yuksak e’tiborning yana bir amaliy ifodasi sifatida qabul qilamiz va ana shu ishonchni oqlash uchun bundan buyon ham bor kuch-g‘ayratimiz, bilim va tajribamizni safarbar etamiz. (Xalq so‘zi. 2024, yanvar)” gapida esa kuchli ishonch ifodalangan. Epistemik modallik orqali so‘zlovchining propozitsional mazmun haqiqiyligiga munosabati aks etadi.

F.Palmer ta’kidlaganidek, bu ikki modallik turi turli lisoniy shakllar orqali ifodalanadi. Deontik modallik, asosan, modal fe’llar, buyruq mayli, maxsus konstruktsiyalar bilan bog‘liq bo‘lsa, epistemik modallik uchun modal fe’llar, modal so‘zlar va sintaktik vositalar xosdir. Masalan, “You must do it” (Sen buni bajarishing kerak.) va “You are required to do it” (Sendan buni bajarishni talab etiladi.) jumlalarida deontik majburiyat turli usullarda ifodalanmoqda.

Shu bilan birga, olim aytganidek, deontik va epistemik ma’nolar ba’zan o‘zaro bog‘lanishi, qorishishi mumkin. Ba’zi modal birliklar kontekstga ko‘ra har ikkala ma’noni ham ifodalay oladi. Masalan, “You must be aware of this evidence” gapi deontik (majburiyat) yoki epistemik (kuchli ishonch) modal ma’noni bildirishi mumkin.

Yana bir muhim jihat shundaki, deontik va epistemik modalliklar nafaqat alohida gap doirasida, balki butun diskurs, matn miqyosida ham namoyon bo‘ladi. Ular keng kontekst, muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq.

Tilshunoslikda aletik va dinamik modalliklar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi bu ikki tushuncha o‘rtasida ko‘pincha farq sezilmasa-da, ba’zi tadqiqotchilar ularning o‘ziga xos jihatlarini ta’kidlashadi(Papafragou, 2000, 220). Aletik modallik gaplarning mantiqiy haqiqiyligini ifodalasa, dinamik modallik subyektning qobiliyati yoki imkoniyatini anglatadi. Aletik modallik obyektiv, dinamik modallik esa subyektiv xarakterga

ega. Shuningdek, aletik modallik mantiqiy zaruriyat va imkoniyatni aks ettirsa, dinamik modallik subyektning ichki imkoniyatlarini ifodalaydi. Aletik modallik “zarur”, “mumkin” kabi predikatlar orqali, dinamik modallik esa “qodir”, “-a oladi” kabi birliklar yordamida ifodalanadi.

F.Palmer modallikning asosiy mezonlaridan biri sifatida subyektivlikni ko‘rib chiqadi. U an’anaviy deontik va epistemik modallik turlari bilan bir qatorda dinamik modallikni ham ajratadi. Palmer dinamik modallikni subyektning biror ishni bajarish qobiliyati yoki talabini ifodalovchi hamda so‘zlovchining vaziyatga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini aks ettiruvchi modallik turi sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, u qobiliyatni ifodalovchi iboralarni modallikdan tashqari faktik bayonotlar sifatida qarab, ularni modallik doirasiga kiritmaslikni taklif etadi.

Uning modallikning subyektivlik bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlashi o‘rinlidir. Zero, har qanday modal ma’no so‘zlovchining pozitsiyasi va munosabatini aks ettiradi. Shuningdek, dinamik modallikni alohida tur sifatida ajratishi ham asoslidir. Dinamik modallik orqali subyektning qobiliyati, ichki imkoniyatlari va ehtiyojlari ifodalanadi. Dinamik modallikni e’tirof etish modallik maydonining doirasini kengaytiradi va uning antropotsentrik xarakterini namoyon qiladi.

Dinamik modallik doirasiga quyidagi ma’nolar kiritilishi mumkin: a) qobiliyat (subyektning biror harakatni bajarish layoqati); b) ehtiyoj (subyektning biror narsaga muhtojligi); c) istaklar (subyektning istaklarini ifodalash). Shunday qilib, dinamik modallik insonning “ichki dunyosi”ni, uning qobiliyatlari va intilishlarini aks ettiradi.

F,Palmerning yana bir muhim fikri shuki, dinamik modallik orqali so‘zlovchining vaziyatga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari ham ifodalanadi. Masalan, “Markazga shaxsan o‘zi kelgan holda yoki YIDXP orqali murojaat qilishi mumkin. (Namangan sadosi. 2024, yanvar)” degan gapda so‘zlovchining real imkoniyatlari va ishontirish niyati aks etadi.

Biroq, bizningcha, F.Palmerning ayrim qarashlari munozaralidir. Jumladan, uning qobiliyat iboralarini modallik doirasiga kiritmaslik taklifi bahsli. Mening nazarimda, semantik jihatdan “U yugura oladi” bilan “Uning yugurish qobiliyati bor” gaplari o‘rtasida katta farq yo‘q. Ikkalasida ham subyektning imkoniyati ifodalangan, faqat bu ma’no birinchisida grammatik (modal fe’l bilan), ikkinchisida esa leksik (ot bilan) ifodalangan xolos. Aslida qobiliyat iboralari ham modallik maydonining bir qismi bo‘lib, ular ham dinamik ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

J.Baybi, R.Perkins va V.Pagliukaning modal ma’nolarning evolyutsiyasi asosidagi tasnifi modallik hodisasiga yangicha yondashuvni taklif etadi va uning

turli qirralarini qamrab olishga intiladi. Ularning to‘rt guruhli modallik tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: agentga yo‘naltirilgan modallik, so‘zlovchiga yo‘naltirilgan modallik, epistemik modallik va tobe modallik. Bu tasnif modallikning an’anaviy turlarini yangi tushunchalar bilan boyitadi va til hamda nutqda subyektning roli va so‘zlovchining ishtirokini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi(Bybee, 1994, 176 p).

Agentga yo‘naltirilgan modallik tushunchasi dinamik modallik bilan o‘xshash bo‘lib, ikkalasi ham subyektning imkoniyatlari va sharoitlarini ifodalaydi. Biroq agentga yo‘naltirilgan modallik nafaqat subyektning o‘ziga xos xususiyatlarini (masalan, jismoniy qobiliyatini), balki tashqi omillar (ruxsat, majburiyat kabi) ta’sirini ham qamrab oladi.

So‘zlovchiga yo‘naltirilgan modallik tushunchasi nisbatan yangi va o‘ziga xos bo‘lib, u so‘zlovchining propozitsional mazmun va uni bajarishga shaxsiy munosabatini bildiradi. Masalan, “Tuproq bilan shag‘al qatlamini tekshirib ko‘rish uchun mutaxassislar berishingiz kerak. (Said Ahmad, Ufq)” gapi so‘zlovchining ishtirokini va uning tinglovchiga ko‘rsatmasi yoki talabini ifodalashi mumkin. Biroq bu turdagi modallik faqat so‘zlovchining ishtirokini emas, balki uning his-tuyg‘ulari va istak-xohishlarini ham qamrab olsa, yanada mukammal bo‘lar edi.

Epistemik modallik alohida ajratilishi an’anaviy yondashuvga mos keladi. Ushbu modallik turi propozitsional mazmunning haqiqatga muvofiqligi va ro‘y berish ehtimolini bildiradi. Masalan, “Shu bir gapi uning butun vujudini larzaga solishi, hatto taqdirini o‘sha onda yo u yoqli, yo bu yoqli qilishi mumkin. (Said Ahmad, Ufq)” gapi epistemik modallikni ifodalaydi.

Tobe modallik esa gapning bir qismi boshqa qismga tobelik hosil qilganda yuzaga chiqishini ko‘rsatadi. Masalan, “U kelishini aytdi” gapida “kelish” harakati “aytish” harakatiga tobelik hosil qilmoqda. Tobe modallik modal ma’nolarni emas, balki grammatik munosabatlarni ifodalaydi. Shu sababli uni alohida modallik turi sifatida qarash munozarali hisoblanadi.

Umuman olganda, J.Baybi, R.Perkins va V.Pagliukaning tasnifi modallikning an’anaviy turlarini yangi qarashlar bilan boyitadi va modallikni faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki keng ma’noda, pragmatik va antropotsentrik fenomen sifatida o‘rganish muhimligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, ularning tasnifida ayrim munozarali jihatlar ham mavjud. Xususan, agentga yo‘naltirilgan modallik dinamik modallikni to‘liq qamrab ololmaydi. So‘zlovchiga yo‘naltirilgan modallik esa nafaqat uning ishtirokini, balki hissiy holatini ham ifodalashi mumkin. Tobe modallik esa modallik turi sifatida emas, balki modal munosabatlarni ifodalovchi grammatik vosita sifatida qaralsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Obyektiv va subyektiv modallik dixotomiyasi modallik kategoriyasini tushinishda fundamental ahamiyatga ega. Bu ikki modallik turi o‘rtasidagi farqlar quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Obyektiv modallik gapning propozitsional mazmuni bilan bog‘liq bo‘lib, voqelikning real holatini, ya’ni ifoda etilgan fikrning haqiqatga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi. Subyektiv modallik esa so‘zlovchining gapda ifodalangan fikrga nisbatan shaxsiy munosabatini, bahosini va hissiyotlarini ifodalaydi.
2. Obyektiv modallik ko‘proq grammatik vositalar (fe’l mayllari, modal fe’llar) orqali ifodalansa, subyektiv modallik leksik vositalar (modal so‘zlar, kirish so‘zlari), sintaktik konstruktsiyalar va prosodik vositalar yordamida namoyon bo‘ladi.
3. Obyektiv modallik voqelikning haqiqiy manzarasini tasvirlaydi va faktlar hamda voqealar o‘rtasidagi real aloqalarni yoritadi. Subyektiv modallik esa so‘zlovchining fikrga nisbatan pozitsiyasini, ishonch darajasini va emotsional munosabatini aks ettiradi.
4. Obyektiv modallik gapning semantik tuzilishiga singib, uning propozitsional mazmunini shakllantiradi. Subyektiv modallik esa ko‘proq gapning ifoda planiga taalluqli bo‘lib, kommunikativ maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.
5. Obyektiv va subyektiv modallik o‘rtasida qat’iy chegaralar mavjud emas – ayni bir til birligi kontekstga ko‘ra har ikkala modallik turini ham ifodalashi mumkin. Masalan, fe’lning xabar mayli obyektiv modallikni ham, so‘zlovchining ishonchini ham bildirishi mumkin.

Shunday qilib, modallikning shakllanishida obyektiv va subyektiv omillar o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Garchi tushunchalari xilma-xil bo‘lsa-da, modallikning asosiy ikki ko‘rinishi sifatida obyektiv va subyektiv modalliklarni ajratish mumkin. Ularning farqlarini anglash modallik hodisasining mohiyatini chuqurroq tushunish va uning lisoniy ifodasini to‘g‘ri talqin qilish imkonini beradi. Shu bois, tilshunoslikda bu ikki modallik turining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosalar

Modallikning asosiy turlari sifatida obyektiv va subyektiv modalliklar ajratiladi. Obyektiv modallik voqelikning real holatini, subyektiv modallik esa so‘zlovchining fikrga munosabatini bildiradi.

G‘arb tilshunosligida modallik “ildiz” va “epistemik” modallik sifatida ham o‘rganiladi. G.Zolotova, V.Panfilov kabi olimlar modallikni sintaktik va semantik jihatlarini hisobga olgan holda tasniflashga harakat qilgan. Panfilovning mantiqiy-

konseptual yondashuvi obyektiv va subyektiv modallik chegaralarini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Modal mantiqda esa deontik, epistemik, aletik va dinamik modallik turlari ajratiladi. Deontik modallik majburiyat va ruxsatni, epistemik modallik ehtimollik va ishonchni, aletik modallik mantiqiy zaruriyatni, dinamik modallik esa shaxsning imkoniyatlari va qobiliyatlarini ifodalaydi. F.Palmer deontik va epistemik modalliklarni, aletik va dinamik modalliklarning farqlarini tahlil qilgan.

J.Baybi, R.Perkins va V.Pagliukaning tasnifi an'anaviy yondashuvlarni yangi tushunchalar bilan boyitadi va modallikni pragmatik va antropotsentrik fenomen sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Ularning tasnifidagi agentga va so'zlovchiga yo'naltirilgan modalliklar hamda tobe modallik tushunchalari munozarali hisoblanadi.

Demak, modallik hodisasi ko'p qirrali bo'lib, uning turli jihatlarini tadqiq etish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Uning shakllanishi va ifodalanishida obyektiv hamda subyektiv omillar o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Modallik turlarini aniqlashda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni birlashtirish, modallik vositalarining semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. (1994). The Evolution of Grammar: Tense, Aspect, and Modality in Languages of the World. Chicago: University of Chicago Press.

2. Золотова Г.А. (1973). Очерк функционального синтаксиса русского языка. Москва: Наука.

3. Kratzer A. (1991). Modality. In von Stechow A., Wunderlich D. (eds). Semantics: An International Handbook of Contemporary Research. Berlin: de Gruyter.

4. Lyons J. (1977). Semantics. Vol. I, II. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Панфилов В.З. (1977). Философские проблемы языкознания. Москва: Наука.

6. Papafragou A. (2000). Modality: Issues in the Semantics-Pragmatics Interface. Amsterdam: Elsevier.

THE ROLE OF CONCEPTUAL METAPHOR IN COGNITIVE LINGUISTICS

Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna

PhD student, Uzbekistan state university of world languages Tashkent, Uzbekistan
E-mail: abdulkhakovadilafruz@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-0237-6193

Abstract: Cognitive Linguistics offers a dynamic view of language as an integral part of cognition. One of its key components, Conceptual Metaphor Theory (CMT), suggests that metaphor is not merely a linguistic ornament but a fundamental mechanism of thought. This article explores the role of conceptual metaphor within cognitive linguistics, illustrating how metaphor structures human understanding and communication. Through examples and theoretical discussion, the article highlights the pervasive nature of metaphor in everyday language and cognition.

Keywords: cognitive linguistics, conceptual metaphor, embodied cognition, conceptual mapping, image schemas, language and thought, cross-cultural metaphor

Роль концептуальной метафоры в когнитивной лингвистике

Абдулхакова Дилафруз Шамсиддиновна
Аспирант Узбекского государственного университета мировых языков
Ташкент, Узбекистан
E-mail: abdulkhakovadilafruz@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-0237-6193

Аннотация: Когнитивная лингвистика предлагает динамический взгляд на язык как неотъемлемую часть познания. Один из ее ключевых компонентов, теория концептуальной метафоры (CMT), предполагает, что метафора — это не просто языковое украшение, а фундаментальный механизм мышления. В этой статье исследуется роль концептуальной метафоры в когнитивной лингвистике, иллюстрируя, как метафора структурирует человеческое понимание и коммуникацию. С помощью примеров и теоретических обсуждений статья подчеркивает всепроникающую природу метафоры в повседневном языке и познании.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, воплощенное познание, концептуальное картирование, схемы изображений, язык и мышление, кросс-культурная метафора

Kognitiv lingvistikada konseptual metaforaning roli

Abdulxakova Dilafruz Shamsiddinovna
Toshkent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti aspiranti
E-mail: abdulkhakovadilafruz@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-0237-6193

Abstrakt: Kognitiv lingvistika tilni bilishning ajralmas qismi sifatida dinamik ko'rinishni taklif qiladi. Uning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan kontseptual metafora nazariyasi (KMN) metafora nafaqat lingvistik bezak, balki fikrlashning asosiy mexanizmi ekanligini ko'rsatadi. Ushbu maqola kognitiv tilshunoslikdagi kontseptual metafora rolini o'rganadi, metafora inson tushunchasi va muloqotini qanday tashkil qilishini ko'rsatadi. Misollar va nazariy munozaralar orqali maqola metaforaning kundalik til va idrokda keng tarqalgan xususiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so’zlar: kognitiv tilshunoslik, kontseptual metafora, mujassamlashgan bilish, kontseptual xaritalash, tasvir sxemalari, til va fikrlash, madaniyatlararo metafora

Introduction

The field of Cognitive Linguistics (CL) came into being in the latter half of the 20th century as a reaction to systematic approaches that regarded language as an independent system. (Evans & Green, 2006) Some of the pioneers in the field of cognitive science, such George Lakoff and Ronald Langacker, maintained that language inherently reflects greater cognitive structures and processes. Within this paradigm, the Conceptual Metaphor Theory (CMT) has been particularly significant, as it challenges the conventional notion of metaphor as a device that is solely used in literary or rhetorical contexts.

Conceptual Metaphor Theory: Foundations

The authors Lakoff and Johnson [7] state that conceptual metaphors are characterized by the ability to comprehend one conceptual domain via the lens of another. As an illustration, the metaphor “ARGUMENT IS WAR” is the foundation for common statements such as “He attacked every weak point in my argument” or “His criticisms were right on target”. When it comes to this particular situation, the structure of physical confrontation influences how individuals understand and discuss arguments.

According to Lakoff and Johnson (1980), these metaphors are not only language expressions but rather are profoundly ingrained in human cognition to a significant

degree. According to Gibbs [5], they are systematic and frequently shared across cultures, and they express feelings that are embodied. It is consistent with the larger embodied cognition thesis in cognitive linguistics, which asserts that abstract reasoning is founded on sensorimotor experiences. This position is consistent with the aforementioned (previously mentioned\stated) thesis.

Cognitive Mechanisms Underlying Metaphor

In order for metaphor to function, cognitive mappings must be established between a source domain (for example, war) and a target domain (for example, debate). The formation of these mappings is not a random process but rather the result of repeated bodily and social experiences. In the English language, for instance, according to Lakoff and Johnson the metaphor “time is money” represents industrial and capitalist ideals, which are characterized by the commodification of time (“You're wasting my time”, “I can't spare a minute”)[7].

The interaction of metaphor with other cognitive processes, like as categorization, picture schemas, and conceptual blending, is something that cognitive linguists are aware of as well [4]. Basic cognitive structures are provided by image schemas such as CONTAINER, PATH, and BALANCE. These schemas are metaphorically projected onto abstract domains.

Applications and Implications

The use of conceptual metaphors is not limited to common communication; rather, they are important in the construction of scientific theories, political discourse, and cultural narratives. As an illustration, the metaphor "nation is a family" is frequently used in political discourse, wherein political leaders are referred to as "fathers of the nation" and citizens are referred to as “children” [2].

The comprehension of conceptual metaphors has practical consequences for a variety of fields, including education, psychotherapy, artificial intelligence, and communication across cultural boundaries [6]. When it comes to the acquisition of a second language, for instance, having a knowledge of conceptual metaphors can make it easier for learners to comprehend and employ figurative language correctly.

Conclusion

Conceptual Metaphor Theory (CMT) fundamentally reshapes our understanding of language and thought, demonstrating that metaphor is not peripheral but central principle of human cognition. It reveals how abstract and complex ideas are made

accessible through concrete, embodied experiences, supporting the broader thesis of Cognitive Linguistics that meaning is grounded in the human body's interaction with the world.

The study of conceptual metaphors not only deepens our knowledge of linguistic phenomena but also offers valuable insights into cultural worldviews, cognitive development, and cross-cultural communication. Future research can explore how different cultures utilize unique metaphorical systems, how metaphorical thought influences emotions and decision-making, and how artificial intelligence systems might be improved by integrating conceptual metaphor frameworks. Thus, conceptual metaphor remains a critical area of inquiry that connects language, mind, body, and culture — all fundamental dimensions of human experience.

References

1. Abdulkhakova, D., & Bazarbaeva, A. (2025). The cognitive and cultural fabric of formulaic language: insights from English, Russian, and Uzbek expressions Filologiya masalalari (Magistratura), 1(M1), 19–34. https://doi.org/10.36078/987656102
2. Chilton, P. (2004). Analysing Political Discourse: Theory and Practice. Routledge.
3. Evans, V., & Green, M. (2006). Cognitive Linguistics: An Introduction. Lawrence Erlbaum Associates.
4. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind’s Hidden Complexities. Basic Books.
5. Gibbs, R. W. (2006). Embodiment and Cognitive Science. Cambridge University Press.
6. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). Oxford University Press.
7. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
8. Maslova, V. A. (2008). *Kognitivnaya lingvistika: Uchebnoe posobie* (3rd ed., revised and expanded). Minsk: TetraSystems.
9. Teliya, V. N. (1988). Metaforizatsiya i ee rol' v sozdanii yazykovoy kartiny mira. In B. A. Serebrennikov, E. S. Kubryakova, & V. I. Postovalova (Eds.), *Rol' chelovecheskogo faktora v yazyke: Yazyk i kartina mira* (pp. 173–189). Nauka.

LEARNER-CENTEREDNESS AND LEARNER AUTONOMY: A COMPREHENSIVE OVERVIEW

Mahliyo Kukiboyeva,
Namangan State University,
E-mail: mahliyo81@mail.ru

Abstract:
Learner autonomy has become a central focus in modern education, emphasizing students' ability to take responsibility for their own learning. This article provides a comprehensive overview of the theoretical foundations, key principles, and practical approaches to fostering learner autonomy within a learner-centered framework. It explores the interplay between autonomy and self-regulated learning, the role of teachers as facilitators, and the impact of technological advancements on independent learning. Furthermore, it discusses challenges in promoting autonomy across different educational contexts and suggests strategies for enhancing self-directed learning skills. The article concludes with recommendations for integrating learner-centered practices to cultivate autonomous, motivated, and reflective learners.

Keywords: learner autonomy, learner-centeredness, self-regulated learning, independent learning, teacher facilitation, educational technology, higher education, student empowerment

Learner autonomy refers to the ability of learners to take charge of their own learning. This concept, first introduced by Henri Holec in 1981, suggests that autonomous learners can set learning goals, choose appropriate learning strategies, monitor their progress, and evaluate their outcomes (Holec, 1981). Autonomy empowers learners to become active participants in their education rather than passive recipients of information, shifting the control of the learning process from the teacher to the student.

Characteristics of Learner Autonomy

1. Self-direction: Autonomous learners take responsibility for their learning, setting personal objectives and determining the best strategies to achieve them. Little (1991) argues that autonomy involves learners understanding the purposes of their learning and acting independently to pursue their goals.

2. Independent Learning: Autonomy encourages students to rely less on teacher-led instruction and more on self-regulated study. Learners independently seek resources, manage time effectively, and evaluate their progress. This independence nurtures a lifelong learning mindset (Benson, 2011).

3. Motivation: Learner autonomy is closely tied to motivation. Ryan and Deci's (2000) Self-Determination Theory emphasizes that autonomy enhances intrinsic motivation, as learners feel a greater sense of ownership over their educational journey. This motivation is often driven by personal interests and curiosity, fostering deeper engagement with the material.

4. Reflection and Self-assessment: Autonomous learners actively engage in self-reflection and self-assessment to understand their learning processes better. According to Dam (1995), reflection allows learners to become aware of their strengths and weaknesses, enabling them to adjust their learning strategies accordingly.

Developing Learner Autonomy

Fostering learner autonomy requires a shift in the traditional teacher-student dynamic, with the teacher serving as a facilitator or guide rather than a primary source of knowledge. To promote autonomy, several strategies can be implemented:

1.Encouraging Responsibility: Teachers can foster autonomy by gradually giving students more control over their learning. This can include allowing students to set their own learning objectives, choose learning activities, and evaluate their progress. Nunan (1997) argues that learners should be gradually involved in decision-making processes to help them develop the skills necessary for autonomous learning.

2. Task-Based Learning: Learner autonomy can be developed through task-based learning, where students are given complex, real-world tasks that require independent decision-making and critical thinking. Tasks should be designed to encourage learners to seek information, solve problems, and reflect on their learning outcomes (Ellis, 2003).

3. Use of Technology: Modern technology provides learners with a wealth of resources for independent study. Online platforms, mobile applications, and learning management systems give students access to information and tools that support self-directed learning. Benson (2011) emphasizes that technology can greatly enhance learner autonomy by giving students control over when, where, and how they learn.

4. Collaborative Learning: Though autonomy emphasizes individual responsibility, it does not exclude collaboration. Working with peers can support the development of autonomy by providing opportunities for self-regulation and mutual support. Little (2007) highlights that collaborative tasks allow learners to negotiate meaning and reflect on their learning in a social context.

Challenges to Learner Autonomy

Despite its benefits, the development of learner autonomy presents several challenges:

1.Teacher Resistance: In traditional classrooms, teachers may be reluctant to relinquish control, feeling that students are not capable of managing their learning effectively. However, teacher support is essential in scaffolding the development of autonomy (Smith, 2008).

2. Student Dependence: Many students are used to teacher-centered approaches and may find it difficult to adjust to an autonomous learning environment. Cotterall (2000) stresses the importance of gradually introducing autonomy, as some learners may struggle with the responsibility it requires.

3. Cultural Factors: Learner autonomy may not be universally accepted across different educational contexts. In some cultures, teacher-centered education is the norm, and the shift toward autonomy can be seen as a challenge to traditional roles (Benson, 2011).

4. Assessment Systems: Standardized testing and rigid curriculum structures can hinder the development of learner autonomy, as they often prioritize conformity over independent thinking. To promote autonomy, assessment should include self-assessment and formative feedback, allowing learners to take ownership of their progress (Little, 1991).

Learner Autonomy in Language Learning

In the field of language learning, autonomy has become a significant focus as it aligns with communicative approaches that emphasize active, learner-centered interaction. Holec (1981) suggests that autonomous language learners are able to make informed decisions about their learning strategies, set realistic goals for language acquisition, and evaluate their language use in different contexts.

Task-based language learning (TBLT) is an example of a methodology that fosters learner autonomy. Learners are given tasks that mirror real-life language use, requiring them to actively engage with the language and make decisions about how to approach the task. This method aligns with the principles of autonomy by allowing learners to experiment with language in meaningful contexts and self-correct based on feedback (Ellis, 2003).

Conclusion

Learner autonomy represents a shift in education towards more self-directed, engaged, and reflective learning. Autonomy not only fosters independent study skills but also cultivates a deeper sense of responsibility and ownership over the learning process. While there are challenges, with appropriate scaffolding, technology, and supportive teaching practices, learner autonomy can be developed effectively across a range of educational contexts. For university students,

particularly those in the Pedagogy-Psychology department, fostering autonomy can lead to improved academic performance and lifelong learning habits.

References

1. Benson, P. (2011). Teaching and researching autonomy (2nd ed.). Pearson Education.
2. Cotterall, S. (2000). Promoting learner autonomy through the curriculum: Principles for designing language courses. ELT Journal, 54(2), 109–117.
3. Dam, L. (1995). Learner autonomy 3: From theory to classroom practice. Authentik.
4. Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.
5. Holec, H. (1981). Autonomy and foreign language learning. Pergamon.
6. Little, D. (1991). Learner autonomy 1: Definitions, issues and problems. Authentik.
7. Little, D. (2007). Language learner autonomy: Some fundamental considerations revisited. Innovation in Language Learning and Teaching, 1(1), 14-29.
8. Nunan, D. (1997). Designing and adapting materials to encourage learner autonomy. In P. Benson & P. Voller (Eds.), Autonomy and independence in language learning (pp. 192-203). Longman.
9. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68–78.
10. Smith, R. (2008). Learner autonomy (Key Concepts in ELT). ELT Journal, 62(4), 395–397.
11. Kukiboyeva M.M. Chet til o’qitish tizimiga shaxsga yo’naltirilgan yondashuvning kirib kelishi va o’ziga xos xususiyatlari // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023 yil 5 son
12. Kukiboyeva M.M. A Comparative Analysis of Teacher-centred Approach vs Student-centered Approach in Language Instruction // O’zMU xabarlari, 2024 yil (1/3) ISSN 2181-7324
13. Kukiboyeva M.M. The Use Of Short Stories In Communicative And Student-Centered Approach To Language Instruction From An Uzbek Perspective "//The American Journal of Applied Sciences, Volume02 Issue07 July 2020

ELICITING AS A TECHNIQUE OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING

Mahliyo Kukiboyeva, Independent researcher,
Namangan state University, Uzbekistan.
E-mail: mahliyo81@mail.ru
Gulnorakhon Rasulova, bachelor student,
Namangan State University, Uzbekistan.
E-mail: gulnorakhonrasulova27.11.03@gmail.com

Abstract: This article explores the role of eliciting as a key teaching technique within Communicative Language Teaching (CLT), a methodology that prioritizes interaction as a core means of language acquisition. CLT, which emphasizes real-life communication, aims to improve students' communicative abilities through varied instructional approaches. Eliciting, a technique where teachers prompt students to produce language themselves rather than provide direct answers, is presented as an essential tool to enhance student engagement and active participation in the classroom. The article examines the benefits of eliciting, such as increasing speaking practice and fostering deeper learning, as well as its challenges, particularly with respect to varying student proficiency levels. By using techniques like questioning, prompts, visual aids, role-plays, and gap-filling exercises, teachers can encourage students to engage meaningfully with the language. The article also highlights the importance of balancing Teacher Talking Time (TTT) and Student Talking Time (STT) to optimize language learning opportunities. Through these strategies, eliciting contributes significantly to a student-centered, communicative learning environment.

Key words: Communicative Language Teaching (CLT), Eliciting technique, Language acquisition, Student engagement, Active participation, Teacher Talking Time (TTT), Student Talking Time (STT), Speaking proficiency, Language learning methods, Instructional strategies, Classroom interaction, Real-life communication tasks, Questioning techniques, Visual aids in teaching, Role-plays in language learning, Gap-filling exercises, Vocabulary development, Teaching effectiveness, Student-centered learning.

Annotatsiya: Ushbu maqola, tilni o‘rganishning asosiy vositasi sifatida muloqotga asoslangan o‘qitish metodologiyasi bo‘lgan Komunikativ til o‘rganish (KTO) doirasida eliciting (so‘rash) usulining rolini o‘rganadi. KTO o‘quvchilarning muloqot qobiliyatini real hayotiy vaziyatlarda muloqot orqali rivojlantirishga qaratilgan. Eliciting usuli, o‘qituvchilar talabalarni tilni o‘zlari ishlab chiqishlari uchun rag‘batlantirishi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob bermaslikka

undash orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada eliciting usulining foydalari, jumladan gapirish amaliyotini oshirish va chuqurroq o‘rganishni rag‘batlantirish, shuningdek, uning o‘quvchilarning turli darajadagi bilimlarini inobatga olishdagi qiyinchiliklari tahlil qilinadi. Savollar berish, takliflar, vizual yordamlar, rol o‘ynash va bo‘shliqni to‘ldirish kabi usullarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni til bilan mazmunli muloqotga jalb qilishlari mumkin. Maqolada shuningdek, o‘qituvchining gapirish va o‘quvchilarning gapirish vaqti o‘rtasidagi muvozanatni saqlashning ahamiyati va bu til o‘rganish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishdagi roli ta'kidlanadi. Eliciting usuli, bu orqali talabaga yo‘naltirilgan, muloqotga asoslangan o‘qitish muhitida katta ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: Kommunikativ til o‘rganish (KTO), Eliciting usuli, Tilni o‘rganish, Talaba ishtiroki, Faol ishtirok, O‘qituvchi gapirish vaqti (OGV), Talaba gapirish vaqti (TGV), Gapirish qobiliyati, Til o‘rganish usullari, O‘qitish strategiyalari, Sinfdagi o‘zaro aloqalar, Haqiqiy hayotdagi muloqot vazifalari, Savollar berish usullari, O‘qitishda vizual materiallar, Rol o‘ynash faoliyatlari, Bo‘shliqni to‘ldirish mashqlari, Leksikani rivojlantirish, O‘qitish samaradorligi, Talaba markazli o‘qitish.

